

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI  
UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*

*UDK*

**HOTAMOVA IRODA IBROHIMOVNA**

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING  
BADIY ADABIYOTLARDAGI KOGNITIV XUSUSIYATLARI**

Lingvistika - 5A 120102 (ingliz tili)

magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ish ko'rib chiqildi va**

**himoyaga tavsiya etildi**

**Kafedra mudiri**

**f.f., dots. D.R Jumanova**

**“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 yil**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.d., dots. Q.O. Saparova**

---

**Toshkent – 2017**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

*On the right of manuscript*

**UDK**

**HOTAMOVA IRODA IBROHIMOVNA**

**COGNITIVE PECULIARITIES OF COMPOUND WORDS IN  
LITERATURE (IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)**

**5A120102 - Linguistics (the English Language)**

**DISSERTATION**

for academic Master's degree

The work has been discussed  
and recommended for defense,  
The Head of Department  
DS., As.Prof. Dzhumanova D.R.

Scientific advisor:  
PhD., As.Prof. Q.O. Saparova

\_\_\_\_\_  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 y.

**Tashkent – 2017**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

Fakultet: Rus tili va adabiyoti  
Kafedra: rus tili va adabiyoti  
O'quv yili: 2015-2017

Magistratura talabasi: Hotamova I.  
Ilmiy rahbar: Saparova Q. O.  
Mutaxassisligi: 5A120102

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

**Mavzuning dolzarbligi:** Tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar klassifikatsiyasining qiyosiy tahlilini o'zida aks ettirib, bugungi kunda tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan hisoblanuvchi kognitiv tilshunoslik sohasida bajarilgan. Qo'shma so'zlarning kognitiv modellari orqali xususiyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biridir.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:** ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlarini ochib berish va ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

**Ilmiy ishning obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti** ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar bo'lsa, **tadqiqot predmeti** sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlardagi o'xshash va farqli tomonlari o'rganiladi.

**Tadqiqot uslubi va uslubiyati.** Kuzatish metodi, komponentlarni tahlil qilish metodi, kognitiv tahlil metodi, qiyosiy metodlari qo'llanildi

**Tadqiqot natijalarining jihatdan ilmiy yangilik darajasi.** Mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangiligi ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlili, ularning kognitiv modellari, qiyoslanayotgan har ikki tilda qo'shma so'zlarda konseptuallik hodisasi va ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv modellarida produktiv va produktiv bo'lmagan turlari o'rganildi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi.** Filologik oliy o'quv yurtlari talabalariga leksikologiya fanidan nazariy kurslarni o'qitishda, semantika, kognitiv tilshunoslik va matn tahlili, fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borishda, darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan aniqlanadi.

**Ish tuzilishi va tarkibi** mazkur dissertatsiya kirish, 3 bob va bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** 1) ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar klassifikatsiyasini tuzib chiqildi, 2) qiyoslanayotgan har ikki tildagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari kognitiv modellar orqali ochib berildi, 3) qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari ochib berilayotganda ularning produktiv va produktiv bo'lmaganlik hodisasi o'rganib chiqildi 4) ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning konseptual xilma-xilligi qiyosiy tahlil qilindi.

**Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.** Qo'shma so'zlar har qanday tilning lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi va kognitiv tahlilda uning til va ong o'rtasidagi aloqasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyati tasvirini o'rganish uchun davom ettirilishi mumkin

Ilmiy rahbar  
Magistratura talabasi

f.f.d., dots. Q. O. Saparova  
I.I. Hotamova

**MINISTRY OF THE HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

Faculty: Russian language and literature  
Department: Russian language and literature  
Year: 2016-2017

Master's Student: I. I. Hotamova  
Scientific advisor: Q.O. Saparova  
Specialty: 5A120102

**Annotation**

**Topicality of the research** is conditioned by the followings: 1) that it is done in the framework of one of the new anthropocentric linguistic trends – Cognitive linguistics; 2) by the absence of comparative researches of these cognitive models in all languages; 3) by the absence of scientific works devoted to the investigation of cognitive models of compound words in English and Uzbek languages.

**Aim and tasks of research:** the determination of cognitive value of compound words and analyzing their differences and similarities in the English and Uzbek languages.

**Subject and object of research:** Language units that represent cognitive value of compound words in the English and Uzbek languages and their differences and similarities in the mentioned languages.

**Methods of research:** descriptive-analytic, comparative method, method of cognitive modeling, method of conceptual analysis, method of cognitive interpretation of metaphors.

**The degree of novelty of the research** is determined by the fact that this is the first investigation devoted to the cognitive study of similarities and differences of compound words in English and Uzbek languages, the phenomenon of conceptualism in both languages, the productive and nonproductive types of word formation in cognitive models in the given languages.

**Practical value and degree of embed:** the material of the research can be used in delivering lectures and practical lessons on General Linguistics, Cognitive Linguistics, Stylistics, Lexicology, in writing research works, textbooks, dictionaries and manuals.

**The results obtained:** 1) a complex method of cognitive analysis has been worked out; 2) the cognitive value of compound words has been determined; 3) the number of differences and similarities has been revealed; 4) the cognitive interpretation of metaphorical nominations that represent compound words has been done.

**The structure of the dissertation** consists of introduction, three chapters, conclusion and the list of used literature.

**General summary and recommendations.** Compound words play a great role in enriching the vocabulary of any language and they are vital in the study of the relationship between language and mind in cognitive analysis. The dissertation can be continued in the framework of the following topic: cognitive analysis of compound words in different languages.

Scientific advisor:  
Master's student:

Saparova Q. O, PhD, As. Prof  
I. I. Hotamova

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I Bob. Qo'shma so'zlar lingvistik tadqiqot obyekti sifatida</b> .....	10
1.1. So'z yasalish tizimida qo'shma so'zlar.....	10
1.2. Qo'shma so'zlarning izohlanish muammosi.....	22
1.3. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlar klassifikatsiyasi.....	28
1-bob bo'yicha xulosa.....	37
<b>II Bob. Kognitiv tilshunoslik va uning tilni tadqiq etishdagi hissasi</b> .....	40
2.1. Kognitiv tilshunoslik: rivojlanish tarixi va o'rganish obyekti.....	40
2.2. Kognitiv analiz metodlari.....	49
2-bob bo'yicha xulosa.....	67
<b>III Bob. Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarni tadqiq qilishda kognitiv yondashuv</b> .....	70
3.1. Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv modellari .....	70
3.2. Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning konseptual xilma-xilligi .....	84
3-bob bo'yicha xulosa.....	93
Umumiy xulosa.....	97
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	99

## Kirish

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz haotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, xorijiy davlatlar bilan aloqalar rivojlandi va bu ayni paytda chet tilarini o'rganishga bo'lgan talabni oshirdi. Mamlakatimizda minglab tilshunos olimlarning yetishib chiqishida va o'zbek xalqining boy folklor namunalarini butun dunyoga namoyish etishda tilning o'rni beqiyosdir (Karimov, 1999, b 18).

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekabrda 1875-son qaroriga muvofiq chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

“Hozirgi davrda chet tilini o'rganish va o'qitish katta e'tibor kasb etmoqda. Bu, albatta bejiz emas. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan davlatimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning naqadar muhimligi mubolag'a emas, zero xalqimiz o'zining buyuk kelajagi chet ellik sheriklar bilan o'zaro bog'liq ekanini juda yaxshi biladi.... O'zbekiston jamiyatining milliy xususiyatlariga asoslangan va insoniyat qadr qimmatiga mos keluvchi, chet tilini tezroq o'rganish metodini ishlab chiqishimiz kerak” (Karimov, 1998, 312 b).

Chet tillariga berilgan bunday katta e'tibor, ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, so'z bu kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlab beruvchi quroldir. So'z rivojlanishi, ko'payishini o'rganadigan hodisalardan biri bu so'z yasaliş hodisasi bo'lib, har qanday tilda ham tilning lug'ati va rivojlanishi uchun muhim obyekt bo'ladi.

**Mavzuning dolzarbligi** Tilshunoslikda so'z yasaliş hodisasi har doim ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. So'z yasaliş tilda mavjud bo'lgan material va imkoniyatlar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilishdan iborat. Bu jarayon til lug'at tarkibini muntazam boyib borishiga xizmat qiladi.

Soʻz yasaliş masalalari tilshunoslikda fonetika, grammatika, lksikologiya sohalari bilan birga doimo maxsus oʻrganib kelinadi. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, soʻz yasaliş, u bilan bogʻliq boʻlgan hodisalar, shuningdek, soʻz yasaliş bahsning predmeti aniq boʻlsada, lekin bu soha tilshunoslikning boshqa boʻlimlariga munosabati, uning tilshunoslikdagi oʻrni masalasida bir fikrga kelinmagan edi. Koʻpchilik ilmiy asarlarda soʻz yasaliş grammatikaning bir qismi sifatida talqin etilgan boʻlsa, ayrim adabiyotlarda u leksikologiya tarkibida berilgan, hatto, soʻz yasalişining mutlaqo leksikologiyaga mansub emasligi ham taʻkidlanadi.

Maʼlumki, tilshunoslik sohasi keng qamrovli sohalardan boʻlib, unda mavjud boʻlgan har bir boʻlim chuqur ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Bizga ayonki, umumiy tilshunoslikning oʻrganish obyekti soʻz va soʻz yasaliş hodisasi hisoblanadi. Soʻz yasaliş masalasi muhim ahamiyatga egadir va u tilshunoslar tomonidan tan olingan, ammo turlicha talqin qilinadi. Soʻz yasaliş hodisasida qoʻshma soʻzlarning oʻrni beqiyosdir. Qoʻshma soʻzlarning umumiy klassifikatsiyasi boʻyicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan boʻlishiga qaramay, undagi juda koʻplab savollar haligacha oʻz yechimini topa olgan emas. Soʻnggi yillarda esa, tilshunoslikda yangi uslub va yoʻnalish sifatida kognitiv tilshunoslik shiddat bilan kirib keldi. Kognitiv tilshunoslik jadal rivojlanib ketishiga qaramasdan, undagi koʻplab muammolar oʻz yechimini kutmoqda. Jumladan, ingliz va oʻzbek tillaridagi qoʻshma soʻzlarning kognitiv xususiyatlari eng zamonaviy va tilshunoslikdagi dolzarb muammolaridan biri boʻlmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi** Shuni taʻkidlab oʻtish joizki, dastlab ingliz va oʻzbek tillaridagi qoʻshma soʻzlarning badiiy adabiyotlardagi kognitiv xususiyatlari ochib berish nazarda tutilgan boʻlsada, mavzuni oʻrganilganlik darajasini aniqlash jarayonida shu ayon boʻldiki, qiyoslanayotgan tillardagi qoʻshma soʻzlarning kognitiv xususiyatlari nafaqat badiiy adabiyotlar misolida, balki umuman kognitiv nuqtai-nazaridan tadqiqot obyekti va predmeti sifatida qiyosiy tahlil qilinmagan ekan.

Yuqoridgilarni inobatga olgan holda, tadqiqot maqsadi nafaqat badiiy adabiyotlardagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlarini ochib berish, balki ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlarini tahlil qilishda ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- qo'shma so'zlar lingvisik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish;
- ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar klassifikatsiyani taqqoslash;
- kognitiv tilshunoslik va uning tilni tadqiq etishdagi hissasini ochib berish;
- kognitiv analiz metodlari bilan tanishish;
- ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv modellarini, ulardagi o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash;
- ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning konseptual xilma-xilligini ochib berish.

**Ilmiy ishning obyekti va predmeti.** Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar xizmat qildi. **Tadqiqot predmeti** sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlardagi o'xshash va farqli tomonlari o'rganiladi.

**Tadqiqotning metodologik asosi** sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning falsafiy va ijtimoiy asarlari, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim-tarbiyaviy ishlar to'g'risidagi hujjatlar hamda tilshunoslikning umumiy va xususiy nazariyasi, tilshunoslikning so'z yasalish qatlami bo'yicha (V. Evans and M. Green, G. Lakoff, Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev va boshq) olib borilgan tadqiqotlar xizmat qilgan.

**Tadqiqot metodlari:**

- lingvistik tavsiflash metodi (tilshunoslik, asosan, qo'shma so'zlarga oid hodisalarni tahlil qilish va tavsiflash maqsadida);
- komponent tahlil metodi (qo'shma so'zlar tarkibini o'rganish uchun);



- kognitiv tahlil metodi (qo'shma so'zlarning kognitiv modellari va arxisemalarini o'rganish uchun);

- qiyosiy metod (ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar jihatlarini aniqlash maqsadida).

**Tadqiqotning materiali sifatida** ingliz va o'zbek tillarining izohli, sinonimlar lug'atlari hamda, ommaviy- axborot vositalari va badiiy adabiyotlardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi.** Dissertatsion tadqiqotda quyidagilar birinchi marta amalga oshirildi:

1) ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlilda o'rganildi;

2) ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar kognitiv modellari aniqlandi;

3) ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarda konseptual hodisasi ochib berildi;

4) ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv modellarida produktiv va produktiv bo'lmagan turlari o'rganildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati** umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, qo'shma so'zlar nazariyasi uchun ahamiyatli bo'lgan ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlilda o'rganilganligi, qo'shma so'zlar kognitiv modellari va ularning produktiv va produktiv bo'lmagan turlari aniqlanganligi, ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarda konseptual xilma-xillik ochib berilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** filologik oliy o'quv yurtlari talabalariga leksikologiya fanidan nazariy kurslarni o'qitishda, semantika, kognitiv tilshunoslik va matn tahlili, fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borishda, darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan aniqlanadi.

**Ishchi faraz.** Agar ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar kognitiv xususiyatlari asosida tahlil qilinadigan bo'lsa, tilshunoslik sohasida qo'shma so'zlarning yanada samaraliroq va chuqurroq o'rganilishiga erishish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asosiyligi** sharhlashning ilmiy asosi, nazariy tasniflash usullari va nutqda qo'llanuvchi kognitiv xususiyatga ega bo'lgan qo'shma so'zlar haqidagi ilmiy asarlarda va lug'atlarda aks etgan yangi ma'lumotlarni yig'ish bilan ta'minlandi. Tadqiqot ishi davomida qo'shma so'zlarda o'rganilishi kerak bo'lgan masalalar chuqur o'rganib chiqildi va ularga yechim bo'la oladigan farazlar tahliliga e'tibor qaratildi.

**Muokamaga qo'yiladigan asosiy mulohazalar:**

1) Har qanday tilning qo'shma so'zlari shu tilda so'zlovchilarning madaniyati, urf-odatlar va milliy xarakterini o'zida aks ettiradi.

2) Ingliz va o'zbek tilida qo'shma so'zlarni tasniflashda ularning semantik, stilistik va kognitiv jihatlari alohida o'rin tutadi.

3) Qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlarini va ularni til va ong bog'liqligini o'rganishda kognitiv modellar muhim rol o'ynaydi. Ularni bunday tahlil qilishimizda semantik ma'no katta ahamiyatga egadir.

4) Ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv tahlil natijasida aniqlangan kognitiv modellarni o'rganish natijasida, ushbu modellar yordamida qaysi semantik guruhga xos qo'shma so'zlar yasalişini kuzatish mumkin. Ular arxisema, integral sema va differensial semalari orqali konsept to'liq ochib beriladi.

5) So'z yasalişidagi barcha boshqa usullar kabi qo'shma so'zlar ham nutq momentida ma'lum bir funksiya bajarib keladi va bu ularning kognitiv xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

**Tadqiqot ishining aprobatsiyasi** dissertatsiyaning asosiy xususiyatlari nashr ettirilgan maqolalarda o'z aksini topgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusi yuzasidan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistr-talabalar ilmiy konferensiyalarida ishtirok etildi va biriktirilgan, rus tili va adabiyoti kafedrasida yig'ilishlarida muntazam qatnashib borildi, tadqiqot mavzusi yuzasidan O'zDJTU ingliz tili 2 fakultetida leksikologiya fanidan ma'ruzalar o'qildi.

**Dissertatsion ishning nashr ettirilganligi.** Tadqiqot ishining asosiy mulohaza va natijalari tadqiqot mavzusi bo'yicha "kognitiv lingvistika va uning yo'nalishlar" (Toshkent, O'zDJTU, 2016) "kognitiv tilshunoslikda eng ko'p qo'llaniladigan metodlar" (Toshkent, O'zDJTU, 2017) nomli mavzularda ilmiy maqola sifatida "Zamonaviy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va xorijiy tillar o'qitishning muammolari" nomli V-VI ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamlarida nashr ettirilgan.

**Ish tuzilishi va hajmi:** mazkur dissertatsiya kirish, 3 bob va bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Birinchi bob uchtadan paragrafni, ikkinchi va uchinchi bob ikkitadan paragrafni o'z ichiga olgan.

Kirish qismida magistrlik dissertatsiyasining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar, mavzuning dolzarbligi, ishning amaliy va nazariy qiymatining asoslanganligi, himoyaga olib chiqilgan asosiy holatlarning umumiy tavsifi va tahlil usullari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Birinchi bobda so'z yasaliş tizimidagi qo'shma so'zlar, qo'shma so'zlarning izohlanish muammosi, ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlar klassifikatsiyasi berilgan.

Ikkinchi bobda kognitiv tilshunoslikning rivojlanish tarixi va o'rganish obyekti, kognitiv analizda metodlariga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi bob esa ingliz va o'zbek tillarida qo'sham so'zlarning kognitiv modellari va ularning konseptual xilma-xilligining qiyosiy tadqiqotiga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning xulosa qismida erishilgan nazariy va amaliy natijalar bayoni berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida esa tadqiqot ishida foydalanilgan 90dan ortiq ilmiy adabiyotlar, 10dan ortiq badiiy asarlar va bir qancha internet saytlarining nomlari qayd etilgan.

Tadqiqot ishining umumiy hajmi 106 betni tashkil qiladi.

# I BOB. QO'SHMA SO'ZLAR LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

## 1.1. So'z yasaliş tizimida qo'shma so'zlar

Bugungi zamon tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri so'z yasaliş hodisasi bo'lib, hali ham o'z murakkabligini yo'qotmagan bahsli munozara hisoblanadi. So'z yasaliş tilda mavjud bo'lgan imkoniyat va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilishdan iborat. So'z yasaliş til lug'at tarkibini doimiy ravishda boyib borishiga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, har bir tilning so'z yasashda o'ziga xos lingvistik xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni tadqiq etish til taraqqiyotining sinxron va diaxron davrlari nuqtai nazaridan har doim ham dolzarb mavzuga aylangan. Bu borada ingliz va o'zbek tillari so'z yasalişning o'ziga xosligini o'rganish tilshunoslikda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma'lumki, so'z yasaliş oddiy, soddadek tuyulsada, ammo uning obyekt va subyekt tahlil mohiyati nihoyatda serqirra bo'lgani bois, tilshunoslikdan tashqari barcha sohada ham eng murakkab hodisa hisoblanadi. Sababi undagi muayyan qonuniyatlar bevosita til faktlari tahlili orqali o'z isbotini topishi kerak. Shu sabablarga ko'ra so'z yasaliş hodisasini olimlar ba'zan morfologiyaga kiritshsa, ba'zan lekiskologiya sohasiga tegishli deb kelishadi. Juda ko'p ilmiy asarlarda so'z yasaliş grammatikaning tarkibida berilgan bo'lsa, boshqa bir adabiyotlarda esa leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi.

So'z yasaliş hodisasini leksikologiya bo'limiga kiritgan olimlar A.I. Smirnitkiy, I.V. Arnold, T.I. Arbekova kabilarning ishlarini yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida aytib o'tishni joiz deb bildik. O'zbek tilshunosligida so'z yasalişiga birinchilardan bo'lib o'z hissasini qo'shgan olim A. G'ulomovning 50–yillardagi maqolasini keltirib o'tsak: “So'z yasalişini biz hozirgacha morfolgik planda qarab kelmoqdamiz, holbuki, so'z yasaliş qanday bo'lmasin, biror bir usulda yangi so'z yasashi kerakdir. Demak, u leksika–so'z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta'limotga ko'ra, so'z yasaliş va so'z o'zgarishi morfologiyada qaraladi.

Haqiqatdan esa bular formal jihatdan o'xshash, funksional jihatdan esa boshqa–boshqa hodisadir: birinchisi–leksik, ikkinchisi– semantik hodisadir” (Nurmanov, 2002, b. 194).

So'z yasalishi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u leksikologiya – tilning lug'at tarkibi haqidagi fan bilan, o'z o'rnida fonetika va grammatika bilan yaqin, ayniqsa shakl yasash ta'limoti hamda so'z birikmasi sintaksisi bilan ham bo'g'liqdir. Demak, so'z yasalishi masalalari tilshunoslikda leksikologiya, fonetik, grammatika sohalari bilan doimo birga o'rganib keladi.

So'z yasash til lug'atini boyitishning eng samarali usullaridan biri. Zamonaviy ingliz tilida so'z yasalishining ikki xil turi bo'lib, birinchi usul produktiv hisoblanadi. Bunday deyilishiga sabab bugungi kunda ham bu usullar orqali yangi so'zlar yasaladi va bular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) affikslar yordamida (affiksatsiya);
- 2) konversiya;
- 3) abbrivatura (qisqartirish);
- 4) kompozitsiya (so'z yoki negiz qo'shish orqali).

**Affiksatsiya.** Affikslar yordamida, ya'ni qo'shimcha qo'shib so'z yasash ingliz tilining uzoq tarixi davomida eng ko'p qo'llanilgan produktiv usuldir. Bunda biror–bir so'z turkumiga oid so'zga qo'shimcha qo'shiladi.

Affiksatsiyaning ikki turi mavjud: prefiksatsiya va suffiksatsiya.

Prefikslar bu so'zning old qismiga qo'shiladigan qo'shimchalardir. Ingliz tilida prefiksatsiya hodisasi ko'proq fe'llarga xos. Prefikslar ham mustaqil so'z turkumlariga, ham vazifadosh so'z turkumlariga qo'shilishi mumkin.

Mustaqil so'z turkumlariga qo'shiladigan prefikslar o'zakka bog'langan bo'ladi, masalan: –un (*unhappy*). Vazifadosh so'zlarda ishlatiladigan prefikslar esa yarim bog'langan bo'ladi, sababi ular mustaqil holda ham ishlatilishi mumkin: over (overhead).

Prefikslarning asosiy vazifasi so'zning leksik ma'nosini o'zgartirishdir. Prefikslar turli xil mezonlarga ko'ra klassifikatsiya qilinishi mumkin.

1. Semantik, ya'ni ma'no jihatiga ko'ra klassifikatsiya:

a) inkor ma'noli prefikslar: in- (*invaluable*), non- (*nonformals*), un- (*unfree*);

b) ish-harakatning takrorlanishini bildiruvchi prefikslar: de- (*decolonize*), re- (*revegetation*), dis- (*disconnect*);

a) vaqt, masofa va daraja ma'nolariga ishora qiluvchi prefikslar: inter- (*interplanetary*), hyper- (*hypertension*), ex- (*ex-student*), pre- (*pre-election*), over- (*overdrugging*).

2. Prefikslarning kelib chiqishiga quyidagi guruhlarini ko'rishimiz mumkin:

a) milliy (German tillariga oid): un-, over-, under- etc;

b) roman tillariga oid: in-, de-, ex-, re- etc;

d) grek tiliga oid: sym-, hyper- etc.

Suffikslarning ingliz tilidagi asosiy xizmati – so'zlarning oxiriga qo'shilib, yangi ma'no yaratish. Suffikslarning qaysi so'z turkumida so'z yasashi, ma'no jihati, kelib chiqishi va produktivligiga ko'ra bir nechta turlari mavjud.

1. Ingliz tilida suffikslar qaysi so'z turkumiga oid so'z yasashiga ko'ra (bunda suffikslar bir so'z turkumidagi so'zdan boshqa so'z turkumiga oid so'zni yasashga xizmat qiladi) quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) ot yasovchi suffikslar: –er (*fight – fighter*), –dom (*free – freedom*), –ist (*biology – biologist*);

2) sifat yasovchi qo'shimchalar – able (*eat – eatable*), –less (*symptomless*), –ous (*continuous*);

3) fe'l yasovchi qo'shimchalar: –ize (*computerize*), –ify (*micrify*);

4) ravish yasovchi qo'shimchalar: –ly (*slowly*), –ward (*tableward*);

5) son yasovchi qo'shimchalar: teen (*fourteen*), –ty (*sixty*).

2. Semantik, ya'ni ma'no jihatiga ko'ra ingliz tilida suffikslar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

a) ish-harakat bajaruvchisi: –er *experimenter*, –ist *taxist*, –ent (*student*);

b) millat: –ian (*russian*), –ese (*Chinese*), –sh (*English*);

d) collectivity: –ry (*peasantry*), –ship (*leadership*), –ati (*literati*);

e) kichraytirish-erkalash: –ie (*horsie*), –let (*booklet*), –ette (*kitchenette*);

f) sifat: –ness (*hopelessness*), –ity (*answerability*);

3. O'zakning leksik–semantik xususiyati bo'yicha ma'lum bir o'zaklarga qo'shiladigan suffikslar quyidagilarga bo'linadi:

a) fe'lga qo'shiluvchi qo'shimchalar: –er (*commuter*), –ing (*suffering*), –able (*flyable*), –ment (*involvement*), –ation (*computerization*);

b) otga qo'shiladigan qo'shimchalar : –less (*smogless*), ful (*roomful*), –ism (*adventurism*), –ster (*pollster*), –nik (*filmnik*), –ish (*childish*);

d) sifatlarga qo'shiladigan qo'shimchalar: –en (*weaken*), –ly (*pinkly*), –ish (*longish*), –ness (*clannishness*).

4. Kelib chiqishiga ko'ra suffikslarning quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsata olamiz:

a) milliy (german tillariga oid), –er, –ful, –less, –ly;

b) roman tillariga oid : –tion, –ment, –able, –eer;

d) grekcha: –ist, –ism, –ize;

e) rus tiliga oid –nik.

5. Produktivligiga ko'ra suffikslarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

a) produktiv: –er, –ize, –ly, –ness;

b) yarim–produktiv: –eer, –ette, –ward;

d) produktiv bo'lmagan: –ard (*drunkard*), –th (*length*).

Affiksatsiya jarayoni eng mahsuldor usuldan biri bo'lib, o'tmishdan hozirgacha yangi so'z yasashda xizmat qiladi. Bu usulda so'zga qandaydir qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. So'zning oldiga yoki so'zning oxiriga qo'shimcha qo'shish orqali bu jarayon produktivligini yo'qotmagan.

**Konversiya.** Konversiya ingliz tili so'z yasash tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. U yana, shuningdek, qo'shimchalarsiz so'z yasash, deb ham ataladi. Konversiya so'zi “conversion” so'zidan olingan bo'lib, bu so'z birinchi marta Henri Svitning 1891– yilda chiqarilgan “yangi ingliz tili grammatikasi” kitobida ishlatilgan (Stevenson, 1988, b. 145).

Olimlar konversiya haqida turli xil fikrlarni ilgari surishgan. Masalan, professor A.I. Smirntitsky konversiya so'z yasashning morfologik usuli degan.

Ushbu holatda bir soʻz turkumiga oid soʻz boshqa soʻz turkumiga paradigmasini oʻzgartirgan holatda oʻtadi (Смирницкий, 1956, b. 309). Misol uchun, *a dial* oti oʻz paradigmasini oʻzgartirib, *to dial* feʼliga aylanadi.

A. Marchand esa oʻzining «The Categories and Types of Present-day English» kitobida konversiyani morfologik–sintaktik usul, deb atagan, chunki biz bunda nafaqat soʻzning paradigmasini oʻzgartiramiz, balki uning sintaktik vazifasini ham almashtiramiz. Masalam, *I need some good paper for my room* («paper» oti ushbu gapda toʻldiruvchi). *I paper my room every year* (bu gapda esa “paper” feʼli kesim vazifasida kelgan) (Marchand, 1958, b. 90).

Bugungi kunda konversiya ingliz tilida feʼl yasashning eng asosiy usullaridan biridir. Feʼllar turli xil semantik guruhlariga mansub otlardan yasaladi, shuning uchun turli maʼnolarga ega boʻladi:

1) agar inson tana qismlarini bildiruvchi otdan yasalsa, feʼl instrument maʼnosiga ega boʻladi: *to eye, to finger, to elbow, to shoulder* va boshqalar. Agar asbob–uskuna, qurol, instrumentni bildiruvchi otdan yasalsa, feʼl instrument maʼnosiga ega boʻladi: *to hammer, to machine–gun, to rifle, to nail*;

2) feʼllar oʻzi yasalgan ot ishora qilgan tirik mavjudotlarga xos harakatlarga ishora qilishi mumkin: *to crowd, to wolf, to ape*;

3) agar predmetga ishora qiluvchi otdan yasalgan boʻlsa, feʼllar oʻzlashtirish, qoʻshimcha qilish yoki mahrum qilish maʼnolarini beradi: *to fish, to dust, to peel, to paper*;

4) oʻzi yasalgan ot joy nomini bildirsa, feʼllar oʻsha joyga ishora qilishi mumkin: *to park, to garage, to bottle, to corner, to pocket*;

5) oʻzi yasalgan ot paytni bildirsa, feʼllar oʻsha paytga ishora qilishi mumkin: *to winter, to week–end*.

Feʼllar sifatdan ham oʻzlashtirishi mumkin, bunday holatlarda ular holatning oʻzgarishiga ishora qiladi: *to tame, to clean, to slim*.

Feʼllar ham otga oʻzgarishi mumkin. Konversiya orqali yasalgan otlar quyidagilarga ishora qiladi:

1) qisqa vaqtda bajariladigan ish–harakatlar: *a jump, a move*;



- 2) jarayon yoki holat: *sleep, walk*;
- 3) o'zi yasalgan fe'l orqali ifodalangan ish–harakatning bajaruvchisiga: *a help, a flirt, a scold*;
- 4) o'zi yasalgan fe'l orqali ifodalangan ish–harakatning obykti yoki natijasiga: *a burn, a find, a purchase*;
- 5) fe'l tomonidan ifodalangan ish–harakat o'rniga: *a drive, a stop, a walk*.

Fe'ldan yasalgan ko'p otlar faqat birlik shaklda ishlatilishi mumkin va ular lahzalik ish–harakatlarga ishora qiladi. Bunda ular quyidagi fe'llar bilan birga ishlatiladi: *to have, to get, to take* va boshqalar. Masalan: *to have a try, to give a push, to take a swim*.

Konversiya usuli, yuqoridagilarni hisobga olib aytadigan bo'lsak, o'ziga xos so'z yasalishi usuliga kiradi va shu jihatlari orqali ushbu produktiv usulda muhim rol o'ynaydi.

**Abbrivatura.** So'z va so'z guruhlarining qisqarishi hisoblanadi. Bu qisqarishning sababi lingvistik va ekstra–lingvistik tusga egadir. Ekstra–lingvistik sababida odamlar hayotining o'zgarishi va bu o'zgarishlar ko'pgina qisqarishlarga duch kelishini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy ingliz tilida bir qancha yangi abbrivatura formalari mavjud bo'lib, bu hayot tarzi jadallik bilan o'sib ketmoqda va imkon darajasida ko'p ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak degani.

Qisqartma so'zlarning asosiy 2 ta turi bo'lib, ular grafik va leksik jihatdan farqlanadi. Grafik jihatdan ular yozma matnda joylarni kamroq egallash uchun ishlatiladi. Ular ham o'z o'rnida bir nechta semantic guruhlarga bo'linib ketadi. Biz bu yerda misollar berish bilan kifoyalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: *days of weeks – Mon., names of month – Apr., names of countries – UK*.

Leksik tomondan so'zning bir qismini qisqartirish orqali yasaladi va leksik nuqtai–nazaridan apokoplar deyiladi. Masalan: *disco (dicotheque), expo (exposition), intro (introduction)*.

Qisqartma soʻzlar bosh harflarni qisqartirish yoʻli bilan odatda leksik ham, grafik ham turda boʻlishi mumkin. Masalan: *J.V – joint venture– grafik, BBC – leksik turga misol boʻla oladi.*

Shuni taʼkidlash joizki, abrivatsiya tarixdan hozirgacha eng mahsuldor va qiziqarli soʻz yasaliş usuli hisoblanadi. Shu sababga koʻra, zamonaviy ingliz tilida keng tarqalgan.

**Qoʻshma soʻzlar.** Keling endi tadqiqot ishining asosiy mazmuni boʻlmish qoʻshma soʻzlarning soʻz yasalişidagi ahamiyati va mazmunini koʻrib chiqsak. Barcha tilshunoslik hodisalari kabi qoʻshma soʻz yasalişiga ham zamonaviy va tarixiy yondashuv mavjud. Zamonaviy yondashuv asosan qoʻshma soʻzning strukturaviy va semantik xususiyatlariga koʻproq eʼtibor qaratsa, tarixiy yondashuv vaqt oʻtishi bilan qoʻshma soʻzlarda sodir boʻlgan oʻzgarishlarni oʻrganadi.

Qoʻshma soʻz paydo boʻlishi bilan ingliz tilidagi barcha koʻp bogʻinli soʻzlardek fonetik oʻzgarishlarga duch keladi. Ushbu fonetik oʻzgarishlar, oʻz navbatida, soʻzning morfologik strukturasi ham taʼsir oʻtkazadi.

Qoʻshma soʻz tarkibidagi alohida olingan morfemalar yoʻqolib ketishi, qoʻshma soʻzning tarkibiy maʼnosi oʻzgarishi yoki umuman unutilishi mumkin. Ushbu jarayon, yaʼni oddiylashish jarayoni, davomida qoʻshma soʻz shunchalik keskin oʻzgarishlarga uchrashi mumkinki, ular yasama yoki oddiy soʻzlarga aylanadi.

Oddiy til foydalanuvchisi yangi soʻzlarning vujudga kelishi yoki ularning tilga oʻrnashish jarayonini boshqaruvchi faktorlarga koʻp ham eʼtibor beravermaydi. Soʻzni tushunish uchun uning qanday shakllanganligini, oddiy yoki murakkab ekanligini aniqlash shart emas, yaʼni uning qismlarga boʻlina olishi yoki olmasligi unchalik muhim emas.

Biz oʻzimiz uchun yangi boʻlgan soʻzni u bildirgan tushuncha yoki predmetga qarab bilib olishimiz mumkin. Baʼzi soʻzlar boshqalariga qaraganda shaffofroq. Misol uchun, *indescrivable* soʻzida bizga tanish boʻlgan hamda boshqa koʻplab soʻzlar yasalişini mumkin boʻlgan “inkor qoʻshimchasi + oʻtimli feʼl + sifat yasovchi qoʻshimcha» strukturasi koʻrishimiz mumkin. Ushbu strukturani bilgan

holda, biz osonlik bilan uning ma'nosini chiqara olamiz: "tasvirlab bo'lmaydigan" ("cannot be described"). Shunga qaramasdan, biz xuddi shu strukturaga ega bo'lgan, lekin ushbu tahlil ish bermaydigan so'zlarni ham uchratishimiz mumkin: Unfashionable, unfavorable.

So'z yasashida qo'shma so'zlarning ahamiyati haqida alohida urg'u bergan holda, bu hodisaning yasash usullari va jarayonini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qo'shma so'zlarni yasash jarayoni bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Qo'shma so'zlar ma'lum davrdagi produktiv formulalar bilan bir vaqtda vujudga kelishi. Ma'lum vaqt produktiv bo'lgan formula, kun kelib o'zining bu qobiliyatini yo'qotishi ehtimoli yuqori. Shunga asosan, ma'lum paytda "fe'l + ravish" formulasi juda produktiv bo'lgan va unga mos tarzda bir qancha qo'shma so'zlar yasalgan: *outgrow*, *overturn* kabi, lekin bugungi kunda bu struktura produktiv hisoblanmaydi va so'zlar yasalishi to'xtatilgan.

2. Qo'shma so'zlar erkin so'z birikmalarining strukturaviy qo'shilishi yoki sekin–asta semantik izolatsiya jarayoni natijasi bo'lishi. Bularga misol tariqasida *forget – me – not* – ko'k gulli kichik o'simlik, *scarecrow* – qushlarni qo'rqitish uchun yasalgan qo'riqchi, *pickpocket* – cho'ntakkesarlik, *bridesmaid* – kelindugonasi kabi so'zlarni keltira olamiz. Ushbu qo'shma so'zlar aslida erkin so'z birikmalari bo'lgan va keyinchalik vaqt o'tishi bilan semantik va strukturaviy jihatdan izolyatsalangan. Yuqoridagi qo'shma so'zlarni tashkil qilgan so'zlar bir vaqtlar anglatgan ma'nosini yo'qotgan, ularning qaysi so'z turkumiga oidligi va butun bir ibora izolyatsalangan, ma'nosi maxsuslashtirilgan, natijada ajralmas qo'shma so'zlarga aylangan.

Ingliz tilshunosligidagi ikkinchi so'z yasash usullari ham bo'lib, ular eski ingliz tilida so'z yasay olgan, ammo bugungi kunga kelib bunday xususiyatlarini yo'qotgan produktiv bo'lmagan usullardir. Ular quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) tovush o'zgarishi;
- 2) urg'u o'zgarishi;

- 3) tovushga taqlid;
- 4) uyg'unlashtirmoq;
- 5) qayta tiklash.

**Tovushlar o'zgarishi** – so'z yasalishining usuli bo'lib, odatda bunda tovushlar o'zgarishi oqibatida yangi so'z yasaladi. Masalan: *strike* – *stroke*, *sing* – *song*.

Otlardagi jarangsiz undoshlarni fellardagi jarangli undoshlarga aylantirish yoki shunchaki otning oxiriga "e" harfini qo'shish orqali eski ingliz tilida yangi so'z yasalgan. Misol uchun quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: *bath* – *bathe*, *live* – *life*, *breath* – *breathe*.

**Urg'u o'zgarishi.** Bu usul so'zdagi urg'uning joyi almashinuvi oqibatida yangi so'z, yangi ma'no yaratadi. Odatda bunday so'zlarni biz ot va fel so'z turkumlarida ko'proq uchratishimiz mumkin bo'lib, ularni asosan ingliz tiliga boshqa tildan kirib kelgan so'zlar tashkil qiladi. Masalan: *accent* – *to ac`cent*, *to affix* – *`affix*, *to con`flict* – *`conflict*.

**Tovushga taqlid.** So'z yasalishining bu usuli turli xil tovushlarga taqlid qilgan holda yangi so'zlar yaratish hisoblanadi. Ular bir qancha semantik guruhlarga bo'linadi:

a) insoniyat tomonidan chiqadigan tovushlarga taqlidlar: *to whisper* – *shivirlamoq*, *to giggle* – *hiringlamoq*, *to mumble* – *g'uddilamoq*, *to sneeze* – *aksirmoq*, *to whistle* – *hushtak chalmoq*;

b) hayvonlar, hasharotlar, qushlar tovushiga taqlidlar: *to hiss* – *vishillamoq*, *to buzz* – *vizillamoq*, *to bark* – *vovullamoq*, *to moo* – *moramoq*, *to twitter* – *sayramoq*;

d) narsalar tovushiga taqlid so'zlar: *to splash* – *sachratmoq*, *to rustle* – *shitirlamoq*, *to clatter* – *taq-tuq qilmoq*, *to bubble* – *ko'piklamoq*, *to ding-dong* – *qo'ng'iroq ovozi*.

**Uyg'unlashtirmoq.** Ikki yoki undan ortiq ma'nosi bir-biriga yaqin yoki sinonim so'zni qo'shish orqali yangi so'z yasamoq. Bunda so'z yasashdagi birinchi usulning abbreviatura va kompozitsiya usuli yordamga keladi. Odatda bu usul

birinchi soʻzning oxiridan ikkinchi soʻzning boshidan kesib va ularni birga qoʻshish oqibatida sodir boʻladi.

Ingliz tilidagi xuddi shunday soʻzlardan biri “smog” soʻzi boʻlib, ikkita bir xil sinonim soʻzdan, yaʼni *smoke* va *fog* (tutun) soʻzlaridan yasalgan, maʼnosi “tutun aralash” degani. Bunga yana koʻplab misollarni keltirishimiz mumkin: *acromania* (acronym mania), *cinemadict* (cinema addict), *chunnel* (channel, canal), *dramedy* (drama comedy), *detectifiction* (detective fiction), *faction* (fact fiction) (fiction based on real facts), *informecial* (information commercial), *Medicare* (medical care), *magalog* (magazine catalogue) *slimnastics* (slimming gymnastics), *sociolite* (social elite).

**Qayta tiklash.** Odatda bu soʻz yasalişida soʻzning oxirgi oʻzagini tushirib qoldirish orqali yangi soʻz yasaladi. Bu struktura ilk bora tilga paydo boʻlganda oʻzlashma soʻzlar uchun tushunarsiz boʻlgan.

Professor Yartseva tildagi bu tushunarsiz holatni quyidagicha izohlab beradi: bu juda ham oddiy boʻlib soʻzdagi suffiksga antonim sifatida qarash kerak. Masalan: *to speak* (gapirmoq) – *speaker* (*notiq*). Oxiridagi –er tushirib qoldirish evaziga yangi soʻz hosil boʻldi. Fransuz tilidan kirib kelgan “*begger* (*tilamchi*)” soʻzi oxiridagi –er tushib qolsa, *to beg* (tilamchilik qilmoq yoki yalinmoq) kelib chiqadi. Boshqa misollarda koʻrsak: *to accreditate* (accreditation), *to bach* (bachelor), *to collocate* (collocation), *to enthuse* (enthusiasm), *to compute* (computer), *to emote* (emotion) *to reminisce* (reminiscence), *to televise* (television) (Yartseva, 1960, b. 76).

Ingliz tilida soʻz yasalişining ikki turi yaʼni produktiv va produktiv boʻlmagan turini koʻrib chiqdik. Ular oʻz ichki xususiyatlariga qarab yana bir qancha turlarga ham boʻlinib ketadi. Produktiv usul bu hozirgi zamonaviy ingliz tilida ham soʻz yasay oladigan usul hisoblanadi, ammo produktiv boʻlmagan usul bugungi kunda bunday xususiyatini yoʻqotgan. Qiyoslanayotgan ikkinchi tilimizda soʻz yasalişhi eng muhim hodisa sanaladi.

Oʻzbek tilida soʻz yasash haqida ilk manbalar Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni Lugʻoti–turk” asarida berilgan. Ushbu asarda soʻz yasalişining aynan

affiksatsiya usuliga doir mukammal ma'lumotlar berilgan. (A.Nurmatov, 2002, b. 46–47)

O'zbek tilida ham ingliz tilidagidek so'z yasash usullari mavjud bo'lib, ular o'zbek adabiy tilining lug'atini boyitishga yordam beradi.

1. Affiksatsiya usuli
2. Semantik usul
3. Semantik–leksik usul
4. So'zlarni qisqartirish usuli
5. Kompozitsion usul

**Affiksatsiya usulida so'z yasash.** Bunda biror–bir so'z turkumiga oid so'zga qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, affiksatsiya usuli o'zbek tilshunosligida uzoq o'tmishdan buyon o'rganilib kelinayotgan usul hisoblanadi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida affiksatsiya usuli eng mahsuldor usul sanaladi. Masalan: *gul–la, sport–chi, paxta–kor, ish–la*.

**Semantik, ya'ni ma'no jihatiga ko'ra so'z yasash.** Tilda mavjud bo'lgan so'zning ma'nosi o'zgarishi oqibatida yangi so'zning hosil bo'lishi. Odatda bu usulda so'z o'z turkumini boshqa so'z turkumiga o'zgartiradi, ammo bu yerda ma'no katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni boshqa so'z turkumiga ko'chish orqali yangi ma'no beradi. Qiyoslang: *yupqa* (belgi – sifat) – *yupqa* (taom nomi – ot).

**Semantik–leksik usulda so'z yasash.** Bir vaqtlar so'z birikmasi bo'lgan so'zning qo'shma so'zga aylanib ketishi. Masalan: *mingboshi, tokqaychi*. Vaqt o'tishi bilan ular orasidagi sintaktik aloqa yo'qolgan.

**So'zlarni qisqartirish.** Bu usul odatda o'zbek tilida ot so'z turkumida juda ham ko'p uchraydi va ingliz tilidagidek so'zlarni qisqartirish orqali yangi ma'no kelib chiqadi.

1. So'zlar tarkibidagi birinchi harflarni yozish (bosh harflar bilan). Odatda ular alifbe tartibida o'qiladi: *MDH(em, de, he) BMT, IIB, GM, AQSH*.
2. So'zlar tarkibidagi birinchi so'zdan tashqari ma'lum bir qismdan foylangan holda: *ToshMI, O'zAA, O'zMU; O'zDJTU*.

3. So'zlarning birinchi yopiq bo'g'inlarni qisqartirish orqali: *Toshviltrans, O'zdamnashr.*

Odatda shartli qisqartmalar ham mavjud bo'lib, ular qisqartma otlardan farqlanadi: *S. Rahimov, A. Navoiy* kabi.

**Kompozitsion usul, ya'ni ikki mustaqil asosdan tashkil topgan so'z yasali sh hodisasi.** Ya'ni qo'shma so'zlar hosil bo'linishi demakdir. Ular bir necha mustaqil ma'noli morfemalarning qo'shilishidan yasaladi. Bu odatda **sintaktik** usul ham deyiladi, yanada ochiqroq aytadigan bo'lsak **qo'shma so'zlardir**: *bel+bog', havo+rang, olib+sotar, atir+gul, olib+bormoq, taklif+qilmoq, har+doim.* Kompozitsiya usuli bilan qo'shma so'zlar yasali shi murakkab hodisadir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qo'shma so'z birdan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan bir so'zdir. U shu xususiyati bilan sodda so'z va so'z birikmasidan farqlanadi. Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil asosning birikishi orqali yangi so'z yasalgan bo'lsay—u, ammo hozirgi kunga kelib ulardan birortasi mustaqillik xususiyatini yo'qotgan bo'lsa, u qo'shma so'z hisoblanmaydi. Masalan, "*kechqurun*" so'zidagi ikkinchi qism o'z mustaqilligini yo'qotgan va bugungi kunga kelib u sodda so'z tarkibiga kiradi. Qo'shma so'zning sodda so'zdan farqi shundaki, sodda so'zda mustaqil ma'noli morfema bitta, qo'shma so'zda esa birdan ortiq bo'ladi, masalan, sodda so'z: *terimchi, ko'kalamzorlashtir, eslatma, tortinchoq*; qo'shma so'z: *erksevar, belbog', tomorqa, asalari.*

O'zlashtirilgan ba'zi so'zlar ham birdan ortiq mustaqil morfemaga ega bo'lsada, ammo sodda so'z hisoblanadi. *zararkunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr, aeroport.* Qo'shma so'z tarkibida bugungi kunda mavjud mustaqil ma'no ifodalaydigan birdan ortiq morfemaning bo'lishi esa shart.

Mustaqil ma'noli so'z bilan yordamchi so'zning birikishidan qo'shma so'z hosil bo'lmaydi. Shunga ko'ra yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan *o'qib bermoq, yoza boshlamoq, uxlab qolmoq* kabi birikuvlar qo'shma so'z (qo'shma fe'l) bo'la olmaydi. Chunki bularda birinchi fe'l o'z ma'nosini saqlagan holda, keyingisi qo'shimcha ma'no beradi. Demak, bunda birdan ortiq fe'l o'zaro

birikishidan, yangi fe'l (yangi so'z) hosil bo'lmaydi. Har ikki qiyoslanayotgan tilda ham bular bir–biridan farq qiladi. Shu sababdan qo'shma so'z va so'z birikmalari haqida to'liq ma'lumotni qo'shma so'zlar izohlanishida alohida ko'rib chiqamiz.

So'z yasalishi har bir tilning lug'at boyligi manbai, asosidir. Har bir tilning o'ziga xos so'z yasalish usuli bo'ladi, jumladan ingliz va o'zbek tillarining ham. So'z yasalish usulidagi qo'shma so'zlar hozirgi ingliz va o'zbek tillaridagi eng qulay samarali, shu bilan birga eng dolzarb usuldir. Shu sababdan ham biz undagi izohlanish muammoni keyinggi qismda ko'rib chiqamiz.

## **1.2. Qo'shma so'zlarning izohlanish muammosi**

Tilshunoslik adabiyotida qo'shma so'zlar tuzilishi bo'yicha olimlarning turli xil izlanishlari mavjud. Ulardan yorqin namuna sifatida M.V Sviridovich, A.Sh.Altayeva, Masalan, mashhur rus tilshunosi M.V. Sviridovich qo'shma so'zlar yasalish yo'llari nuqtai nazaridan qarab chiqadi. U qo'shish mustaqil so'z yasovchi bilan bog'liq yo'l, deb hisoblaydi. M.V. Sviridovich qo'shma so'zlardagi omonim, sinonim va antonimlarga alohida katta e'tibor beradi (Sviridovich, 2003, b. 25).

A.Sh. Altayeva qo'shma sifatlarning va ot so'z turkumlaridagi so'zlarning morfemik sistemasi va so'z yasovchi strukturalarini o'rganadi, hamda bu holatlarning bir–biriga xosligini o'rnatadi. Olima ilmiy izlanishlaridagi yangilik shundaki, hozirgi rus tilshunosligida birinchi marta qo'shma so'zlarning so'z yasovchi strukturasi va morfemik sistemasining qiyosiy tasnifi, tilning qo'shma tengliklari birligi – morfemik va so'z yasovchi birliklar sifatida ko'rib chiqiladi (Altayeva, 2004, b. 21). Bizga ko'rsatib berilishicha, qo'shishning morfemik tarkibida bu juda o'ziga xos va albatta alohida o'rganish talab etadigan holatdir.

E.Yu. Semushina qo'shma so'zlarni tadqiq qilishga boshqacha yondashgan. Tilshunos o'z ishida substansiv frazeologik birliklar va qo'shma so'zlarni bir–biriga taqqoslaydi (Semushina, 1979, b. 25). Shuni aytish joiz–ki, E.Yu. Semushina taqqoslangan tillardagi qo'shma so'zlarning izomorfemik va



allomorfemik xarakteristikasini ko'rib chiqish bilangina chegaralanib qolgan. Biroq qo'shma so'zlarning millat–madaniy o'ziga xosligini ko'rib chiqilmagan.

Qo'shishning strukturasi hozirgacha asosan so'z yasashning o'ziga xos jihatilari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Uning morfemik tarkibi esa haligacha izlanishlarda.

I. Ibragimxo'jayev qo'shma so'zlarni hozirgi ingliz tilida yangi va okkazional so'zlarning hosil bo'lishi jihatidan ko'rib chiqadi. Ayniqsa qo'shishning uch faol model sinflarini ajratib ko'rsatishni e'tiborga loyiq deb hisoblaydi:

- 1) faqatgina yangi so'zlarga xos model;
- 2) nafaqat yangi, balki okkazional so'zlarga xos model;
- 3) faqatgina okkazional so'zlarga xos modellar (Ibragimxo'jayev, 1979, b. 25).

Bu modellar mavjudligi haqidagi fakt shu xulosaga keltiradiki, okkazional so'zlar, qisman bo'lsada, o'zlarining qo'shma hosil bo'lishi yo'llariga egadirlar va shu bilan ular yangi so'zlardan ajralib turadilar. Afsus–ki, olimning ishida ko'rib chiqilgan modellarning so'z yasashdagi roli tilshunoslikka to'liq olib chiqilmagan.

I.S. Shoxaxova qo'shma so'zlarni gapning so'zlarga translatsiya bo'limi natijasi deb ko'radi. Qo'shma so'zlarning strukturasi va semantikaning qiyosiy izlanishlari, ushbu holatning component tarkibining analizi hamda qo'shma so'zlarning nemis va qozoq tillaridagi ilmiy va adabiy uslublardagi vazifalarining o'ziga xosligini ko'rib chiqadi (Shoxaxova, 2003, b. 29).

Qo'shma so'zlarning yasalishidagi izlanishlarning o'ziga xos uslubda tahlil qilgan olimlardan yana biri V.A. Bondarenko bo'lib, uning ishlari hozirgi ingliz tilidagi innavatsion qo'shma so'zlarning vazifalari va tuzilishiga bag'ishlangan. Asosiy so'zlar rolida V.A. Bondarenko qo'shma so'zlarni fonetik strukturani (tuzilmani) va iboralardagi urg'uni ishlatadi. Biroq bu izlanishlar qo'shma so'zlarning yasalishini butunlay ochib bermaydi. Buning uchun qo'shma so'zlarni qiyosiy–tipologik yo'nalishida ko'rib chiqish lozim. Bundan tashqari uning ishlarida qo'shma so'zlarning orfoepiyadagi yuksalishini ham uchratish mumkin.

Chunki tilning fonetik sistemasi xuddi boshqalar kabi aniq qoidalarga bo'ysunadi (Bondarenko, 2001, b. 20).

Bundan tashqari D.A. Shepelovaning dissertatsiyasida biz ilk marotaba qo'shma otlarning to'liq asoslangan (motivation) va to'liq asoslanmagan (non-motivation) tizimlarining ta'rifini uchratishimiz mumkin (D.A.Shepelova, 2008, b. 26). Biroq stilistik uslublarning boshqa modellari izlanish maydonidan chetda qoladi.

Bunday olimlarni biz ko'plab keltirishimiz mumkin. Qo'shma so'zlar ustida ishlagan olimlar soni bir qancha bo'lsada, bugungi kunda ko'pgina tillarda qo'shma so'zlar muammosi hozirgi zamonaviy tilshunoslikda nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham to'liq o'rganilmagan va yuqori darajadagi qiyinchilik bilan alohida ajralib turadi.

Bu o'rinda I.I. Sereznevskiy fikr bildirishicha, avvalambor quyidagilar keraklicha ochib berilmagan:

- qo'shma so'zlar identifikatsiyasi va muammosi;
- ulardagi genezesis;
- qo'shma so'z va so'z birikmalar qiyosi (Sereznevskiy, 1956, b. 309).

Bu muammolar o'zaro bog'liqligina bo'lib qolmay, tilshunoslikdagi umumiy va hududiy muammolarni ham o'z ichiga oladi. Bunga javob berishdan avval bizda umumiy savollar tug'iladi: qo'shma so'z o'zi nima va boshqa leksik birliklardan farqi nimada?

Bu savollarga olimlarning fikri bilan javob bersak, I.V. Arnold qo'shma so'z deb ikki yoki uch asosdan iborat va gapning tarkibida muhim rol o'ynaydigan leksik birlikka aytiladi, deb hisoblaydi (Arnold, 1966, b. 85). A.M. Mo'minov struktura elementlarining tuzilmasidan kelib chiqib qo'shma so'zlarga ta'rif beradi: "Qo'shma so'zlarni tuzilmalarga fonetik va grafik guruhlarga bo'lish mumkin emas" (Mo'minov, 2006, b. 45).

Ta'riflar turli xil bo'lsada, qo'shma so'z bu bitta butun va mustaqil ishlay oladigan birlik sifatida e'tirof etilgan. Shundan kelib chiqib, so'z yasash nazariyasi va amaliyotida qo'shma so'z bu leksik birlik, ikki yoki undan ortiq asoslarni

qo'shish orqali hosil bo'lgan va nutqda o'zining butunligi bilan ajralib turadigan til birligidir, deb izohlasak o'rinlidir.

Qo'shma so'zlar izohlanishida uning so'z birikmasidan farqi alohida ta'kidlamasdan o'tib bo'lmaydi. Har bir tilning so'z yasalishidagi va qo'shma so'z turlarini belgilaydigan ichki qonunlari bo'ladi. Xuddi shunday ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning ko'pchiligini aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasida tug'ilgan. Boshqa birikmalardan tug'ilgan qo'shma so'zlar bunga nisbatan ozdir.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, qo'shma so'zlar so'z birikmlaridan kelib chiqqanini kuzatishimiz mumkin va qo'shma so'zlar hosil bo'lishiga so'z birikmalari asos slogan, desak xato bo'lmaydi. Shu jihatdan ham biz bular o'rtasidagi o'xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib bu ikki hodisalar grammatik vazifalariga ko'ra farq qiluvchi, ammo til taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Hech qanday shubha yo'qki, bu ikki hodisa o'zbek va ingliz tilining ichki qonuniyatlari asosida vujudga kelgan.

Bugungi kun o'z o'rnini ertaga bo'shatishi bilan tarixga aylanadi va shu jarayonda lisoniy hodisalar, qonunlar ham o'z qoidalarini yaxshilaydi, aniqlaydi, ixchamlaydi va yangi qonunlar bilan boyitadi. Til rivojlanishi jarayonida so'z birikmlarini qo'shma so'zlarga aylanganini uchratishimiz mumkin. Shu sababga ko'ra ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'z va so'z birikmasini farqlashga biroz qiyinchilik tug'ilishi mumkin. Ayniqsa bular aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasida paydo bo'lgan bo'lsa. Keling, endi misollarga murojaat qilsak: so'z birikmasi "oq soqol" – rangi oq bo'lgan soqol, qo'shma so'z "oqsoqol" – qariya. So'z birikmasi "oq tosh" – oq rangli tosh, qo'shma so'z "Oqtosh" – joy nomi. Ingliz tilida ham shunday hodisalarni kuzatishimiz mumkin: so'z birikmasi "a white collar" – oq rangli yoqa, qo'shma so'z "white-collar" – ishchi xodim.

Demak, to'g'ridan to'g'ri so'z birikmasi qo'shma so'z bo'lishi ham mumkin yoki teskarisi, qo'shma so'z so'z birikmasi ham bo'lishi mumkin. Shakl jihatdan ular o'xshasada, lekin keskin farq qiladi. So'z birikmasi qo'shma so'z bo'lishi uning elementlaridagi ma'no va grammatik xususiyatlariga bog'liq. Quyidagi

jadvalda soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz elementlari oʻrtasidagi farq berilgan [qarang: jadv. 1.1].

**Jadval 1.1. Qoʻshma soʻz va soʻz birikmalari komponentlari**

Soʻz birikmasidagi elementlar	Qoʻshma soʻz elementlari
Oʻz mustaqilligini saqlaydi	Yaxlit bitta maʼno beradi
Erkin holatda	Oʻzaro zich bogʻlanadi
Sintaktik munosabat boʻladi	Leksik munosabat boʻladi

Jadvaldan koʻrishimiz mumkinki, soʻz birikmasi elementlari oʻz mustaqilligini saqlaydi va erkindir. Qoʻshma soʻzlar tarkibidagi elementlar esa aksincha yaxlit bitta maʼno beradi va oʻzaro zich. Shu sababga koʻra qoʻshma soʻzlar gapda birgina vazifani bajaradi va bir gap boʻlagi boʻlib keladi. Yuqoridagilarni endi bir misol orqali isbotini koʻrsak: *Sitora qizil shapka kiydi.* *Qizil* sifati *shapka* soʻzining aniqlovchisi boʻlib uning rangi–tusini bildirmoqda. *Qizilshapkacha buvisiga ovqat olib ketdi.* Bu yerda ushbu soʻz ertakdagi qiz nomi. Bu yerdagi *qizil* sifatida aniqlovchilik vazifasi boʻlmaydi va *shapka* soʻzi bilan bogʻlanib yangi leksik maʼno, yaʼni qiz ismi maʼnosini beradi.

Shunday qilib, qoʻshma soʻz va soʻz birikmasi farqlarini aniqlashda biz albatta fonetik, morfologik, sintaktik va orfografik tomonlarni inobatga olishimiz kerak.

Endi qoʻshma soʻzlarning oʻzigagina xos boʻlgan ayrim xususiyatlarni koʻrib chiqsak. Ular yuqoridagi fonetik, morfologik xususiyatlar bilan bogʻliqdir: fonetik jihatdan qoʻshma soʻzlar odatda yagona bosh urgʻu olishi bilan farqlanadi. Oʻzbek tilida koʻpgina qoʻshma soʻzlar bir asosiy urgʻuli va urgʻu oxirgi elementning soʻngi boʻgʻiniga tushadi, masalan: *Toshqoʻrgʻon*, *mingboshi*, *oshqozon*. “**Toshqoʻrgʻon**” – qoʻshma soʻz va bir urgʻuli, joy nomi (Toshkent viloyati), “tosh qoʻrgʻon” soʻz birikmasi – toshdan yasalgan qoʻrgʻon. Ingliz tilida ham koʻpgina qoʻshma soʻzlar bir bosh urgʻuli hisoblanadi. Masalan: *ice–cream* –

qo'shma so'z bo'lib, muzqaymoq ma'nosida, *ice cream* – so'z birikmasining har biriga alohida urg'u tushadi. Sovuq krem (pishiriq uchun).

**Ikkinchi** darajali urg'u ham bo'lib, bu ikkinchi elementning birinchi bo'g'iniga tushadi. Uch o'zakdan tashkil topgan qo'shma so'zlarda ikkita ikkinchi darajali va bitta bosh urg'u bo'ladi. Ingliz tilida farq bo'lib, ba'zan biz ikkita bosh urg'uli so'zlarni ham uchratishimiz mumkin, masalan, *costume–built*, *government–owned*.

Qo'shma so'zlar fonetikasiga yanada chuqurroq o'rgangan sari biz arajtuvchi pauza bo'lmasligi, jaranglilanish va jarangsizlanish hodisasi, tovushlarning tushib qolish yoki almashinish kabi ichki jarayonlarini kuzatishimiz mumkin.

Orfografik nuqtai–nazaridan qiyoslanayotgan tillarda uch xil yasalish usullarini kuzatishimiz mumkin.

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar. Bunda qo'shma so'z tarkibidagi elementlar qo'shib, ya'ni ajratmasdan yoziladi.

Ingliz tilida: *cowboy*, *cheekbone*, *lawsuit*.

O'zbek tilida: *oqsoqol*, *meshqorin*, *gultuvak*.

2. Chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma so'zlar. Odatda qo'shma so'z tarkibidagi elementlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Biroq biz ba'zi hollarda bir nechta chiziq bilan ajratib yozilgan qo'shma so'zlarni ham uchratishimiz mumkin.

Ingliz tilida: *self–righteous*, *demi–rep*, *mother–of–pearl*, *salt–and–pepper*.

O'zbek tilida: *Amu–Buxoro* (kanal nomi).

Biz izlanishlar natijasida shuni kuzatdikki, o'zbek tilida chiziq bilan ajratilib yoziladigan so'zlar juda ham kamchilikni tashkil qiladi va bular o'zbek tilshunosligida juft yoki takror so'zlar tarikibiga kiritiladi.

3. Alohida tarkiblari ajratilib yoziladigan qo'shma so'zlar.

Ingliz tilida: *good looks*.

O'zbek tilida: *sotib oldi*.

Shunday qilib, qo'shma so'zlar shunday murakkab va tilshunoslikdagi dolzarb muammo sanaladiki, ularni tilshunoslikning deyarli har bir jabhalari

o'rganib chiqadi. Qo'shma so'zlar ham boshqa so'z yasash hodisalari kabi bir qancha o'ziga xos klassifikatsiyaga egadir.

### 1.3. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlar klassifikatsiyasi

Qo'shma so'zlar klassifikatsiyasida semantik xususiyatiga ko'ra turlari ma'lum va mashhurdir. Semantik xususiyatiga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagi turlarga bo'linadi.

- a) to'liq asoslangan;
- b) qisman asoslangan;
- d) asoslanmagan.

**To'liq asoslangan** qo'shma so'zlarda tuzilishi va tarkibiy qismlaridagi individual leksik ma'nolar to'liq bir–biriga asoslangan bo'ladi. To'liq asoslangan qo'shma so'zlarda gapiruvchi so'zning tarkiblaridagi moslashish va ma'nodagi joylashishni hamda o'zakdagi leksik ma'nolarning bog'liqligini ko'radi. Qo'shma so'zlar to'liq asoslangandir. Misol uchun, bunday so'zlarning leksik ma'nosi ularning tarkibiy qismlaridan aniq va oson tushuniladigan bo'lishi kerak. Ikkita mustaqil morfemalarning hech biri ko'chma ma'noda bo'lmasligi lozim, yanada oydinlashtirsak, ular o'z ma'nosini har biri o'z ma'nosni saqlagan holda yangi so'z yaratishi yaratish lozim. Masalan:

Ingliz tilida: wind–driven, sky–blue, foot–step, foot–pump, door–handle.

O'zbek tilida: qo'l yozma, oqsoqol (soqoli oq inson ).

**Qisman asoslangan** qo'shma so'zlarning qaysidir biri o'z ma'nosida bo'lmaydi, ammo ulardagi ma'no hali ham aniq bo'lib turadi, misol uchun: hand–bag (sumka) – bu maxsus qo'lda ko'tarilib yuradigan sumka, flower–bed qo'shma so'zidagi ikkinchi qism taklif qilganidek qandaydir mebel emas, balki gullar o'sadigan yer, handcuff (kishan) – faqatgina birinchi qimsdagi hand (qo'l) bilan bog'liq.

Xuddi shunday misollarni o'zbek tilida ham ko'rib chiqsak: baqaterak–terakning bir turi yoki nomi, xomsemiz – juda ham semiz emas, bularni ikkinchi

tarkibi bilan bog'liq bo'lgani uchun qisman asoslangan qo'shma so'zlar tarkibiga kiritdik.

**Asoslanmagan** qo'shma so'zlar. Bunda biz mustaqil morfemalarning asl ma'nosi va tarkibidagi umuman bog'liqlikni uchratmaymiz. Natijada asoslardan leksik ma'noni xulosa qilib bo'lmaydi. Masalan: fiddlesticks –“nonsense rubbish” – “bekorchi yoki norozi” bo'lish. Fiddle – firibgarlik, stick – asosan yopishtirmoq ma'nosida keladi. Ikkita mustaqil asosning hech biri “bekorchi yoki norozi bo'lish” ma'nosini bermaydi va bular shu sababga ko'ra asoslanmagan hisoblanadi. Night–cap – “a drink taken before going to bed at night” – tunda uxlashdan oldin ichiladigan dori”, sweet–tooth–one who likes sweet food and drink – shirin ovqat yoki ichimliklarni yaxshi ko'rmoq.

Barcha misollardan ko'rishimiz mumkinki, qo'shma so'zlarning tarkibidagi so'z leksik ma'nosidan bunday ma'nosini tushunib bo'lmaydi. Bu guruhga kiruvchi ba'zi qo'shma so'zlarning butun so'zdagi yoki komponentlardagi ma'nosi so'z asl ma'nosi bilan mantiqiy bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi sweet–tooth misoli bunga namuna bo'la oladi: sweet – shirin, tooth – tish demak, butun so'z tarkibidagi sweet – shirin so'zi shirin ichimlik yoki ovqatni yoqtirmoq ma'nosiga mantiqiy bog'langan. Umuman, semantik holatga uchramaydigan misollar ham bor, masalan, dog–days – “the hottest part of July and August” – “iyul va avgust oylaridagi eng issiq payt”.

O'zbek tilida: suyuq oyoq – odatda qizlarga nisbatan ishlatilib, yomon yo'lga kirgan qizlarga aytiladi. Sho'r tumshuq – chehrasini ochib gapirmaydigan yoki har gapga arazalaydigan inson, sovuq qon – gaplari muomalasi yoqimsiz bo'lgan odam. Barcha misollardan ko'rinadiki, ularning tarkibidagi asl ma'no tashkil qilingan qo'shma so'z ma'nosiga umuman bog'liq emas.

Ba'zi paytlarda shunday so'zlarga ham duch kelamizki, ular ham **asoslangan**, ham **asoslanmagan** turga kiradi xuddi omonim so'zlardek. Masalan:

*night–cap* 1) a cap worn in bed at night – kechda kiyib yotiladigan bosh kiyim. Bu to'liq asoslangan qo'shma so'z.

2) a drink taken before going to bed at night – kechasi uxlashdan oldin ichiladigan dori. To'liq asoslanmagan qo'shma so'z.

**eye-wash** 1) a liquid for washing the eyes – ko'zni yuvish uchun suyuqlik yoki tomchi. To'liq asoslangan qo'shma so'z.

2) something said or done to deceive a person – insonni aldash. To'liq asoslanmagan qo'shma so'z.

**eye-opener** 1) enlightening or surprising circumstance – voqea hodisalardan xabardor qilish, ko'zini ochish. To'liq asoslangan qo'shma so'z.

2) a drink of liquor – ichimlik, suyuqlik ochadigan. To'liq asoslanmagan qo'shma so'z.

Keling endi shunday misollardan o'zbek tilida ham ko'rib chiqsak.

**Katta og'iz** 1) og'zi katta inson. To'liq asoslangan qo'shma so'z.

2. Lavozimiga nisbatan katta gapirib qo'yadigan inson. To'liq asoslanmagan qo'shma so'z.

**Qattiqqo'l** 1) Qo'li qattiq inson. To'liq asoslangan qo'shma so'z.

2. Aytganini qildiradigan, jiddiy odam. To'liq asoslanmagan qo'shma so'z.

**Oq bilak** 1) Bilagi oq inson. To'liq asoslangan qo'shma so'z.

2. O'zini zodagonlardek tutuvchi inson odatda ayollarga nisbatan ishlatiladi.

To'liq asoslanmagan qo'shma so'z.

**Nutq turkumlariga ko'ra qo'shma so'zlar klassifikatsiyasi.**

Bu xususiyatiga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1) vazifasi nuqtai nazaridan;

2) qo'shma so'zlarning tarkiblari bog'lanish jihatidan;

3) turli xil qo'shilish yo'llari nuqtai nazaridan.

**Vazifasiga ko'ra** qo'shma so'zlar nutq turlariga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy ingliz tilidagi katta miqdordagi qo'shma so'zlar ot va sifatdan yasalgan. Misol uchun, arm-chair, baby-sitter, boiling-point, knee-high, rain-driven. Ravish va undagi bog'lovchilar ham ahamiyatli sananladi: indoors, within, outside, shunga qaramasdan ravish bilan yasalgan bunday qo'shma so'zlarni biz produktiv deya olmaymiz.



**Tarkiblarning bog'lanish jihatidan** qo'shma so'zlar quyidagicha klassifikatsiya qilinishi mumkin:

1) qo'shma so'zlar tarkibi faqatgina bir joyning ma'lum bir holatini aniqlashitirib kelishi orqali qo'shma so'z yasalashi: *door–handle, rain–driven*. Bu usul zamonaviy ingliz tilida eng samarali so'z yasash hisoblanadi. O'zbek tilida: ko'ksulton, iskabtopar, xomkalla.

2) bog'lovchi elementlar orqali qo'shma so'zlar tarkibi tuzilishi: spidometrda *Fro–Asian Sino–Japanese, Anglo Saxon*, tragikomikdagi *electro–dynamic, handicraft, handiwork*. Ba'zida bog'lovchi elementga undosh tovushlar ham yordam berishi mumkin, masalan: *sportsman, tradesman, saleswoman, bridesmaid, statesman, landsman*.

3) **turli xil qo'shilish yo'llari** nuqtai nazaridan qo'shma so'zlar yasash. Odatda bu usulga ikkita turni kiritish mumkin: qo'shib yasalgan qo'shma so'zlar va yasama holatda bo'lgan qo'shma so'zlar.

Qo'shma so'zlar odatda tilda allaqachon mavjud bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zning birga qo'shilib yangi ma'no berishi hisoblanadi. O'zbek tilida qo'shma so'zlarning tarkiblari turli usulda qo'shilishini uchratishimiz va quyidagicha klassifikatsiya qilishimiz mumkin:

1. Tarkiblarning biri ikkinchisga taqqoslanish orqali: karnaygul (o'simlik nomi–ushbu gul karnayga taqqoslangani uchun shunday nom berilgan), *otquloq, tuyaqush, sheryurak, qo'yko'z*.

2. Qaysidir narsaga tegishli, bog'liq bo'lish orqali: *gultuvak* (gul uchun idish), molqo'ra, tokqaychi, qiymataxta. Bunday klassifikatsiyani ingliz tilida ham uchratishimiz mumkin: *washing–machine, blood–vessel* (a tube through which bloods flows in the body).

3. Ba'zi bir joylar bilan bog'liq bo'lishi: suvilon (suvda yashaydigan ilon), tog'olcha, cho'lyalpiz, qo'qonarava. Bunday turdagi so'zlarni esa biz ingliz tilida ham uchratdik: *zookeeper, postman, house-keeper, head–dress, ear–ring*. (Tursunov va boshqa., 1996, b. 216).

4. Miqdor bilan bog'liqligi: *besh barmoq, qirqog'ayni. Ingliz tilida: three-cornered, fifteen-fold, six-fold, five-sided polygon.*

O'zbek tilida qo'shma so'zlar qo'shimcha ravishda yana quyidagilarga bo'linadi:

1) tarkiblarning mos kelishi: *to'yboshi, kitobsevar, dunyoqarash.*

2) ega va kesimning moslashuvi va bog'lanishi natijasiga ko'ra: *kelintushdi, go'shtkuydi, kampiro'ldi (marosim).*

Struktura va ma'noviy klassifikatsiyasiga ko'ra endosentrik va ekzosentrik qo'shma so'zlar turlari biroz bo'lsada mulohaza qiladigan masala hisoblanadi.

**Endosentrik** (endo–ichida) qo'shma so'zlar – bunday qo'shma so'zlar ikki mustaqil morfemadan tashkil topgan bo'lib, yangi ma'no beradi. Ammo farqli tomoni shundaki, komponentlar bir–birini aniqlashtirib kelishi kerak. Endosentrik qo'shma so'zlarda bosh (head) so'z aniqlanmish, tobe so'z (determinant) aniqlovchi vazifasida keladi. Odatda bular ikki xil usul yasaladi. 1-chi tobe so'z hokim so'zdan oldin kelishi va 2–si hokim so'z qo'shma so'z komponentida birinchi so'z bo'lishi. Odatda tobe komponent o'zidan oldin yoki keyin kelgan bosh elementni ma'nosini ravshanlashtirib konkretlashtiradi. Bunda e'tibor bosh qismga qaratiladi.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham bu hodisa qo'shma ot tarkibida ko'p uchraydi. Masalan: *back door – orqa eshik, front door – asosiy kirish eshigi. Door* – aniqlanmish bo'lib, *back* va *front* uning aniqlovchisi hisoblanadi va aynan qanday *door* (eshik) ekanligini aniqlashtirib kelyapti.

O'zbek tilida bular aynan mos kelmasada, qisman o'xshaydi. Misol uchun: *yotoqxona* – yotish uchun mo'ljallangan xona, *mehmonxona* – mehmonlar uchun ajratilgan xona, *oshxona* – ovqat pishirishga mo'ljallangan xona.

Bosh so'z “xona”, tobe so'z esa shu xonani qanday ekanligini bildiruvchi ot so'z turkumidagi so'zlardir. Tobe so'zlar birinchi qimsda kelgan bo'lsada, ular qo'shma so'zning so'z birikmasi va sodda so'z bo'lib qolmasligini ta'minlab beruvchi eng muhim omil sanaladi. Ikkinchi turida xuddi qoidalaridagidek birinchi

bosh soʻz, keyin tobe soʻz keladi. Masalan: *bookcase* – *kitoblar javoni*, *bookshop* – *kitoblar doʻkoni*.

Xulosa qiladigan boʻlsak, komponentlar maʼnosining yigʻindisidan yangi maʼno berishi endosentrik qoʻshma soʻz deyiladi.

**Ekzosentrik** qoʻshma soʻzning maʼnosi komponentlar oʻrtasidagi maʼnodan tushunilmaydi. Bu yerda mantiqiy bogʻlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu termin ilk marotaba Blumfild tomonidan Sanskritlar grammatikasida “bahuvrihi” deb tanishtirilgan. Tilshunoslar fikriga koʻra esa ekzosentrik qoʻshma soʻzlar toʻliq yoki qisman idiomali boʻladi. R. Benezesning fikricha esa bu jarayonda metaforikal aloqa yaratish jarayoni eng ustuni hisoblanadi (Benezes, 2006, b. 241).

Ekzosentrik qoʻshma soʻzlarga misollar beradigan boʻlsak, *redneck* – qizil boʻyin emas, balki qishloqilik qashhoq odam maʼnosida. Demak, komponentlar oʻrtasida toʻliq maʼno yoʻqolgan boʻlib, yangi maʼno beryapti. Oʻzbek tilida: *qizilishton* – kiyimi qizil boʻlgan emas, balki qush nomi boʻlib, oyoqlarining rangi qizil boʻlgani uchun shunday atalgan va qisman maʼnoli ekzosentrik qoʻshma soʻz hisoblanadi.

Biz yuqorida qoʻshma soʻzlarning komponentlari va farqlari haqida alohida toʻxtalib oʻtdik. Endi esa qiyoslanayotgan har ikkala tilda qoʻshma soʻzlarning soʻz turkumlari boʻyicha turlarini berib oʻtish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz va oʻzbek tillarida qoʻshma soʻzlar turini quyidagi jadvalda koʻrishimiz mumkin [qarang: jadv. 1.2].

**Jadval 1.2. Ingliz va oʻzbek tillarida qoʻshma soʻzlarning soʻz turkumlariga oidligi**

Ingliz tilida	Oʻzbek tilida
Qoʻshma ot	Qoʻshma ot
Qoʻshma sifat	Qoʻshma sifat
Qoʻshma fel	Qoʻshma fel
Qoʻshma ravish	Qoʻshma ravish
	Qoʻshma olmosh

Ikkala tilda ham **qo'shma otlar** borligini biz jadvaldan ko'rib turibmiz. Keling endi ularni tahlilda ko'rib chiqsak. Ot+ot dan tashkil topgan qo'shma otlar zamonaviy ingliz tilida juda ham ko'p ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. Masalan: *brainteaser, laser printed, watchdog, oak tree, policeman, boyfriend, bedroom, water tank.*

Ot + fel = rainfall, haircut, train-spotting

Ot +ravish= hanger-on, passer-by

Fel + ot = washing machine, driving licence

Fel + ravish = lookout, drawback

Ravish + ot = onlooker, bystander

Sifat +fel = dry-cleaning,

Sifat = ot= greenhouse

ravish +fel = output, upturn,input

O'zbek tilida qo'shma otlarning klassifikatsiyasiga misollar quyidagicha:

Ot + Ot = otquloq, qo'l yozma

Sifat + Ot = ko'ksulton, ko'kyo'tal,

Ot +sifat = gulibeor

Son + Ot = mingoyoq, qirqog'ayni

Ot + fel = o'rinbosar, beshiktebratar

Fel + fel = iskabtopar

Ingliz tilida: 1. OT+ot tarkibidagi birinchi elementning alohida semantic ma'no borligini O. Jespersen alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra:

birinchi element subyektni bildiradi: *earthquake (zilzila), sunrise (tong otishi);*

birinchi element obyekttni bildiradi: *sunworship (quyoshga sig'inish);*

birinchi element joy-nomini bildiradi: *garden-party;*

birinchi element vaqtni bildiradi: *nightmare* (Jespersen, 1968, b. 164).

2. Ot+sifat dan qo'shma otlar yasalishida so'z birikmasi va qo'shma so'zlarning qiyosiy va farqli jihati uchraydi. Bunda o'ziga xos semantik jihatini ta'kidlasak. Qo'shma so'z tarkibidagi elementlar asl ma'nosini yo'qotib, yangicha

ma'no beradi. So'z birikmasida esa bosh va ergash so'z munosabatlari dominantlik qiladi. Keling endi misollarga o'tsak, *a hothouse* va *mad house* so'zlari. *A hothouse* da *hot*, ya'ni sifat otni aniqlab kelyapti. Biroq *mad house* so'zida *mad house* bilan ma'no aloqadorligi kuzatilmaydi. Chunki *a hothouse* – a house which is hot – issiq bo'lgan xona, *a mad house* – jinni bo'lgan xona emas, balki jinnilar uchun xona.

3. Ingliz tilida qo'shma so'z yasashning samarali ekanligi shundaki, ikki turli xil modellar parallel ravishda so'z yasay oladi. Misol uchun, gerund+ ot va fel +ot:

Gerund+ot = flashing point

Fel + ot = flash point , bir xil ma'no –alanga o'chog'i.

O'zbek tilida ham bularni ko'rib chiqsak:

1. Ot+ot ning tuzilishida faqat ikki emas, balki uchdan ortiq otning birikishidan ham hosil bo'lishi mumkin. Misol uchun “*gultojixo'roz*” uchta otning birikishi: gul, toj, xo'roz. Ot bilan egalik qo'shimchasi birga kelishi oqibatida ham juda ko'p ot+ot formasidagi qo'shma otlarni sanash mumkin: oshqozonosti, buzoqboshi, devortagi.

2. Ot+fel formasida fel negizlariga –sh, –ish qo'shish bilan yasalgan harakat nomlari orqali yasaliş hodisasi ko'proq. Masalan: *dunyoqarash*, *ishtashlash*.

Felning buyruq shakli va ot qo'shilishidan: *yoriltosh*, *ochildasturxon*, *urto'qmoq*, *qaynarxumcha*.

3. Sifat+ot+ot, sifat+sifat+ot kabi qo'shma otlar ham uchrab turishini ko'rishimiz mumkin: *Sho'ralisoy* – Toshkent viloyati yangiyo'l tumani qishlog'i nomi, *Qo'shtepasaroy* – joy nomi.

4. Elementlari tarkibidagi o'xshashlik yoki farqli tomonlari juda ham ko'p bo'lib, ularni sanab o'tish maqsadga muvofiq emasdir. Ammo qo'shma otlarning har ikki elementi birikib yangi ma'no berganini ba'zilarini aytib o'tsak. Tarkibdagilarning har biri ma'nosi boshqa, ammo birikib yangi ma'no beradi. Ular juda ham ko'pligini hisobga olib eng muhimlari berib o'tsak:

Kishi nomlari: Tursunqul, Xolmirza, Yigitali, Gulchehra

Kasallik nomlar: eshakemi, suvchechak, temiratki

Yulduz nomlari: tengtaroz, oltinqoziq

O'rin-joy nomlari: Paxtaobod, Oqtepa

Jonivorlar nomi: qirqoyoq, beshiktevratar, ilonbaliq, toshbaqa

O'simlik nomlari: qirqbo'g'in, otquloq, suvpechak

Ovqat nomlari: moshxo'rda, beshbarmoq, qushtili.

**Qo'shma sifat.** O'zbek tilida:

Ot+ot= sheryurak, bodomqovoq, xumkalla, qalam qosh

Sifat+sifat= och pushti, to'q sariq

Sifat+ot= oq ko'ngil, kalta fahm, mayda gap

Sifat bilan otning qo'shilishidan yasalgan qo'shma sifatlar eng mahsuldorlar tipiga kiradi.

Ravish+ot= tez qadam, shum qadam, kamgap, hozir javob

Ravish+fel= tezyurar, ertapishar, kechpishar

Ot+fel= ishbuzar.

Ingliz tilida qo'shma so'zlar klassifikatsiyasini esa quyidagilarda kuzatish mumkin:

Ot+sifat=snow-white, blood-red iron-rich

Sifat+sifat= sweet-sour, dark-blue.

Ba'zan zamovaiy ingliz tilida sifat va sifatni unli yordamida biriktirib qo'shma sifat yasash holatini ham kuzatish mumkin: socioeconomist, physiochemical

Fel+sifat= speakeasy (yashirin spirtli ichimliklar ichiladigan joy). Bu usulni qo'shma sifat yasashda unumsiz turiga kiradi.

Ravish+sifat= ever-green, upright.

**Qo'shma ravish.** O'zbek tilida:

Ravish+kelishiklar= har tomonga, har nafasda

Son + kelishik= birpasda, bir zumda

Ot+aro, bo'yin, sayin kabi ko'makchi vositalar= kunaro, umrbo'yi, oysayin

Ingliz tilida:

Ot+ravish= button-through (design), fingers-only (meal)

Olmosh+ ravish (all)= all-outer

Fel+fel= hearsay, make-believe

Ravish+fel= overhear, outstand

Sifat+sifatdosh= easy-going, odd-looking

**Qo'shma fel.** O'zbek tilida:

Ot+fel= dam olmoq, paydo bo'lmoq

Fel+fel= yutib olmoq, sotib olmoq.

Bugungi zamonaviy o'zbek tilining nutqida ba'zi fel+fel formasi qo'shma so'z hisoblanmaydi: o'qib chiqdi, ko'rib bo'ldi. Bu so'zlarda yangi leksik ma'no yo'q.

**Ingliz tilida:**

Ot+ot= ghost-writer, chain-smoker

Sifat+fel= to shortcut, to blindfold, to deep-fry

Ravish+fel= deep-fry, dry-clean.

Qo'shma olmoshlar o'zbek tilida bo'lishsizlik va gumon olmoshlarida uchratamiz. O'zbek tilshunosligiga qarab chiqadigan bo'lsak, quyidagi misollarni ko'ramiz.

**Hech**– bilan yasaladigan qo'shma olmoshlar: hech kim, hech qayerda, hech narsa.

**Alla**– bilan yasaladigan so'zlar: allanima, allakim, allaqayerda, allanarsa.

## 1- bob bo'yicha xulosa

So'zlar yasalishi til lug'atini boyitishda eng muhim asos hisoblanadi va shu bilan birgalikda leksikologiya, grammatika va fonetika bilan bog'liqdir.

Zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlar til lug'atini boyitishdagi samarali usul hisoblanadi va bu hodisani tilshunoslikning har bir bo'limi o'z nuqtai nazaridan alohida o'rganadi. Ilmiy izlanishlarda qo'shma so'zlar

o'tmishdan buyon o'rganilib kelinayotgan bo'lsada, hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki tilda har doim yangi so'zlar kirib keladi. Eskilari esa vaqti bilan o'z holatini yo'qotishi mumkin.

Zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullari mavjud bo'lib, ular turli xildir. Morfologik usul (asos + so'z yasovchi qo'shimcha) bo'yicha so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishidan yangi so'z yasaladi. Bu usul bilan sodda yasama so'zlar yasaladi. Semantik (ma'noviy) usulda bir turkumga xos so'z boshqa so'z turkumiga ko'chib, yangi ma'no anglatadi. So'zlarni qisqartirish usuli faqat ot so'z turkumiga xos bo'lib, so'zlarni qisqartirish orqali yangi so'z yasaladi. Sintaktik usulda (asos+asos) qo'shma so'zlar hosil bo'ladi, ular bir necha mustaqil ma'noli morfemalarning qo'shilishidan yasaladi, bu odatda kompozitsion usul ham deyiladi.

So'z yasalish usullari ingliz tilida produktiv va produktiv bo'lmagan turlarga bo'linadi. Produktiv usulga qo'shimcha qo'shish, konversiya, abbrivatsiya (qisqartirish), kompozitsiya (qo'shish orqali), produktiv bo'lmagan usulga esa tovush o'zgarishi, urg'u o'zgarishi, tovushga taqlid, uyg'unlashtirmoq, qayta tiklash kiritiladi.

O'zbek tilida so'z yasalish usullariga affiksatsiya– (asos + so'z yasovchi qo'shimcha) asosga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishidan yangi so'z yasaladi, semantik usul– bunda bir turkumga xos so'z boshqa so'z turkumiga ko'chib, yangi ma'no anglatadi, semantik–leksik usul– bir vaqtlar so'z birikmasi bo'lgan so'zning qo'shma so'zga aylanib ketishi, so'zlarni qisqartirish usuli, kompozitsion usullari kiradi.

Qo'shma so'zlar bilan tarixdan hozirgacha jiddiy izlanishlar olib kelingan va undagi izohlanish muammosi dolzarb mavzuga aylanib bo'lingan. Xususan D.A.Shepelovanning ilk marotaba qo'shma otlarning to'liq asoslangan (motivation) va to'liq asoslanmagan (non–motivation) tizimlarining ta'rifini beradi.



Ingliz va O'zbek tillarida qo'shma so'zlar orfografik jihatdan o'xshash hisoblanadi. Bu jihatiga ko'ra ular uchga bo'linadi: qo'shib yoziladigan, chiziqcha bilan yoziladigan, ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.

Har ikkala tilda ham qo'shma so'zlarning so'z birikmalaridan farqli tomoni bor. Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi.

Demak, so'z birikmasi elementlar o'z mustaqilligini saqlaydi va erkin holatda bo'ladi. Sintaktik munosabat bo'ladi. Qo'shma so'z elementlari yaxlit bitta ma'no beradi, o'zaro zich bog'lanadi va leksik munosabat bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar semantik xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi. a) to'liq asoslangan; b) qisman asoslangan; c) asoslanmagan.

Nutq turkumlariga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagicha klassifikatsiyalanadi: a) vazifasi nuqtai nazaridan; b) qo'shma so'zlarning tarkiblari bog'lanish jihatidan; c) turli xil qo'shilish yo'llari nuqtai nazaridan. Qo'shma so'zlarning tarkiblari bog'lanish jihatidan, tarkiblarning mos kelishi, ega va kesimning moslashuvi va bog'lanishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo'shma so'zlarning endosentrik va ekzosentrik tomonlari ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, endosentrik – qo'shma so'z komponentlaridagi ma'nolarning yig'indisidan yangi ma'no berish bo'lsa, ekzosentrikda – elementlar tarkibidagi ma'no o'sha qo'shma so'zning ma'nosiga umuman bog'liq bo'lmagan hisoblanadi.

## **II BOB. KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNING TILNI TADQIQ ETISHDAGI HISSASI**

### **2.1. Kognitiv tilshunoslik: rivojlanish tarixi va o'rganish obyekti**

Zamonaviy 21 - asrda kognitiv tilshunoslik faol rivojlanayotgan bo'lib, shu sohada yangi bo'lim sifatida kirib keldi. Bugungi kunda bu fan zamonaviy lingvistikada mustahkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Bu yangi yo'nalish til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganan izlanuvchilarning ishlari orqali kelib chiqdi. Ular o'sha paytda hukmron bo'lgan tilning ichki va maxsus strukturaviy tuzilishini o'rganadigan yo'nalishni tanlashmagan. Ular sintaktik komponentda sintaksisni tilning boshqa qismlarini ajratishdan ko'ra, ilmiy ishlarda tildan tashqari quyidagilar bilan bog'liqlikni o'rganishgan: til uchun tegishli bo'lmagan kognitiv qonuniyatlar va mexanizmlar jumladan: insonlar tabaqalinishi, amaliy va o'zaro ta'sir qonuniyatlari va umuman vazifaviy qonuniyatlar, obrazlilik va iqtisod.

Bu bo'lim paydo bo'lishida 1960-yillardan boshlab amerikalik tilshunoslarning roli katta bo'ldi. Kognitiv tilshunoslik rivojiga eng ko'p hissa qo'shgan va shu sohada eng ko'p ish olib borgan tilshunoslar: Wallace Chafel, Charles Fillmore, Jorj Lakof, Ronald Langaker, Leonard Talmy. Ushbu tilshunoslarning har biri ma'lum bir hodisa va tushunchalar jamlanmasi asosida o'zlarining tilshunoslik nazariyalariga yondashgan. Yuqorida zikr etilgan olimlarning barchasi bitta gipotezani ilgari surishgan. Bu gipoteza quyidagicha edi: ma'no tilda shunchalar muhimki, o'rganish jarayonida eng asosiy e'tibor unga qaratilishi kerak. Bu qarashlar ma'noni izohlovchi va ikkinchi darajali deb qaraydigan Chomsky maktabi tilshunoslari fikriga ko'ra zid edi. Ular uchun tadqiqotning eng muhim obyekti sintaksis edi (Скребцова, 2011, b. 6–7).

Xuddi shunga o'xshash ziddiyatlar va bahslar tufayli kognitiv tilshunoslik rivojlana boshladi va hozirgi kunga kelib chet elda kognitiv tilshunoslik bo'yicha

qator darsliklar mavjud. Rus olimlari esa bu yo'nalishda sezilarli darajada ko'p bo'lgan qo'llanmalarni taqdim qildilar (Герасимов, 1985; Демьянков, 1994; Кубрякова, 1994; Ченки, 1996; 1997; Баранов, Добровольский, 1997; Рахилина, 1997; Рахилина, 1998а; Скребцова, 2000) (Bu haqda batafsil qarang: Скребцова, 2011, b. 6–7).

“Kognitiv” atamasi aslida lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, tushunish, anglash, bilish, o'ylash ma'nolarini beradi. Ilmiy izlanuvchilarning ta'kidlashicha, kognitiv va til bir–biri bilan qattiq bog'langan.

Kognitiv tilshunoslik bilan shug'ullangan olimlar dastlab psixolingvistlar deya atalgan. Ular o'z tadqiqotlarida konseptual sistemaning bor yoki yo'qligi ustida bahs yuritganlar va shuning oqibatida noverbal o'ylashning mavjudligini isbotladilar. Konseptual tizim o'zgarmaydigan hodisa emas, aksincha rivojlanib boradigan tushunchalardan iboratdir. Olimlar belgilar bu juda muhim axborotlarni yetkazib berish uchun xizmat qiladi va bu belgilar insonlar tomonidan yaratilgan deb xulosa qilganlar. Lekin, ularning nazarida, konseptual tizim kattaroq va faqatgina uning kichikina bo'lagi belgilar orqali ifodalanadi. Konsept tushunchasi haqida esa hali yana alohida to'xtalamiz.

Kognitiv orqali tilshunoslikda ma'lumlik bilan birga mashhurlik ham keldi. Kognitiv tilshunoslik aniq bir fan doirasiga kirmaydi. Shuning uchun ham bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmasdan, balki tilni ong bilan bog'laydi va shu xulosadan kelib chiqqan holda, kognitiv tilshunoslik bir qancha fanlar kesishmasida yotadi.

Kognitiv tilshunoslik psixologiya, falsafa, neyrofiziologiya, politologiya, sotsiologiya, etnografiya, antropolingvistika kabi fanlarni o'z ichiga oladi. Biroq bu kompleksda eng katta rol tilshunoslikka tegishli va bu bo'limning rivojlanishida asosan tilshunoslar o'zlarining katta hissalarini qo'shmoqdalar.

Shunday qilib, kognisiya, ya'ni bilish jarayoni, ma'lumotni qabul qilish, uzatish yoki yuborish va yaratish faoliyatini o'z ichiga oladi, bu holatlar lisoniy zahira bilan bog'liq bo'lib shubhasiz, bu lison bilan bilvosita yoki bevosita aloqada bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra bilish fenomeni lisoniy qobilyat bilan bog'liqdir.

1989–yil Deysburgda (Germaniya) Xalqaro tilshunoslik simfoziumi bo'lgan va xuddi shu vaqtda kognitiv tilshunoslik rasmiy “yaraldi” ya'ni o'sha paytda kognitiv tilshunoslik bo'yicha birinchi Xalqaro konferensiya bo'ldi. Bu simfozium qatnashchilari kognitiv tilshunoslikning Xalqaro assotsiatsiyasiga asos soldilar, “kognitiv tilshunoslik” jurnalini yaratdilar va bu yo'nalishga qo'shimcha ravishda “Cognitive Linguistics Research” nomi ostida bir qancha monograflar yaratdilar.

Rasman paydo bo'lmasdan ilgari, 1980–yillarda ham kognitiv lingvistika bo'lgan, buni bir qancha monografiyalar nashrga chiqarilganidan ham bilishimiz mumkin (Lakoff, Johnson 1980; Johnson–Laird, 1983; Fauconnier, 1985; Lakoff, 1987; Langacker, 1987). Ammo rasmiy e'lon qilingandan keyin uning gullab yashnash davri bo'ldi va o'sha davrda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi (Скребцова, 2011, b. 8).

Geeraerts D. va Cuyckens H. fikricha, kognitiv tilshunoslik dunyo bilan bizning o'zaro aloqamizda uchraydigan o'rtacha (qiyin ham emas) ma'lumotlar strukturasi yetkazib beruvchi eng muhim omildir. Olimlar yana alohida shuni ta'kidlab o'tadilarki, kognitiv tilshunoslik tushunchasi va psixologiya bir xil yo'l va usulda tuziladi. Shunga qaramasdan kognitiv psixologiya kognitiv tilshunoslikdan ko'ra ancha umumiyroq hisoblanadi. Chunki kognitiv tilshunoslik ma'lumot uchun ma'noni uyushtirish, yuzaga keltirish va tashishdan iborat.

Til – bu ma'lumotlarni saqlash va yangi tajribalarni muloqotga kirishishiga yordam beradigan bilim strukturalarining yig'ilgan holatidir.

Keyinchalik, kognitiv tilshunoslikda 3ta eng muhim xususiyatlar paydo bo'ldi. Birinchisi, lisoniy tahlilda semantika, ikkinchisi, tilshunoslikda ensiklopedik ma'no va oxirgisi tilshunoslikda “ma'no” munosabati.

Lisoniy tahlilda semantikaning muhimligiga quyidagilar mos keladi: kognitiv nuqtai nazaridan oddiy va soddalilik: agar tilning birinchi xususiyati kategoriyalash bo'lsa, shunda “ma'no” tilshunoslikda ilk fenomenondir.

Tilshunoslikda ensiklopedik ma'no bu tilni kategoriyalash xususiyatlarini muvofiq kelishidir: agar til dunyoni kategoriyalash tizimi bo'lsa, dunyoviy bilim

lisoniy shakllar bilan aloqador bo'lgan darajadan farq qiluvchi strukturaviy yoki tizimli lisoniy ma'noni joriy qilishga hojat yo'q.

Nihoyat oxirgisi, lisoniy ma'noning istiqbolli tabiati shuni anglatadiki, til reallikni bor bo'yicha tasvirlamaydi, chunki tilning kategoriyalash funksiyasi individual yoki madaniy ehtiyoj, qiziqish va tajribani aks ettiruvchi bilimni shakllantiradi (Geeraerts, Cuyckens, 2007, b. 36).

Yana bir mashhur tilshunos D.U. Ashurova o'zining "Matn lingvistikasi" kitobida kognitiv tilshunoslik haqida quyidagicha yozadi: kognitiv tilshunoslik til va idrokning o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Kognitiv tilshunoslikda til ma'noni saqlaydigan tasvirlaydigan va yetkazib beradigan eng asosiy birlik sifatida qaraladi (Ashurova, 2012, b. 96). Muallif kognitiv tilshunoslikdagi bir qancha muhim prinsiplarni sanab o'tadi:

- 1) til kognitiv mexanizmdek aqliy fenomen hisoblanadi;
- 2) til yaratuvchanlik, tasavvur qilish qobiliyatlari orqali xarakterlanadi;
- 3) kognitiv tilshunoslik o'zining asosiy e'tiborini til qolipi va aqliy strukturaga, dunyoni kategoriyalash va qabul qilish jarayoniga, shu bilan birgalikda ularni tilda aniq ko'rsatishga, bilim strukturalari hamda ularni og'izaki nutqqa namoyon qilishga qaratadi;
- 4) til faqatgina tilshunoslikda tashqi qolip bo'lmay, balki bilimni namoyish qilishning ichki sistemasi hamdir (Ashurova, 2012, b. 96).

Sh. Safarovning fikriga ko'ra, tilshunoslikning vazifasi til orqali bilimni saqlash, qabul qilish uzatishdan iborat. Til funksiyalarini inson miyasidagi tafakkur bilan bog'lab tadqiq etishdir. Olim buni aynan quyidagicha ta'kidlaydi "Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan. Tilning o'zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi. Shunday ekan tilshunoslik psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqelanuvchi hodisadir. Kognitiv tilshunoslik inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitiv tilshunos lisoniy hodisalarning

tafakkur faoliyatidagi o'рни, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqat matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi” (Safarov, 2006, b. 9, 27).

Kognitiv tilshunoslikning maqsad vazifasi shundan iboratki, til insoniyatni qamrab turgan urf–odati, madaniyati, tarixini anglashda tilning aniqlanishi, inson tajribasi va xotirasida saqlagan bilimni muayyan bir sistemaga solishi va uni boshqalarga yuborayotganda vositachi bo'lgan tilning rolini tadqiq etishdir.

Insoniyatning kundalik voqeaga munsoabati kognitiv nazariyaga xosdir. Chunki biz tajribalarimiz, bilim va ko'nikmalarimiz asosida voqelikni anglaymiz va uni nutqqa aylantiramiz. Nutq hosil bo'lishi esa eng murakkab jarayon bo'lib u quyidagicha jarayonda bo'ladi: nutq bosh miya po'stlog'i orqali boshqariladi va tashqi muhitdan o'tgan impulslar uni qabul qilib tahlil qiladi va nutq markaziga yuboradi. Nutqimiz bo'lishi uchun esa biz “bilish” tushunchasiga ham alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Bilish – bu eng avallo sezish va his qilish orqali yuzaga keladi.

Inson dunyoni idrok etishda va anglash va tushunishda keyinchalik esa tilga ko'chira olishiga maqsadli faoliyat natijasi hisoblangan tafakkurning ahamiyati beqiyosdir.

Til va tafakkur bir–biri bilan shunchalik bog'langanki, ularning birisiz ikkinchisi mavjud bo'la olmaydi. Til taffakurni ifodalash uchun yordamga keladi. Bu ikkiga tushunchaga tegishli falsafiy va psixologik ong tushunchasi mavjud. Ammo ong tafakkurdan ham katta tushuncha hisoblanadi. Ong psixologik jihatdan insoniyatning fikrlashiga tegishli bo'lsa, biologik tomondan esa manitiqiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Bilish hodisasining yuqori bosqichi – tafakkur. Aslida bilish nima degani? Bilish bu inson bo'layotgan voqea–hodisalarni ongida aks ettirishidir. Bilishning ikki turi mavjud deyishadi tilshunoslikda. Ular: hissiy va aqliy bilishdir.

Sezgi a'zolarimiz orqali bilish bu – hissiy bilish sanaladi va bunday bilish hayvonlarda ham mavjud. Aqliy bilish faqat odamzotning o'zigagina xos bo'lib, bunda his qilishdan tashqari voqea – hodisani anglaydi, fahmlaydi, uni saqlaydi va xulosalay oladi. Shu jarayon esa tilda tafakkur deyiladi va ushbu jarayonlarning har biri kognitologiyada muhim ahamiyatga egadir. Chunki kognisiyada ham inson ongidagi bilimni olishi, saqlashi va uzata bilishi eng muhim jarayondir.

Bilish tushunchasining mahsuli – oliy idrok fahmdir. Miyaning oliy hodisasi esa tafakkurdir. Inson tafakkur orqali tabiat va jamiyatdagi narsa – hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini ajratadi, tahlil qiladi va taqqoslaydi. Bular esa til yordamida reallashadi va insoniyat uchun tushunarli bo'ladi. Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladi. Insoniyat voqealigidagi hodisalarni ongiga saqlaydi va til yordamida uzatadi. Shu sababdan ham bilish tushunchasida ong muhim rol o'ynaydi.

Biz ong va bilish hodisasi tafakkur bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rdik. Til bilan esa chambarchas bog'liqdir. Har qanday fikr so'zlarda o'z ifodasini topadi. Bilish nazariyasining kengayishida tilning roli sezilarli darajada muhim sanaladi. Chunki biror bir ma'noni bera olmagan, ma'lum bir tovush beradigan so'zlar muayyan bir tushuncha bermaydi va inson ongiga hech qanday bilim kirib bormaydi. Ongimizda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni til orqali ifodalashimiz uning eng muhim belgilairdan biri hisoblanadi. Tafakkurdagi fikrni bayon qilib bera olish funksiyasini bajar olmagan bunday so'zlar nutqda ham o'z rolini bajarib bera olmaydi.

Til va tafakkur ba'zi bir jihatlariga ko'ra farq qiladi. Masalan, til qonunlari va tafakkur qonunlari bir–biriga umuman to'g'ri kelmaydi. Til – grammatikaning o'rganish o'chog'i hisoblansa (ega, kesim, aniqlovchi ...) tafakkur logika mantiq ilimining manbayi hisoblanadi. Mantiq birliklari abstract tushunchadir. Til birliklari esa real voqeyidir. Mantiq faoliyati muhim bo'lgani bilan, ammo grammatik kategoriyalarsiz maqsadli bo'la olmaydi.

Shu jihatlariga ko'ra kognitiv tilshunoslikka lisoniy qobilyatning tarkib topishini tushuntiruvchi fan deb qaraydilar. Tafakkur bu bilimni qabul qilish uni

egallash jarayonidir. Bu esa o'z ichiga anglash, sezgi, mantiqni qabul qiladi. Kognitiv tilshunoslik uchun esa eng asosiy birlik tushunchadir.

Asosiy tafakkur kategoriyalari, jumladan, makon va zamon, borliq va jarayon, harakat va joylashuv, sabab va oqibat, xohish va intilish. Bu bilimlarni osonroq yodlab qolish va ta'tbiq etish uchun turli xil mexanizmlardan foydalanildi. Biroq til turli xil holatlarda har doim ham bir xil ma'no bermaydi ya'ni ma'no tafakkur manbalariga qarab turli xil usullarda ifodalanadi.

Til va tafakkurning rivojlanishi oqibatida ushbu kognitiv tilshunoslik fanida ham turli yo'nalishlar vujudga keldi: kognitiv grammatika, kognitiv stilistika, kognitiv semantika, jins tilshunosligi, etnolingvistika, kognitiv fonetika. Ular orasida kognitiv grammatika va kognitiv semantika alohida ahamiyatga ega.

Kognitiv grammatika atamasining ikkita ma'nosi bor. Keng ma'noda kognitiv grammatika kognitiv lingvistikaning sinonimidir. U tildagi bilishga oid harakatlar masalan: xotira, sezish, e'tibor va o'ylash kabilarida namoyon bo'ladi. Tor ma'noda esa kognitiv grammatika kognitiv lingvistikaning yo'nalishidir. Kognitiv grammatikaning paydo bo'lish o'chog'ida Talmy va Langacker eng mashhurlari sanaladi. Grammatik kategoriyalar o'z ichida quyidagilarga bo'linishi sir emas: *birlik, juftlik, ko'plik...v.hk*, kognitiv kategoriyalar esa buni mana bunday davom ettiradi: *teng, toq, o'nlik, sanoqli*.

Kognitiv semantika – kognitiv tilshunoslikni dastlab o'rgangan olimlar bular psixolingvistlar sanaladi. Ular o'z tadqiqotlarida noverbal o'ylashning mavjudligini isbotladilar va shuningdek, inson miyasidagi konseptual tizimning mavjud yoki mavjud emasligi ustida bahslashganlar. Konseptual tizim doim o'zgarib turadigan va rivojlanib boradigan tushunchalardan iboratdir. Olimlar belgilarning insonlar tomonidan yaratilgan deb xulosa qilib, ular eng muhim axborotlarni yetkazib berish uchun xizmat qilishini ta'kidlashganlar. Lekin, ularning nazarida, konseptual tizim kattaroq va faqatgina uning kichikkina bo'lagi belgilar orqali ifodalanadi.

R.M. Frumkina fikricha, kognitiv semantika kognitiv psixologiya bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv semantika tilning ma'nosini insonlar miyasida qanday



aks etishiga qarab belgilaydi yoki ifodalaydi. An'anaviy semantikadan farqli ravishda, kognitiv semantika lingvistik voqea–hodisalarni ekstra–lingvistik faktorlar ya'ni, asosan psixologik va ijtimoiy–madaniy faktorlarga tayanib o'rganadi.

Kognitiv semantikaga fan sifatida katta hissa qo'shgan olimlarning biri A.Vyerzbikadir. Uning ta'kidlashicha, belgilarni o'rganayotgan paytda, biz insonning konseptual tizimini o'rgana olamiz va uning uchun qaysi davrda qanday tushunchalar muhim ekanligini anglab olishimiz ham mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, insonning o'ylash jarayoni noverbal aks etadi va belgilar yordamida tushuniladi.

Kognitiv semantika nazariyasiga ko'ra, til konteyner va inson miyasidagi bilimlar jamlanmasidir. Til inson sifatini aks ettiradi. Shuning uchun, kognitiv semantika pragmatikani ham o'z nazaridan chetda qoldirmaydi. Kognitiv semantika ma'noni ikkita asosiy birliklarga ya'ni ma'no tuzilishi va bilimlarning aks etishiga ajratadi.

Olimlarning fikricha, ma'no konseptualdir ya'ni u haqiqiy dunyodagi narsaning ifodasi bilan bog'liqdir. Aksincha, u inson miyasidagi obyekt yoki g'oya bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni kishilar tomonidan bitta narsa bir xil tushunilishi mumkin emas. Shuni ta'kidlash joizki, ma'no tushunilishi nutq so'zlovchining shaxsiy tajribasiga bog'liq. Ma'nolar tog'ri, notog'ri, aniq va noaniq ifodalanishi va anglatilishi mumkin. Bu narsalarni esa kognitive lingvistika o'rganadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek kognitiv tilshunoslik til va ongning o'zaro bog'likligini o'rganadi. Buning uchun esa albatta ma'no katta ahamiyatga ega. Biz bir necha marotaba ma'no va unga bog'liq bo'lgan konsept tushunchasini ishlatdik. Aslida konsept nima? XX asrning birinchi yarmida konsept tushunchasi tilshunoslikda qo'llanila boshladi. Aslida bu so'z ingliz tildan kirib kelgan bo'lib, ko'pgina tillarga "tushuncha" ma'nosini beradi. Uning haqiqiy va chuqurroq ma'nosini anglash uchun bir qancha tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

Konsept barcha millatlar uchun umumiy maxsus xarakterga ega xususiyati mavjud. Lingvistik ensiklopedik lug'atda bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beriladi: konspet – “so'z ma'nosi” kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'no–til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi” (Лингвистическая энциклопедия, 1990).

Tilshunoslarning fikriga ko'ra, har qanday konseptda quyidagi qatlamlar bo'ladi va bu konseptning maqsadiga ham kiradi:

1. Faol– hozirgi davr uchun umumiy xususiyatlari va asos guruhlarini o'rganish.
2. O'tmish– konspetning tarixiy rivojlanish. Ya'ni uning etimologiyasi va yozuvigacha bo'lgan tarixi.
3. Ichki– ma'no yoki tushunchaning kelib chiqish sabablari.
4. Tahlil qilinayotgan so'zning paradigmatic bog'lanishlarini o'rganish.

Konspetning o'z ichida ikki xil usuli bor va bular uning vazifasiga ham kiradi. Bular madaniy va kognitiv. Madaniy jihatdan konsept – bu turli xil madaniyatdagi turli xil tushunchalar. Kognitiv nuqtai nazaridan esa har qanday ma'no bu konspetdir. Chunki har bir so'z qandaydir ma'lumotni anglatadi.

Demak, konsept – bu tasavvur. Konsept – bu tushuncha. Konsept – bu tafakkur birligi. Konsept – bu tildagi milliy ma'no. Konsept – bu ma'no belgilaydigan qism.

XIX asrning ikkinchi yarmida chet davlatlarida tilshunoslik fani ancha rivojlandi. O'zbek tilshunosligida esa bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmiga kelib boshlandi va bunda asosan zamonaviy adabiy til me'yorlar ishlab chiqildi.

Vaqt o'tgani sayin kechagi kun o'z o'rnini ertangi kunga bo'shatib bera boshladi va o'zbek formal tilshunosligi ham yangi zamonaviy tilshunoslikka zamin yaratib til va tafakkur aloqadorligi, tilning ichki imkoniyatlari va dialektlar qattiq urg'u bera boshladi.

Bugungi XXI asr o'zbek tilshunosligida kognitiv tushunchasi tez–tez qo'llaniladigan bo'ldi va bu o'zbek tilshunosligi uchun tilshunoslik dunyosining

navbatdagi ochilmagan qirrasini ochilishi bo'ldi. Shu bilan bir qatorda o'zbek lisoniyida "konsept" tushunchasi ham bot– bot uchrab turibti. Bu yangi fenomena hali o'zbek tilshunosligida to'liq o'rnashmagan desak xato bo'lmaydi. Chunki bu tushuncha "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5–tomida berilmagan. Bundan tashqari "lingvistik terminlarning izohli lug'ati" da ham berilmagan ekan. Neologizm sifatida mavjud bo'layotgan ushbu so'z o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanilib kelinyapti:

1. Milliy–madaniy bilim sifatida qaraluvchi lisoniy birlik.
2. Bilimlar yig'indisini yetkazuvchi lisoniy birlik.
3. Pragmatik Sistema.

Har qanday tushuncha bu qandaydir bilim majmui sifatida qaraladi va bu o'rganish kuzatish, taqqoslash va analiz qilish orqali amalga oshiriladi. Shu ma'noda har qanday fanda uni yanada chuqurroq idrok etish uchun uning o'ziga mos keluvchi metodlardan foydalanishi fanni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi va metodologiya fani oldida ham o'z vazifasini bajaradi. Kognitiv tilshunoslikdagi metodlar navbatdagi bobda ko'rib o'tiladi.

## **2.2. Kognitiv analiz metodlari**

Tilshunoslikning har bir bo'limi til birliklarini ochib berishda o'z metodini ishlab chiqadi va bu shu sohani yanada yaxshiroq, chuqurroq tushunishga ko'maklashadi.

Tilshunoslik fanining o'rganish sohasi bo'lgan tilni har tomonlama tahlil qilish fan taraqqiyotiga mos metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning ham o'z metodlari borki, biz bu metodlar orqali ushbu fanni yanda yorqinroq holatda tushunamiz.

Birinchi navbatda metod so'ziga alohida e'tibor qaratsak. Ingliz tilidan kirib kelgan ushbu so'zga "Cambridge Advanced Learner's" lug'atida quyigacha ta'rif beriladi: qandaydir narsa yoki holatni bajarishning maxsus bir yo'li (Cambridge Advanced Learner's, 2008) Xuddi shunga yaqinroq ma'noda "Dictionary.com" bu

tushunchani quyidagicha ochib beradi: bajariladigan ishning usuli bu ayniqsa mantiqiy yoki sistemali usul bo'lib tajriba talab qiladi.

Demak, tilshunoslikda metod – bu ilmiy ishning natijasini isbotlab berish, desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan, albatta, tajriba metodning eng muhim bir qismi hisoblanadi.

Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1) metod obyekti bo'lmog'i kerak. metodning qo'llanish vaqti va o'rnidan qat'iy nazar, natija bir xil bo'lmo'g'i lozim;

2) metod izchil bo'lishi aniq tushunchalarga asoslanishi lozim;

3) metod universal bo'lishi ya'ni sohaning asosiy bo'limlanishini tahlil qilishi lozim;

4) metod foydalana olish mumkin bo'lgan darjada sodda va lo'nda bo'lmog'i lozim.

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lgan bir necha metod qo'llaniladi: umumiy metodlari va lingvistik tahlil metodlari. Bular ham bir qancha kichik sohalarni o'z ichiga oladi.

Kognitiv lingvistikada ba'zi bir metodlar borki, ular juda ham muhim bo'lib, bu fanni chuqurroq tushunishga yordam beradi, ular:

1) freym tahlili;

2) kognitiv metafora;

3) kognitiv xarita.

*Freym* atamasi ilk bora sun'iy tafakkur bilan bog'liq muammolarni yechishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik tilshunoslikda ham qo'llanila boshladi. Bu termini ilk bora tilshunoslikka ta'tbiq qilgan olin Filmor bo'ladi.

Bizga ma'lumki, insonning miyyasida tajribalarga suyangan ma'lum miqdordagi bilimlar zaxirasi bo'ladi va inson axborotni shu zaxiraga asoslanib tatbiq qiladi va idrok etadi. Inson borliq yoki u–bu holatlarni anglashda o'z bilimlarini, ya'ni xotirasidagi freymlarni qo'llaydi. Turli olimlar va

tilshunoslarning fikrlarini umumlashtirgan holda frem atamasiga quyidagicha izoh berish mumkin:

- 1) freym bu kognitiv til hodisasi;
- 2) u ob'ekt haqidagi bilimlar tafsilotlari;
- 3) ob'ekt va sub'ekt munosabati haqidagi bilimlar;
- 4) sotsial o'zaro harakat majmui.

Filmorning fikriga ko'ra freym – bu konseptual nuqtai nazarda ifodalanadigan va uzoq muddatli xotirada saqlanadigan, tartibga solingan tajribadir. Freym ba'zi elementlarni inson tajribasidagi madaniy manzara bilan bog'liq bo'lgan birliklar bilan bog'laydi.

Filmor shuni ta'kidlaydiki, so'zlar va grammatik qurilmalar freymga bog'langan bo'ladi, ya'ni biror so'zga (yoki grammatik strukturaga) bog'liq bo'lgan ma'no o'zi bog'langan freymdan mustaqil tushunilmaydi. 1985–yildagi maqolasida ma'lum bir leksik konseptdan freymni farqlash maqsadida Filmor Geshtalt psixologiyasidan shakl va qiziqish doirasi tushunchalarini tilshunoslikka kiritgan. Leksik birlik bildirgan maxsus ma'no shakllarda aks ettiriladi va shakl tushuniladigan qiziqish doirasini ifodalaydigan kattaroq freymning ahamiyatli bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli freymlar, masalan, bir biriga bog'liq so'zlar guruhini tushunishda va ularning grammatik xususiyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydigan kompleks bilim strukturasi ifodalaydi (Evans, Green, 2006, b. 222).

D.U. Ashurova freym tahlili va atamsini quyidagicha ta'riflaydi: idrok qilish jarayonida maxsus til shakllari alohida o'rin tutadi, ularning yordami bilan bilim strukturasi tayyorlanadi va ular freymlar deb ataladi. Shuningdek, sxema, senariy, plan va shu kabi terminlar ham mavjud. Ba'zi arziyas farqlarga qaramay, bu terminlarning barchasi shunday fikrni yuzaga keltiradiki, bilim alohida olingan faktlarning emas, balki murakkab iyerarxik tizimning, ma'lumotlarni taqdim etishning kognitiv modelining yig'indisi hisoblanadi. Til strukturasi va ularning aqliy modellari o'rtasidagi aloqani o'rganish freym analizi deb ataladi. Matn freym analizi bosqichma bosqich jarayon bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) konseptual muhim freymnlarni ifodalovchi og'zaki signallarni qidirish;

b) ularning freym semantikasini, o'zaro bog'liq, majoziy, kontekstual bog'lanishlarini topish;

d) bilim strukturasi, kontekstual va muammoviy vazifalarni faollashtirish;

e) matn ko'rinishidagi ma'lumotni konseptuallashtirish (umumlashtirish, xulosa chiqarish, og'zaki signal va ularning freymlari asosida bilim hosil qilish).  
Ashurova, 2012, b. 106

Professor D.U. Ashurova freym analizini shunday aniq ochib beradiki, bu tahlilni keltirmay ilojimiz yo'q. Analiz jarayonining barcha bosqichlari kognitiv matn tahliliga o'z hissasini qo'shadi. Freym analizi jarayonida yetishmaydigan yashirin komponentlar va ularning bog'lanishlari qayta tiklanishi mumkin; yashirin ma'no va xulosalar chiqariladi. Eng qiziqarli fakt shuki, freym analizi badiiy asarlarda ham ataylab ishlatilishi mumkin (Ashurova, 2012, b. 107).

Hugesning "Men ham amerikalikman" nomli asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Matnni tahlil qilishda davom etishdan avval shuni ta'kidlash joizki, tahlil ostidagi matn dialog ko'rinishida hamda u asar muallifi va asar qahramonlaridan biri, Simpl, yosh amerikalik qora tanli bilan tasavvuriy suhbatdir. Asarda asosiy e'tibor irqiy kamsitilishga qaratilgan. Bu muammoga *qora* so'zining tahlili orqali qaralgan. Aslida, ushbu analizni freym tahlili deyish mumkin. Goh yozuvchi, goh Simpl tomonidan gavdalandirilgan murojaat etuvchi obrazi *qora* so'zi va uning salbiy ma'nolarini muhokama qilib, tushunishga yordam beradigan til strukturasi va ensiklopedik bilimni ko'rsatib beradi. (Ashurova, 2012, b. 107)

Ushbu so'zning ma'nosi murojaat etuvchining xotirasida saqlangan hayot voqeliklari bilan bog'liq va turli til birliklari yordamida matnda aks ettirilgan: qora to'p, qora ro'yxat, qora yurak, qora xat, qora bozor, qora mushuk, qora mantiq, qora dog', qora qo'y (oila sha'ni toptalishiga sabab bo'lgan o'sha oila a'zosi). Bu so'zlar freym va fikr shakllantirgan salbiy ma'nolarni aniq ko'rsatib beradi.

Misol uchun, "qora mushuk" iborasi "omadsizlik" tushunchasi bilan bog'liq, chunki ko'pchilik millatlarda yo'lni qora mushuk kesib o'tishi omadsizlik, deya baholanadi. "Qora xat" birikmasi esa tahdid va kuch ishlatish ma'nolarini beradi. "Qora" so'zi bilan bog'liq birikmalar soni osonlik bilan oshirilishi mumkin. Ular

ushbu asarda uchramasa–da, til tizimida salbiy ma'noda qo'llaniladi: qoraytirmoq, qora soqchi, qora oyoq, qora ko'ylak, qora bozor. Til bo'yicha bilimlari va hayotiy tajribasiga suyanib, Simpl "qora" so'zi salbiy ma'nolarining manbasini tushuntirib bera oladi, uning fikricha, bular insonlar orasidagi munosabatlar sohasiga ko'chirilgan. Fikrini ifodalash maqsadida, u boshqa misollarni ham keltiradi, ammo bu misollarda ushbu so'z umuman teskari, ya'ni ijobiy ma'noda qo'llanilgan:

1. Tuproq qora va hamma narsa tuproqdan paydo bo'lgan.
2. Ko'mir qora, lekin u uyni isitadi va ovqat pishiradi.
3. Tun qora, ammo oy va minglab yulduzlari bilan judayam go'zal.
4. Uyqu qora, lekin u insonga tiklanib, o'zingizni yaxshi his qilishiga yordam beradi.

Ushbu matn ko'p jihatdan qiziqarli. Birinchidan, u yaratish va qabul qilish mexanizmini izohlaydi hamda so'zni qabul qilishning freym ifodasiga bog'liq. Bu yerda "qora" so'zi turli kognitiv operatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va u freym tahliliga ko'ra, o'z ma'nosini salbiydan ijobiyga o'zgartirishi mumkin (Ashurova, 2012, b. 108).

Olimlarning ta'rificha, freym quyidagilarda tashkil topgan: mundariyasi majburiy (ishtirok talab qilinadigan) va nomajburiy (ishtiroki majbur emas) xususiyatlar. Freym majburiy xususiyatlar – lisoniy voqelarni ifodalashda til birligi qismlari va semantik tuzilishining qismlari o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy xususiyatlar esa freym tarkibida aniqlashtirish vazifasini bajaradi.

Freym tahlilining asosiy maqsadi shundan iboratki, tilda berilgan tushuncha bizning miyyamizda butun bir holat yoki vaziyat sifatida namoyon bo'lishidir bu esa miyyamizda faqatgina bitta tushuncha kirib qolishini rad etadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni misol orqali isbotlash uchun ushbu ingliz va o'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning freym tahlili berilgan birinchi jadvalga e'tibor qaratsak [qarang: jadv. 2.1]:

**Jadval 2.1. “Honeymoon” freymi**

<i>Honeymoon</i>		
<b>Arrangement</b>	<b>Departure</b>	<b>Entertainment</b>
Marriage	By plane	Holiday
Money	By train	Romantic scenes
Packing	By car	Luxury hotel
Documents	Seeing off	Exotics

Ingliz tilidagi *honeymoon* qo'shma so'zi o'zbek tilida ham qo'shma so'z bo'lib, *asaloyi* deb tarjima qilinadi [qarang: jadv. 2.2]:

**Jadval 2.2. “Asaloyi” freymi**

<i>Asaloyi</i>		
<b>Reja</b>	<b>Jo'nab ketish</b>	<b>O'yin–kulgi</b>
To'y	Poezd	Ta'til
Pul	Avtobusda	Romantik joylar
Hujjatlar	Samolyotda	Ekzotika
Narsalarni joylash	Xayrlashish	Mehmonxona

Freym tahlilidagi majburiy va nomajburiy xususiyatlarda ham freym tarkibida ma'lum «katakchalar» (slotlar) hosil qilishadi va voqelikdagi ob'ektni idrok etish jarayonida ushbu katakchalar mos keladigan misol va ma'lumotlar bilan to'ldirilishi lozim bo'ladi. Gorizontaal yo'nalishda turgan so'zlar slot deb ataladi va asosiy so'z (*asal oyi, honeymoon*) eshitilgani bilan ongimizga birinchi bo'lib shu so'zga yaqin keladigan (*reja, jo'nab ketish...*)yoki shu tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar keladi. Shu bilan birgalikda, vertikal chiziqdagi so'zlar sabslotlar (*kichkina katakchalar*) deb nomlanib, ular slotning kichigi ya'ni slotdan keyin miyyamizda paydo bo'ladigan so'zlar hisoblanadi.



Navbatdagi tahlil kognitiv metafora bo'lib uni ba'zan konseptual metafora ham deb uchratish mumkin, konseptual metafora uzoq yillardan buyon o'rganib kelinayotgan nutqning eng muhim qismidir. Metafora grekcha so'z bo'lib, "meta–transfert – ko'chirish va phora–sens – ma'no", ya'ni so'zning ma'nosini ko'chirish demakdir. Metafora bir predmetni umumiy xususiyatlari asosida boshqa bir predmet nomi orqali ifodalaydi.

Metaforani yashirin o'xshatish, deb ataydilar. Chunki metaforada ham, o'xshatishda ham asosan narsa yoki hodisa nimagadir o'xshatiladi. Bu ikkita bir–biriga bog'liq bo'lmagan narsalarni qiyoslash orqali ma'no chiqarish sifatida ishlatiladi, ammo ularning o'ziga xos ichki o'xshash xususiyatlari bo'ladi. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasida o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforaning xususiyatlaridan biridir.

Yevropa olimlarining aytishicha, metafora yashirincha o'xshatish, bir predmetning nomini boshqa predmetning nomi bilan atash natijasida hosil bo'ladi. Boshqa bir tilshunoslar esa, metaforani individual dunyoqarashni shakllantirish harakati deydi. U kitobxon ongiga narsa va hodisalarning subyektiv ko'rinishi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni singdiradi. O'xshatishda ikki a'zo ishtirok etadi. Metaforadan esa bir a'zo ishtirok etadi.

Metafora bir termning mujassamlashgan taqqoslashi bo'lib, o'xshashlik munosabatiga asoslangandir. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: 1) uslubiy (adabiy) metafora va 2) lingvistik metafora. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi lingvistik metaforani o'rganadi, chunki lingvistik metaforalar ishlatilishi jihatidan lug'at tarkibining bir qismini tashkil etadi. Lingvistik metafora odatda ko'p qo'llaniladi va tilda sezilmasdan ishlatilaveradi. Lingvistik metaforalarni ishlatganimizda, uning ongimizda tug'dirgan tasviri haqida hech qachon o'ylamaymiz.

Shunday qilib, bugungi kunda metafora she'rdagi shoirona go'zallik va kundalik hayotadgi oddiy so'zlardan ko'ra badiiy bo'yoqlarni oshirgan holda ta'sirchanlikni oshirish uchun ishlatilmoqda.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda konseptual metafora analizi juda ham foydali. Konseptual metafora atamasi ilk bora 1990–yil Jorj Lakof tomonidan “Metaphors we live by” asarida aytiladi. Ushbu asarda aytilishicha konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo’libgina qolmasdan, tafakkur va o’ylashning yo’lidir (Evans, Green, 2006, b. 177).

Kognitiv tilshunoslikdagi konseptual metafora atamasini yanada chuqurroq tushunish uchun oddiy metaforadan farqlanishini bilishimiz kerak. Oddiy metaforada o’xshatilayotgan buyum yoki narsaning atigi bitta xususiyati ko’chadi. Masalan: *Zaynab tulki*. Bu yerda ayol tulkiga o’xshatilyapti. Biroq, ular umuman bir–biriga o’xshamagan aloqasi yo’q tushunchalardir, yashirin ya’ni ichki ma’nosi “ayyorlik” bo’lib, tulkidagi bu xususiyatlar ayollardagi xarakter bilan qiyoslanadi. Konseptual metaforada esa o’xshatilayotgan narsa yoki buyumning bir emas bir qancha xususiyatlari ko’chishi kerak. Bir qancha xususiyatlar ko’chishi uchun ong, tafakkur va o’ylashning roli juda ham kattadir.

Metaforaning ikki xil turi bo’lib, hozirigina tilga olingan oddiy metafora va konseptual metafora turlari bor. Ularning bir–biridan farqlari talaygina bo’lib, biz buni quyidagi ikkinchi jadvalda ko’rishimiz mumkin [qarang: jadv. 2.3].

**Jadval 2.3. Oddiy va konseptual metafora**

<b>Oddiy metafora</b>	<b>Konseptual metafora</b>
So’zlarning ahamiyati, tilshunoslikdagi fenomenona	Konseptlarning ahamiyati, konseptual fenomenona
ta’sirchanlik va badiiy bo’yoqdorlik maqsadida	Ba’zi bir konseptlarni yanada yaxshiroq tushunish uchun
Ikkita asosning o’zaro bog’liqligi	Insoniyat tajribasi
Odatda shoirlar va notiqalar tomonidan ko’pincha ishlatiladi	Odatda kundalik hayotda oddiy insonlar tomonidan ishlatiladi
So’zning ko’chma ma’nosi	O’ylash, harakat va maqsadlar jarayoni mahsuli

Konseptual metaforaning kognitiv xususiyatlarini o'rganayotganda uning o'ziga xos xususiyatlariga duch kelamiz bu xususiyatlar esa oddiy metaforaga uchramaydi.

1. Konseptual metafora – ma'noning konseptual nazariyasini va konseptning lingvistik va lingvistik bo'lmagan izohlaridagi ma'noni ochishga yordam beradi.

2. Ba'zi bir matnlarda kognitiv metafora orqali o'sha konseptning strukturasi ochilib beriladi.

3. Konseptual metafora 2 ta konseptual tarmoq orqali o'zaro munosabatga kirishadi. Ular: nishon yoki asos va manba (target and domain).

4. Konseptual nishon berilgan konseptdagi bir qancha bilim strukturalarini o'z ichiga oladi.

Misol uchun, kognitiv metafora: bolalar mevalardir.

So'zning kognitiv semantik tuzilishi yoki metaforadagi asos o'zbek tilidagi “bolalar” so'zi orqali ushbu misollarda ochib beriladi.

Voy, mana bu bolaning *shirinligini!!!*

Bolang hali *xom, pishmagan.*

*Danagidan mag'zi* shirin.

Olma daraxtining tagiga *olma* tushadi.

Ularning bir *etak shirin–shirin* bolalari bor.

Bu ayol *mevasiz* daraxt. U farzandga zor.

So'zning kognitiv semantik tuzilishi yoki metaforadagi asos ingliz tilidagi “g'oya” so'zi orqali ushbu misollarda ochib beriladi.

**Ideas are food**

That group gave me *food for thought.*

They gave us some *brain food.*

His idea was *half–baked.*

I'm tired of *warmed–over theories.*

Now there is a theory you can really *sink your teeth into.*

The teacher *spoon-fed* them the information.

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, *meva va mahsulot (food)* ning bir emas bir qancha xususiyatlari o'tkazilgandan keyingina biz **bolalar mevalar** yoki **ideas are food** deyishimiz mumkin. Ammo oddiy metaforadi *Zaynab tulki* deganda tulkidagi faqatgina bitta **ayyorlik** xususiyati o'tgandi. Bundan tashqari yuqorida ta'kidlaganimizdek kognitiv metaforadagi ikkita tarmoq ya'ni nishon va manba tarmoqlari bo'lib, odatda nishon qismi tasvirlanishi kerak bo'lgan asos bo'lsa, manba qismi esa metaforaga oid bo'lgan qismi bo'lib, nishon qismining mag'zini ochib beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi misollarga e'tibor qartasak: **Hayot bu daraxat.**

*Umrimning gullagan davri o'tib ketdi.*

*Uning umri so'lib bormoqda.*

*Umrim bo'yi meva ko'rmay o'tdim.*

*Har kimning hayot daraxti har xil.*

*Men u bilan hayotimning gullagan chog'ida uchrashganman.*

*Chinor kabi uzoq yasha.*

*Uning hayoti qaytadan gullay boshladi.*

*Hayotim xazonga aylandi.*

*Anavi boshini egib, ta'zim qilayotgan gulga qarang;*

*Bahorda o'simliklar uzoq uyqudan o'yg'onadi;*

*Bu gullar mehrga muhtoj;*

**Love is a patient**

*This is a sick relationship*

*They are strong healthy marriage*

*Their marriage is dead, it cannot be revived*

*We are getting back on our feet*

*Their marriage is on its last legs (Lakoff 1980. P49)*

Ikkala misolda ham hayot va sevgi (love) nishon qism bo'lib, hayot va bemor (patient) manba qismi hisoblanadi va bular birgalikda kognitiv metaforani hosil qiladi.

Jorj Lakof va Mark Jonsonning klassifikatsiyasiga ko'ra konseptual metaforaning asosiy 4 ta turi bor:

- 1) strukturaga oid metafora;
- 2) ontologik metafora;
- 3) oriyental metafora;
- 4) konteyner metafora (Evans, Green, 2006, b. 44).

**Strukturaga oid metafora** odatda bitta konsept ikkinchi konseptga metafora yo'li orqali boshqa biri tarkibiga o'tkaziladi. Bu odatda mavhum narsani aniq narsaga o'tkazishda ishlatiladi. Masalan: *time is money*–vaqt bu pul. Bu yerda mavhum tushuncha vaqt bo'lib aniq narsa pulga tenglashtirildi.

**Ontologik metafora** voqea, mashg'ulotlar, g'oyalarning mohiyati oraqli boshqa bir tushunchaga ta'sir o'tkazish. Misol uchun: uning miyyasi bugun *ishlamayapti*. Mening miyyam mashina. *Life is a game*".

**Oriental metafora** insonning oriyentatsiyasiga qarab, masalan: *tepa– past, markaz–chekka, ichi– tashqari, oldi–orqasi, chuqur– yuzza*. Misol uchun:

U oyisi o'lgandan buyon cho'kib qoldi.

Biz ishda ko'tarilib ketdik.

He is in top shape.

As to his health, he is way up there.

**Konteyner metafora** bu boshqa fizik jismlarda joylashgan chet tillari bukilgan obyekt yoki shaxsni idish sifatida tasvirlash.

Misol uchun: Bugun miyyam *bo'm–bo'sh*.

Oxirgi tahlil **kognitiv xarita** bo'lib bu tajribadagi so'zning individual namoyish qilinishi yoki oddiy tarzda, miyyadagi konseptning sxemasi va tilga namoyish qilinishi.

Kognitiv xarita atamasi ilk bora 1947–yil Edvard Talman tomonidan tilshunoslikka olib kirildi. Keyinroq esa bu tilvistik tahlil S. Askoldov and revised by Karasik, V. Teliya, Samsonovich, Ascoli va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Kognitiv xarita tushunish, bog'liqlik, shifrlamoq, saqlamoq, ma'noni kashf qila olish va na'lumotdan foydalana olish kabi turli xil jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bu jarayonlar natijasida miyyadagi konseptning strukturasi, konseptning amalga oshishi va tilga namoyish qilinishi gavdalanadi.

**Kognitiv xarita.** Kognitiv tilshunoslik, Qiyosiy tilshunoslik, Matn tahlili kabi tilshunoslikdagi fanlarga juda ham keng qo'llanilib kelyapti. Konseptning lingvistik ma'nosini ochib berishdagi xizmatidan tashqari u nomoddiy tahlil sifatida ham qaraladi va bu tushunchaning kaliti hisoblanadi. Nomoddiy tahlilning asosi esa konsept mavhum narsani aniq narsaga yanada ko'proq o'tkazishni rivojlantirishdir. Bundan yaqqol ko'rinadiki, lingvistik va kognitiv tahlilda mavhum konsept til manbalari orqali uni namoyish qilishda yanada ochiq–oydin yoki aniqroq qilib bera oladi. Mavhum konseptni biz tahlil qilmaguncha yoki konseptning yordamchi bog'lovchilari ya'ni maqol, matn, lug'atlar...vhk orqali tahlil qilmaguncha mavhum tushunchani ma'nosini kengroq tushuna olmaymiz. Konseptning tashqi tuzilishi ma'nodan shaklgacha bo'lgan holati hisoblanadi. Odatda biz bunday konseptni lingvistik tushunamiz ya'ni: Grammatik shakli, leksik shakli, sintaktik shakli. Kognitiv xaritada esa ushbu lingistik tahlilidagi deyarli barcha jabhalar qamrab oladi.

Konseptdagi ma'noni yanada chuqurroq tahlil qilishda va konseptning lingvistik ko'rinishini ifodalashda tilshunoslar tomonidan taklif qilingan kognitiv xaritani quyidagi strukturalari bor:

- 1) lug'atdagi ma'nolar va lug'atshunoslikdagi izohlar;
- 2) paradigmatic bog'lovchilar;
- 3) syntagmatic bog'lovchilar;
- 4) yordamchi bog'lovchilar;
- 5) frazeologik bo'limlarda;
- 6) tushunchaning tabiiy konseptualligi.

Ingliz tilida “WORK”, “LABOUR” konseptining tahlili.

“Work” va “labour” konseptlarining ilk tahliliy bosqichi lug'atlardagi ma'no hisoblanadi. Cambridge Advanced Learner's lug'atining bergan izohlarini ko'rib chiqsak.

Work (noun):

1. An activity, such as a job, which a person uses physical or mental effort to do, usually for money.
2. A place where a person goes specially to do their job.
3. Something created as a result of effort, especially a painting, book or piece of music.
4. Everything that you might want or expect to find in a particular situation.
5. The parts of a machine, especially those that move.
6. Force multiplied by distance moved.

Work (verb):

1. To be effective or successful.
2. To do a job, especially the job you do to earn money, or to make someone do a job.
3. If a machine or device works, it operates, especially correctly and without failure, and if you work it, you make it operate.
4. To succeed gradually in becoming something or cause a person or thing to become something, either by making an effort or by making many small movements.
5. To arrange for something to happen, especially by not using official methods and/or by being clever.
6. To shape, change or process a substance.

Kognitiv xaritada “ISH” konseptini o’zbek tilidagi tahlili.

O’zbek tilining izohli lug’ati II bo’limida quyidagi sharhlar berilgan:

1. Ish (Uzb. ot–) Insonning yaratuvchanlik yoki ijodiy faoliyati; mehnat.
2. Yumush, mashg’ulot;
3. Vazifa, xizmat vazifasi, lavozim;
4. Mahsulot;
5. Mahorat, hunar mehnat natijasida yaratilgan;
6. Zarurat, ehtiyoj;
7. Kutilmagan tashvish, qiyinchilik;

## 8. Masala, muammo;

Navbatdagi tahlil paradigmatic tahlil bo'lib odatda bunda sinonimlar yordamga keladi. Endi "work" konseptining sinonimlarini ko'rib chiqsak:

Ingliz tilida:

Work (noun):

1. Work (mental/physical activity) synonyms: *toil, labor, effort, the sweat of one's brow*;
2. Synonyms: *task, duty, commission, assignment, product*.

Work (do mental/physical activity) (Verb):

1. Toil, labor, exert oneself;
2. Have a job, earn one's living;
3. Succeed, get the result, be efficient, be effective.

WORD BUILDING. Different words are built on the basis of the word "WORK" *Work, works, working, worked, worker, workability, workable, workableness, workably, workaholic, workaholism, workalike*.

O'zbek tilida: "ISH" (ot) synonymlar (dominant) *mehnat*.

Ish (ikkinchi, uchinchi) synonymlar: *yumush, mashg'ulot, lavozim, vazifa, mahsulot, hunar*.

So'z tuzilishida "ISH" konsepti.

*Ish, ishbay, ishbilarmon, ishbop, ishboshi, ishboshqaruvchi, ishbuzar, ishbuzuqi, ishgir, ishkal, ishlamoq, ishlanmoq, ishladi, ishlagan, ishchi, ishchan*.

Navbatdagi tahlil sintagmatik tahlil so'z yoki konseptning misollar orqali bo'lanishidir. Odatda bu tahlilda konseptning boshqa lingvistik bo'limlardagi aloqasi va ular qanday bog'langani yoki ular birgalikda shu konseptga boshqa ma'no bera olgani o'rganiladi. "Work" va "ish" so'zining matndagi va konspetual ma'nolarini ko'rish uchun quyidagi misollarga e'tibor qaratsak:

Ingliz tilida:

- 1) *He was tired after a day's work in the fields*';
- 2) *I'm still looking for work*';
- 3) *The Clapham sect was concerned with works rather than with faith*';



4) *He worked best designs of the new computer program.*

O'zbek tilida:

1) *O'qish ham aqliy ishning bir turidir;*

2) *Ish ishtaxa ochar, dangasa ishdan qochar;*

3) *Mamarasul akamni ishga chaqirishiyapti;*

4) *Ish namunalarini ertangi ko'rgazmaga qo'ymoqchimiz;*

5) *Sizning oldingizga bir ish bilan keldim;*

6) *Mahallaning obodligini ta'minlash har bir kishining ishi;*

7) *Bu ishni osonlikcha hal qilib bo'lmaydi. Ko'p narsalarni e'tiborga olish lozim;*

8) *Ular sizning orqangizdan qandaydir ish qilshdi. Buni jazosiz qoldirasizmi?*

Keying ko'rib chiqiladigan qism yordamchi bog'lovchilar orqali bo'lib biz qaysi so'z turkumi bilan kelishini topishimiz mumkin. Masalan: so'z ot fel sifat ravish kabi so'z turkumlari bilan kela oladi. Keyin esa birga kelgan so'z orqali o'sha so'zning ma'no yanda kengayishini ko'rishimiz mumkin. Bu kognitiv xaritani tuzilishiga va ularni tasavvur qilish va so'z orqali yaxshi yoki yomon baho berishda ishlatilishini o'rganadi.

Ingliz tilida:

1) ADJECTIVE+WORK=*Excellent/good/great/bad/shoddy/incomplete/complete/dangerous/difficult/demanding/boring/easy/light/social/legal WORK*

2) WORK + NOUN = *work experience, work commitment, work schedule, work ethic, work force, work camp*

VERB+ WORK = *start work, finish work, do/get work, have work, stop work.*

O'zbek tilida: yordamchi bog'lovchilar orqali "Ish"

1) sifat + Ish = *yaxshi/yomon ish, oson/qiyin ish, mashaqqatli ish, zo'r ish, to'g'ri/noto'g'ri ish;*

2) ot + Ish = *Uy ishi, jamoat ishi, sud ishi;*

3) Ish + fel = *ish olmoq, ish bermoq, ish boshlamoq, ishni yakunlamoq, ish ko'rsatmoq;*

4) Ish + sifatdosh= *ish ko'rgan, ish biladigan*;

Frazeologik bo'limlarda ko'rib chiqish keying bosqich bo'lib, odatda bu qism ma'noda tasavvur va so'z orqali ma'noga baho berilishi kabi murakkab shu bilan birgalikda ta'sirchan bo'yoqdorlikka ega holatni o'zi bilan olib yuriydi.

WORK va ISH ekvivalentlarining Ingliz va O'zbek tillarida frazeologik qismda ishlatilishi:

*work like a dog – haddan ziyoda juda ko'p, qattiq ishlash eshakdek ishlamoq,*

*work like a charm, work until you drop – ish desa o'zini tomdan tashlamoq*

Doing nothing – hech qanday ish qilmaslik

*twiddle your thumbs –bekorchixo'ja bo'lib (yallo) qilib yurmoq*

*keep one's hands in pockets – shipga tuflab yotmoq*

Working unwillingly – xohlamsdan ishlash

*Work with the left hand – qo'l uchida ishlash*

*in (by) the sweat of one's brow – jon-jahdi bilan ishlash*

to work up to the collar – *tinimsiz ishlash, Asalaridek tinmaydi.*

Nihoyat kognitiv xaritada oxirgi qism bu tushunchaning tabiiy konseptualligi bo'lib, bunda odatda maqol, matn aqlli so'zlar yordamga keladi. Ular shu konseptni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi chunki ular o'sha konseptning eng muhim bog'lovchilari bilan birga keladi. Boshqa tarafdin qaraydigan bo'lsda, maqollar va matnlar so'z yoki konseptning lingvistik va konseptual ma'nosini tilda namoyish qilib bera oladi. Natijada kognitiv xaritadagi tuzilish va namoyish qilinish yuzaga keladi. Misol uchun:

Ingliz tilida:

WORK is SUCCESS – ISH BU MUVAFFAQIYAT konsept metaforasi quyigacha tahlil qilinishi mumkin .

*Care and diligence bring luck (Br.).*

*Diligence is the mother of good luck (Am., Br.).*

*Elbow grease gives the best polish (Am., Br.)*

Work is effort – ish bu qiyinchilikdir.

*He that would eat the fruit, must climb the hill  
he who would catch fish must not mind getting wet  
no pain, no gain  
a cat in gloves catches no mice  
no sweet without sweat*

Work is more valuable than word – ish so'zdan ko'ra qimmatliroq.

*Actions speak louder than words.*

*Axe to grind, To have on;*

*A dog that barks much is never a good hunter.*

*Work is the representation of oneself – ish o'zini–o'zi ko'rsatish.*

Our works are the mirror wherein the spirit first sees its natural lineaments, Hence, too, the folly of that impossible precept, Know thyself; till it be translated into this partially possible one, know what thou canst work at (Thomas Carlyle).

Every man's work, whether it be literature, or music or pictures or architecture or anything else, is always a portrait of himself (Samuel Butler).

Working is fruitful – ishlash bu foydali.

A champion of the working man has never yet been known to die of overwork (Robert Frost).

When I was a young man I observed that nine out of ten things I did were failures. I didn't want to be a failure, so I did ten times more work (George Bernard Shaw).

I do not know anyone who has gotten to the top without hard work. That is the recipe. It will not always get you to the top, but it will get you pretty near (Margaret Thatcher).

O'zbek tilida: WORK is SUCCESS – Mehnat bu muvaffaqiyatdir.

*Mehnat mehnatning tagi rohat.*

*Yer ochganning baxti ochiladi.*

*Mehnat qilsang, davron surasan*

*Mehnat – asov daryoni ham jilovlay olgan.*

*Zo'r mehnat muvaffaqiyat kalitidir.*

*Mehnat qilsang yasharsan, katta –katta osharsan.*

*Mehnatdan kelsa boylik turmush bo'lar chiroylik*

WORK is Effort – ish bu mehnat, harakat qilish.

*Tog'ga chiqmasa do'lana qayda;*

*Non yemoqchi bo'lsang o'tin tashishdan erinma;*

*To'r to'qilmay, baliq tutilmas*

*Ish bu mashaqqat.*

*Ish bu hurmat, e'zoz*

Work is more valuable than word – ish gapirishdan ko'ra ahamiyatli.

*Gap bilguncha ish bil*

*gap bilan osh pishmas*

*gap desang qop–qop, ish desang– betob*

*gap boshqa– ish boshqa*

Work is an enemies of idler person – ish bu dangasa odamning dushmani.

*baxt yalqovga begona*

*bekorchining hunari–g'iybat*

*dangasaga bulut soyasi ham yuk*

*yalqovning g'ayrati ish bitganda qo'zir*

*dangasaga ish buyursang otangdan ortiq nasihat qilar*

*dangasing ishi bitmas yoz kelsa ham qishi bitmas*

Work (labor)is a goodness – ish (mehnat) bu yaxshilik.

Agar baxtli yashashni xohlasangiz baxtni maqsadga bog'lang maqsadni esa kuchli mehnatga, odamlar yoki narsalarga emas (Albert Einstein)

Agar bajarishdan qo'rqsangiz, demak bu ishni albatta bajarishga urunib ko'rishingiz kerak bu ish sizni omadingiz bo'ladi! (Seth Godin)

Men hech qachon muvaffaqiyatni orzu qilmadim. Men unga erishish uchun qattiq mehnat qildim (Estee Lauder)

Natija shuni ko'rsatadiki, “work” and “ish” konseptlarining qiyosiy tahlili ikkala tilda ham bu konseptlar katta milliy xususiyatga ega va mukammal o'ziga xoslikning tilda namoyish qilinishini ochib beradi.

Barcha ushbu metodlardan ko'rishimiz mumkinki tilshunoslikdagi bu tahlillar zamonaviy bo'libgina qolmay, tushuncha va ma'no ifodalash uchun juda ham zarurdir. Ushbu ishdagi nazariy va amaliy tahlillar kognitiv tilshunoslikdagi alohida e'tiborga molik va foydali metodlardir.

## **2- bob bo'yicha xulosa**

Kognitologiya turli fan sohalari kesishmasida yuzaga kelgan bo'lib, uning tadqiqot sohasi "bilimni yig'ish, saqlash va qo'llash usullarini tadqiq qilish" sifatida belgilanadi.

"Kognitiv" atamasi aslida lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, tushunish anglash, bilish, o'ylash ma'nolarini beradi. Kognitologiya (cognitive science) tafakkur haqidagi fan bo'lib, uning tayanch nuqtasi tilshunoslikdir. So'zsiz, lingvistik tahlil kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'lishidir. Kognitiv tilshunoslik 1989-yil Deysburgdagi tilshunoslikka bag'ishlangan simfoziumda ilk bora fan sifatiga tilshunoslikka kiritildi.

Til va tafakkurning rivojlanishi oqibatida ushbu kognitiv tilshunoslik fanida ham turli yo'nalishlar vujudga keldi: kognitiv grammatika, kognitiv stilistika, kognitiv semantika, jins tilshunosligi, etnolingvistika, kognitiv fonetika. Ular orasida kognitiv grammatika va kognitiv semantika alohida ahamiyatga ega.

Kognitiv grammatika atamasining ikkita ma'nosi bor. Keng ma'noda kognitiv grammatika kognitive lingvistikaning sinonimidir. U tildagi bilishga oid harakatlar masalan: xotira, sezish, e'tibor va o'ylash kabilarida namoyon bo'ladi. Tor ma'noda esa kognitiv grammatika kognitiv lingvistikaning yo'nalishidir.

Kognitiv semantika tilning ma'nosini insonlar miyasida qanday aks etishiga qarab belgilaydi yoki ifodalaydi. An'anaviy semantikadan farqli ravishda, kognitiv semantika lingvistik voqea-hodisalarni ekstra-lingvistik faktorlar ya'ni, asosan psixologik va ijtimoiy-madaniy faktorlarga tayanib o'rganadi. Kognitiv semantikaga fan sifatida katta hissa qo'shgan olimlarning biri A.Vyerzbikadir.

Lingvokognitologiya til birliklarining zamiridagi bilim zahirasiining strukturasiini tadqiq qiladi. Bilimni sistema sifatida o'rganib, uning sistem xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Kognitiv konsept boshqa konseptlardan farq qiladi. Lisoniy birlik o'zi aks ettirayotgan bilim sistemasi bilan yaxlitlikda olinganda, kognitiv konsept maqomida bo'ladi. Konsept tushunchaga, tushuncha esa lug'aviy ma'noga o'z "qaymog'"ini beradi. Shu asosda nutqiy hodisalardan biri ( jumladan topishmoqlar) ilmiy–nazariy tahlil uchun tortiladi.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi. Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy–ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi eng asosiy metodlardan freym analizi, kognitiv metafora va kognitiv xarita faol hisoblanadi.

Freym tahlilining asosiy maqsadi shundan iboratki, tilda berilgan tushuncha bizning miyyamizda butun bir holat yoki vaziyat sifatida namoyon bo'lishidir bu esa miyyamizda faqatgina bitta tushuncha kirib qolishini rad etadi.

Kognitiv metafora oddiy metaforadan farq qiladi. Oddiy metaforada so'zlarning ahamiyati, tilshunoslikdagi fenomenona, ta'sirchanlik va badiiy bo'yoqdorlik muhim rol o'ynashi bilan birgalikda, bunda ikkita asosning o'zaro bog'liqligi va odatda shoirlar va notiqalar tomonidan ko'pincha ishlatilishi alohida ajarlib turadi va odatda so'zning ko'chma ma'nosi sifatida qaraladi. Kognitiv metaforadagi ikkita tarmoq ya'ni nishon va manba tarmoqlari bo'lib, odatda nishon qismi tasvirlanishi kerak bo'lgan asos bo'lsa, manba qismi esa metaforaga oid bo'lgan qismi bo'lib, nishon qismining mag'zini ochib beradi. Kognitiv metaforaning turlari ham bu bobda alohida muhokama qilinadi. Uning 4 ta asosiy turi bo'lib, ular: strukturaga oid metafora, ontologik metafora, oriyental metafora, konteyner metafora.

Kognitiv xarita konseptning lingvistik ma'nosini ochib berishdagi xizmatidan tashqari u nomoddiy tahlil sifatida ham qaraladi va bu tushunchaning

kaliti hisoblanadi. Konseptdagi ma'noni yanada chuqurroq tahlil qilishda va konseptning lingvistik ko'rinishini ifodalashda tilshunoslar tomonidan taklif qilingan kognitiv xaritani quyidagi strukturalari bor: lug'atdagi ma'nolar va lug'atshunoslikdagi izohlar, paradigmatic bog'lovchilar, syntagmatic bog'lovchilar, yordamchi bog'lovchilar, frazeologik bo'limlarda, tushunchaning tabiiy konseptualligi.

Ushbu kognitiv tilshunoslikning metodlari qo'shma so'zlarda ma'no uyg'unligini ochib berishda alohida e'tiborga molikdir.

### **III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QO'SHMA SO'ZLARNI TADQIQ QILISHDA KOGNITIV YONDASHUV**

#### **3.1. Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv modellari**

Qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari haqida gap borganda shuni ta'kidlashimiz kerakki, qo'shma so'zdagi ikkita konsept bitta kognitiv asosda yotadi. Qo'shma so'zlarni kognitiv xususiyatlarini ochib berish uchun esa bizga bir

emas, kamida ikki va undan ortiq bir modelga kiruvchi qo'shma so'z kerak bo'ladi. Aks holda uning boshqa jihatlardagi tahlildan farqi qolmaydi. Shu jihatiga ko'ra ba'zan ularni kognitiv metaforaga ham kiritsa bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tillardagi qo'shma so'zlar asosan quyidagi kognitiv modellar mavjud.

1. Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi
2. Ekin+dala//ekinzor=o'simlik nomi.
3. Hayvon+yeydigan narsa=o'simlik nomi
4. Tana qismi+o'simlik=o'simlik nomi
5. Son+tana qismi=o'simlik nomi
6. Rang+narsa=o'simlik nomi
7. Rang+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.
8. Hayvon+tana qismi= tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z
9. Shakl+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z
10. Narsa+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z
11. Rang+tana qismi= qush nomi
12. Hayvon+hayvon=qush nomi
13. Sifat + odam nomi=qush nomi

**1. HAYVON+TANA QISMI= O'SIMLIK NOMI.** Ingliz va o'zbek tillarida ushbu kognitiv model mavjud bo'lib, har ikki tilda ham bu model kam ishlatiladigan (non-productive) hisoblanadi. Chunki bunday so'zlar odatda faqat maxsus sohalargagina tegishli bo'lib, kundalik hayotda va tilshunoslikda ko'p ishlatilmaydi. Ingliz tilidagi bularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

*Tiger's Jaw (lotin tilidagi nomi– chasmatophyllum masculinum),*

*Snakehead*

*Dog-toothed (Erythronium )*

*Bird's food (Lotus cornicaltus)*

*Lamb's ear (Stachys)*

*Dragonhead (Dracocephalum)*



*Goatsbeard (Aruncus)*

**Tiger's jaw** – yo'lbars tishi deb nomlangan ushbu o'simlik barglari yashil xuddi aloe guliga o'xshab ketadi. Faqat uning tikanlari juda ham uzun va qalin bo'lib bu bizga yo'lbar tishini eslatadi. Yuqoridagi kognitiv model yaratishimizga sabab, "tiger"– hayvon konspetining kognitiv asosi (domain)hisoblanadi, "tish" tana qismi konseptining kognitiv asosidir. Ushbu idiomali qo'shma so'zning hozirgi leksik ma'nosi o'xshashlik asosida bunyod etilgan. Gul yo'lbarsning tishiga o'xshaydi. Semantic xususiyatiga ko'ra bu yerda asoslanmagan tarkiblar mavjuddir. Ikkita asoslanmagan konseptdan yangi konspet hosil bo'ldi.

Yuqoridagi *snake (ilon)*, *dog (kuchuk)*, *lamb (qo'zichoq)*, *dragon (ajdar)*, *goat (echki)* hayvon konseptining kognitiv asosi bo'lib, ulardagi ikkinchi tarkibiy qism *tooth(tish)*, *food (oyoq)*, *ear (quloq)*, *head (bosh)*, *beard(soqol)* tana qismi konspetining kognitiv asosi hisoblanadi. Bu misollarda ham ushbu idiomali qo'shma so'zlarning leksik ma'nosi o'xshashlik asosida qurilgan. Ikkita konspet bizga boshqa yangi konsept bera oldi.

Bugungi kunda zamonaviy ingliz tilining kognitiv tilshunosligida biz bunday misollarni metftonomi termini ostida ham kuzatishimiz mumkin. Metafora va metonimiya qo'shilishidan tarkib topgan bunday misollarni kognitiv tilshunoslik quyidagicha tahlil qiladi: "*dragonhead*"–ajdar bosh, o'simlik nomi. Ajdar metafora jihatidan, ikkinchi komponent bosh esa metonimiya tomonidan paydo bo'lgan bo'lib, metafora va metonimiya qo'shilishidan paydo bo'lgan qo'shma so'z hisoblanadi.

Demak, o'zbek tilida **HAYVON+TANA QISMI=O'SIMLIK NOMI** modeliga kiradigan qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlarini birma–bir ko'rib chiqsak:

*Ayiqtovon*

*Laylaktumshuq*

*Bo'tako'z*

*Tuyaqorin*

*Govzabon*

O'zbek tilidagi “**ayiqtovon**” qo'shma so'zi– ikkipallalilar sinfining ayritojlilar kenja sinfiga mansub, asosan ko'p yillik o'simlik. Zaharli och sariq rangda (O'TIL I, 2006, b 56). Demak bundan tushunishimiz mumkinki, ushbu so'z daladagi o'simlik konseptiga tegishli. Buning kognitiv modelini esa quyidagicha chizildi: “**hayvon+tananing qismi=o'simlik**”. Bunday kognitiv model asosida yaratishimizga sabab, ayiq – hayvon konseptining kognitiv asosi (domain) hisoblanadi, tovon – esa tana konspetining kognitiv asosidir. Ushbu idiomali qo'shma so'zning hozirgi umumiy leksik ma'nosi o'xshashlik asosida qurilgan bo'lib, gul ayiqning tovoniga o'xshaydi. Ikkala tilda ham kognitiv model o'xshashlik asosida ko'chgan bo'lib, to'liq asoslanmagan idiomali qo'shma so'z hisoblanadi

Yuqoridagi *laylak, bo'ta, tuya, ho'kiz* hayvon konseptining kognitiv asosi bo'lib, ularning ikkinchi tarkibiy qism *tumshuq, zabon (til), qorin, ko'z* tana qismi konspetining kognitiv asosi hisoblanadi. Bu misollarda ham ushbu idiomali qo'shma so'zlarning leksik ma'nosi o'xshashlik asosida qurilgan. Ikkita konspet bizga boshqa yangi konsept bera oldi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, qiyoslanayotgan har ikkala tilda **hayvon + tana qismi = o'simlik nomi** kognitiv model bo'la oladi.

**2. RANG+NARSA=O'SIMLIK NOMI.** O'zbek tilidan farqli o'laroq, ingliz tilida quyidagi kognitiv modellar ham mavjud bo'lib, Ingliz tilida bu model ko'p ishlatilmaydigan (produktiv bo'lmagan) usul sanaladi. Chunki o'simlik nomini ranglar bilan atalashi faqatgina maxsus sohalarga ishlatilib qolmay, kundalik hayotdagi ko'pgina o'simlik nomlari rang nomi bilan qo'shib ataladi, ammo ularni narsalar bilan qo'shib nomlanishi uning produktivlik xususiyatini yo'qqa chiqaradi. Bunday o'simlik nomlarining kognitiv asosini ularning rangi tashkil qiladi.

*Redwood*

*Bluebells*

*Yellow cone flower*

Qo'shma so'zlarning birinchi komponenti rang *red (qizil), blue (ko'k), yellow(sariq)* konseptining kognitiv modeli hisoblansa, ikkinchi tashkiliy qism narsa *wood(o'tin), bell (qo'ng'iroq), cone(konus, g'udda)* konseptining kognitiv modeli bo'la oladi.

**3. EKIN+DALA//EKINZOR=O'SIMLIK NOMI.** Ushbu kognitiv model ham faqat ingliz tiliga xos bo'lib, ularning yasalishiga asosiy sabab dala va ekinzorlar bilan bog'liqligidadir shu xususiyatiga ko'ra bunday modelga kiruvchi qo'shma so'zlar produktiv bo'lmagan hisoblanadi.

*cornfield*

*cornflower*

*cornstalk*

Yuqoridagi qo'shma so'zlarning birinchi tashkiliy qismi *ekin, don–dun* konseptining, ikkinchi komponent esa *ekinzor, dalazorga* kiruvchi tushunchalar konseptining kognitiv modeli hisoblanadi

**4. HAYVON+YEYDIGAN NARSA=O'SIMLIK NOMI.** Bu kognitiv model faqat o'zbek tiliga xosligi bilan ajralib turadi. Asosan hayvon va xususiyati gulning tuzilishiga o'xshashligi sababli shunday nomlar bilan atashgan. Bunday qo'shma so'zlar odatda maxsus sohalarda ham kam uchraydi va shu xususiyatiga ko'ra ular produktiv bo'lmagan hisoblanadi. Misol uchun:

*Kanakunjut*

*Ilonjiyda (chilonjiyda)*

*Ilonmayiz*

Yuqoridagi qo'shma so'zlarning birinchi qismi *kana, ilon* kabi hayvon konseptining kognitiv asosi bo'lsa, ikkinchi komponenti yeydigan narsa *kunjut, jiyda, mayiz* konseptining kognitiv asosi bo'lib, ikkita fenomenada bitta yangi kognitiv model paydo bo'ldi.

**5. TANA QISMI+O'SIMLIK=O'SIMLIK NOMI.** Bu kognitiv model o'zbek tiliga xos bo'lib, o'xshashlik asosida vujudga kelgan va semantik nuqtai-nazaridan qisman asoslangan va produktiv bo'lmagan usul hisoblanadi.

*Tirnoqqul*

*Bo'yindorgul*

*Tirnoq va bo'yin* tana qismining *gul* esa o'simlik konspetining kognitiv asosi bo'lib, yangi o'simlik nomini berdi.

**6. SON+TANA QISMI=O'SIMLIK NOMI.** Ushbu kognitiv model o'zbek tiliga xos bo'lib, ular raqamlar bilan atalishiga sabab ularning bargi ko'pligidir. Odatda bunday modelga kiruvchi qo'shma so'zlar bugungi kunga kelib tibbiyot va biologiya sohalarida ham kam ishlatiladi.

*Qirqquloq*

*Qirqbo'g'im*

*Mingoyoq*

Ushbu qo'shma so'zlarning birinchi komponenti *qirq*, *ming* son konspetining kognitiv modeli hisoblansa, ikkinchi qismi tana qismi *quloq*, *qirq*, *mingoyoq* konseptining kognitiv modeli hisoblanadi. Semantik jihatdan bular qisman asoslangan qo'shma so'zlardir.

Inson tashqi ko'rinishi har qanday sohada: ish, o'qish, nutqda... eng muhim xususiyatlardan biri sanaladi. Aynan shu jihatdagi qo'shma so'zlar ingliz va o'zbek tilida stilistik bo'yoqdorlikka ega va eng sermahsuldir. Har ikkala tilda insonning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan talaygina qo'shma so'zlar bo'lib, ularning kognitiv xususiyatlarini ochib berish uchun biz kognitiv modellarga yuzlansak.

Eng avvalo, tashqi ko'rinishni ifodalash uchun freym tahliliga yuzlansak: [qarang: jadv. 3.1].

**Jadval 3.1 tashqi ko'rinish freymi**

<b>Tashqi ko'rinish</b>	
<b><i>Bosh</i></b>	<b><i>Tana</i></b>
Ko'z	Oyoq
Og'iz	Qo'l
Yuz	Bel
Quloq	Qorin

Endi shu bosh va tana slotlaridan kelib chiqadigan sabslotlarni kognitiv modelga asoslangan tahlillarini ko'rsak.

**7. RANG+TANA QISMI=TASHQI KO'RINISHNI IFODALOVCHI SO'Z.** Har ikki tilda bu usul produktiv hisoblanadi. Ingliz tilida ushbu modelning asosiy qismini rang tashkil qiladi. Chunki qushlarning rangi va xususiyati bunday qo'shma so'zlar yasalishiga sabab bo'ladi.

*Blue-eyed,*

*Black-eyed*

*Black-bearded*

*White-bearded*

*Red-bearded*

*White-handed*

*Red-handed*

*Fair-bearded*

*Red-haired*

*Black-haired*

*Dark-haired*

*Grey-headed,* sochi ko'kka bo'yalgan odam (odatda yoshi kattaroq odamlarga nisbatan ishlatiladi—a grey-headed old woman) .

Yuqoridagi birinchi komponentlarning barchasi **rang** konseptining kognitiv asosi bo'lib, ikkinchi qismdagi so'zlar **tana qismi** konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Ikkinchi qismdagi so'zlar qo'shma so'zning ustunroq holati bo'lib, semantik xususiyatiga ko'ra, bunday qo'shma so'zlar qisman asoslangan hisoblanadi. Ya'ni qo'shma so'z tarkiblarining birida hali ham ma'no anglashinib turgan bo'ladi. Demak, ushbu kognitiv modelldagi bitta fenomenadan bitta yangi konsept hosil bo'ldi. Ikkinchi komponent—paydo bo'layotgan yangi qo'shma so'zning asosi hisoblanadi.

O'zbek tilida **RANG+TANA QISMI= TASHQI KO'RINISHNI IFODALOVCHI SO'Z** kognitiv modeli xuddi ingliz tilidagidek rang va uning tana qismi xususiyati eng muhim asos hisoblanadi.

*Ko'kko'z*

*Qorako'z*

*Qorasoqol*

*Oqsoqol*

*Mallasoch*

*Qorasoch*

*Qoraqosh*

Xuddi ingliz tilidagidek inson tashqi ko'rinishini ifodalshga yordam beradigan bunday qo'shma so'zlardagi birinchi tashkiliy qism **rang**, ikkinchi tarkib esa **tana qismi** konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Semantik xususiyatiga ko'ra to'liq asoslanmagan bo'lib, ma'no anglashinadigan tarkib hali ham mavjud.

**8. HAYVON+TANAQISMI=TASHQI KO'RINISHNI IFODALOVCHI SO'Z.** Tashqi ko'rinishni ifodalashda yordamga keladigan navbatdagi ushbu kognitiv modelning asosini hayvon tashkil qilsada bular o'xshashlik asosida vujudga kelgan hisoblanadi va shu xususiyatiga ko'ra bular qiyoslanayotgan har ikki tilda ham produktiv hisoblanadi. Semantik jihatdan qisman asoslangandir.

**Ingliz tilida:**

*Sheep-forehead*

*Goat-forehead*

*Sheep-eyed,*

*Eagle-eyed*

*Sparrow-nosed*

*Hawk-nosed qirg'iy burun*

*Wasp-waisted*

*Ass-head*

*Elephant-legged*

*Pug-nosed pug- tushmushug'i yapaloq it. Puchuq burun*

**O'zbek tilida shu modelga kiruvchi qo'shma so'zlar:**

*Qo'yko'z*

*Zag'chako'z*

*Qirg'iyburun*

*Filoyoq*

*Echkisoqol*

Yuqoridagi tashqi ko'rinishni ifodalovchi qo'shma so'zlarning birinchi tarkibi *sheep (qo'y)*, *goat (echki)*, *eagle (burgut)*, *sparrow (chumchuq)*, *wasp (ari)*, *elephant (fil)* kabi hayvon konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Ikkinchi komponent esa bosh//tana qismi konseptining kognitiv asosidir. Yuqoridagi birinchi modelga o'xshab, semantik xususiyatiga ko'ra qisman asoslangan qo'shma so'zlar hisoblanadi.

Tashqi ko'rinishni ifodalashda qo'shma so'zlarning ahamiyati juda ham katta bo'lib, uchunchi kognitiv model quyidagicha:

**9. SHAKL+TANA QISMI=TASHQI KO'RINISHNI IFODALOVCHI SO'Z** kognitiv modelining har ikki tilda ham asosi bu shaklni ifodalaydigan so'zlar hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida bunday qo'shma so'zlar produktiv hisoblanadi.

**Ingliz tilida:**

*Oval-faced*

*Round – faced*

*Large-eyed*

*Wide-mouthed*

*Open-mouthed*

*Splay-mouthed*

*Long-eared*

*Long-nosed*

*Large-handed*

*Short-handed*

*Broad-faced*

*Long-haired*

**O'zbek tilida:**

*Qirraburun*

*Xipchabel*

*Kaltaqo'l*

*Kattaog'iz*

*Uzunsoch*

Qiyoslanayotgan har ikkala tildagi qo'shma so'zlarning birinchi komponenti shakl konseptining kognitiv asosi bo'lib, ikkinchi komponent tana qismi konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Yuqoridagi ikki modelga o'xshab, bunda ham qo'shma so'zlar qisman asoslangandir.

**10. NARSA+TANAQISMI=TASHQI KO'RINISHNI IFODALOVCHI SO'Z** kognitiv modelimiz faqatgina ingliz tiliga xos bo'lib, bular produktiv bo'lamagandir va bunga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

*copper-nose*

*mop-head*

*Bullet-head*

Yuqoridagi qo'shma so'zlarning birinchi komponenti *copper-mis*, *mop-shvabra*, *bullet-o'q* kabi narsalar konseptining kognitiv asosi bo'lsa, *nose*, *head-tana* qismi konseptining kognitiv asosidir.

**11. RANG+TANA QISMI= QUSH NOMI.** Navbatdagi ushbu modelimiz qushlarga bag'ishlangan bo'lib, bilamizki ularni tashqi ko'rinishiga qarab nom berilishi juda ham sermahsul usul hisoblanadi. Ularning tashqi ko'rinishiga qaratilgan e'tibordagi ranglar juda katta ahamiyatga egadir. Har ikkala tilda ham qo'shma so'zlarning kognitiv modeli mavjud bo'lib, bu modelga kiruvchi qushlarning nomi ingliz tilida mingdan ortiq. Bu esa tilshunoslikda xuddi shuncha qo'shma so'zlar mavjudligini bildiradi. Shunday ekan bular har ikki tilda ham produktiv hisoblanadi. Keling ulardan ba'zi birlarini ko'rib chiqsak:

Ingliz tilida:

*Black-backed Butcherbird*

*Black-breasted Button-quail*

*Black-chinned Honeyeater*

*Black-crowned Night Heron*



*Black-eared Cuckoo*

*Black-faced Cormorant*

*Black-headed Gull*

*Black-tail Godwit*

*Black-throated Finch*

*Black-winged Currawong*

*Blue-faced Parrot-Finch*

*Blue-winged Kookaburra*

*Grey-head Albatross*

*White-winged Chough*

*White-breasted Waterhen*

*Yellow-tailed Black Cockatoo*

*Grey crowned Babbler*

*Grey tailed Tattler*

*Grey backed Storm-Petrel*

*White-breasted Woodswallow*

*White-throated Needle-tail*

*White cheeked Honeyeater*

*White eared Monarch*

*White eyed Duck*

*White faced Heron*

*Yellow-breasted Sunbird*

*Yellow-faced Honeyeater*

*Yellow-nosed Albatross*

*Yellow-throated Honeyeater*

**O'zbek tilida** ham shu modelga kiruvchi qo'shma so'zlar soni anchagina bo'lib ularning barchasini sanashni iloji yo'q albatta:

*Oq dumli burgut*

*Sariq tomoq burgut*

*Yashil qanotli tovus*

*Qizil bosh jibljajibon*  
*Sariq bosh jibljajibon*  
*Qora peshona qarqunoq*  
*Oq peshona qarqunoq*  
*Qizil quloq ara*  
*Qora tomoq chumchuq*  
*Sariq tomoq chumchuq*  
*Qora tumshuq chigirtchi*  
*Oq dumli suvburguti*  
*Oq qanotli chumchuq*  
*Qizil bosh chumchuq*  
*Qizil tumshuq faeton*

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham qo'shma so'zlarning birinchi tarkibi rang konseptining kognitiv asosi hisoblansa, ikkinchi komponent tana qismi konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Semantik xususiyatiga ko'ra bu yerda to'liq asoslangan tur mavjud. Chunki qo'shma so'zlarning har ikkala tarkibidan ham ma'no to'liq anglashilinadi. Ingliz tilidagi *grey-head albatross* qushini oladigan bo'lsak, birinchi tarkib *grey*– kulrang, ikkinchi komponent–*head* bosh bo'lib umumiy ma'no kulrang boshli albatross qushi nomidir. Qo'shma so'zning tarkiblaridagi moslashish va ma'nodagi joylashishni hamda o'zardagi leksik ma'nolarning bog'liqligi mavjud. Bunda leksik ma'nosi ularning tarkibiy qismlaridan aniq va oson tushunsa bo'ladi. O'zbek tilidagi *sariq tomoq burgut* ham bunga misol bo'ladi.

**12. HAYVON+HAYVON=QUSH NOMI** Navbatdagi kognitiv modelimiz bo'lib, bu modelga kiruvchi qushlarning nomi ko'p bo'lmasligi va juda ham kam ishlatilishi bilan produktiv bo'lmagan usulga kiradi, ammo qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham mavjuddir.

**Ingliz tilida:**

*catbird bunting*

*Fox sparrow*

*Fish crow*

Shulardan *fox sparrow* tulki chumchuq deb tarjima qilinadi. Bu qushga bunday nom berilishiga sabab tulkining ranglari qanday bo'lsa, xuddi shunday ranglar bu qush turlarida ham mavjud. Ikkinchi tomoni esa bu qushning ko'zlari juda ham tulkining ko'zlariga o'xshaydi. Demak, tulki hayvon konsepti va chumchuq hayvonning qushlar turkumiga kiradigan konsept bo'lib, ikkalasi birgalikda yangi qush nomi konseptini berdi va bu qisman asoslangan qo'shma so'z hisoblanadi.

**O'zbek tilida:**

*Baliqchi ukki*

*Ilon burgut*

*Tuya qaldirg'och*

*Baliqchi o'rdak*

*Baliqchi kaptar*

Yuqoridagi *tuya qaldirg'och*. Bu qushga bunday nom berilishiga sabab tuyaning ranglari qanday bo'lsa, xuddi shunday ranglar bu qush turlarida ham mavjud. Ikkinchi tomoni esa bu qushning ko'zlari juda ham tuyaning ko'zlariga o'xshaydi. Demak, tuya hayvon konsepti va qaldirg'och hayvonning qushlar turkumiga kiradigan konsept bo'lib, ikkalasi birgalikda yangi qush nomi konseptini berdi va bu qisman asoslangan qo'shma so'z hisoblanadi.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham yuqoridagi shu modelga kiruvchi barcha qo'shma so'zlarning birinchi va ikkinchi komponentlar hayvon konseptining kognitiv asosi hisoblanadi. Semantik xususiyatiga ko'ra bunday qo'shma so'zlar qisman asoslangan hisoblanadi.

**13. SIFAT+INSON NOMI=QUSH NOMI** kognitiv modeli ingliz tilida mavjud bo'lib bunday model o'zbek tilida yo'qligi bilan farqlanadi. Bunday qo'shma so'zlar produktiv bo'lmagan hisoblanib quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

*Little Elvis*

*Little Jimmy*

*Little lucy*

*Big Al*

*Katta, kichik* kabi sifatlar birinchi komponentdagi rang konseptining kognitiv asosi bo'lsa, ikkinchi qism *inson ismlari* konseptining kognitiv asosi hisoblanadi.

Yana shuni ta'kidlashimiz lozimki, qiyoslanayotgan har ikki tilga xos kognitiv modellar ushbu tillarida turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Qiyoslanayotgan **har ikki tilda ham produktiv** hisoblangan kognitiv modelga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Rang+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.

Hayvon+tana qismi= tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Shakl+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Rang+tana qismi= qush nomi

Quyidagilar esa **ingliz tilida produktiv** bo'lmagan usulga kiradi:

Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi

Rang+narsa=o'simlik nomi

Ekin+dala//ekinzor=o'simlik nomi

Narsa+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Hayvon+hayvon=qush nomi

Sifat + odam nomi=qush nomi

O'zbek tilida produktiv bo'lmagan qo'shma so'zlarning kognitiv modeliga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi

Hayvon+yeydigan narsa=o'simlik nomi

Tana qismi+o'simlik=o'simlik nomi

Son+tana qismi=o'simlik nomi

Hayvon+hayvon=qush nomi

Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlarning kognitiv modeli qiyosiy tahlili natijasida shuni guvohi bo'ldikki, bu modellarning ba'zilar faqat ingliz tiliga xos bo'lsa, ba'zilar esa faqat o'zbek tiliga xosdir. yoki tahlil natijasi shu ko'rsatadiki,

har ikki tilda ham mavjud bo'lgan kognitiv modellar bor. Masalan, quyidagi kognitiv modellar har ikki tilda ham mavjud.

**Qiyoslanayotgan har ikki tilda ham mavjud kognitiv modellar:**

Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi

Rang+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.

Hayvon+tana qismi= tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Shakl+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Rang+tana qismi= qush nomi

Hayvon+hayvon=qush nomi

**Faqat ingliz tiliga xos bo'lgan kognitiv modellar:**

Narsa+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Rang+narsa=o'simlik nomi

Ekin+dala//ekinzor=o'simlik nomi

Sifat + odam nomi=qush nomi

**Faqat o'zbek tiliga xos kognitiv modellar:**

Hayvon+yeydigan narsa=o'simlik nomi

Tana qismi+o'simlik=o'simlik nomi

Son+tana qismi=o'simlik nomi

Yuqoridagi tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv modeli yaratishimiz uchun bizga kamida ikki va undan ortiq bir modelga kiruvchi qo'shma so'zlar kerak bo'ladi. Shunday qo'shma so'zlar tahlilida biz shuni kuzatishimiz mumkinki, produktiv hisoblangan ko'pgina kognitiv modellar har ikki tilda ham mavjud. Ba'zi kognitiv modellar esa faqat qiyoslanayotgan tillarning bittasiga xosdir. Bunday kognitiv modelning asosiy xususiyatlari, ushbu qo'shma so'zlarning til va ong o'rtasidagi to'qnashuvda hosil bo'lgan natijalaridir.

### **3.2 Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning konseptual xilma-xilligi**

Qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatini ochib berishda ularni til va ong bog'liqligini o'rganishda kognitiv modellar muhim rol o'ynaydi. Ularni bunday tahlil qilishimizda semantik ma'no katta ahamiyatga egadir. Semantik jihatdan qo'shma so'zlar ma'noviy komponentlardan iborat bo'lib, bu komponentlar uchta guruhga kiradi:

- 1) arxisemalar;
- 2) integral semalar (umulashtiruvchi);
- 3) differensial semalar (farq qiluvchi).

**Arxisemalar** – qo'shma so'zlarni u yoki bu semantik guruhlariga birlashishini ta'minlaydi. Masalan, yuqoridagi kognitiv modellarimizdan paydo bo'lgan guruhlar birlashishidan yuzaga kelgan *o'simlik nomi, tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z* va *qushlar nomlari* kabi arxisemalar shular jumlasidandir.

**Integral semalar** arxisemalar tarkibidagi umumlashtiruvchi xarakterga ega u yoki bu turlardir. Masalan, o'simlik nomi arxisemasi *gul, daraxt, o't, bo'ta* va boshqa integral semalar tashkil etadi.

**Differensial semalar** – yuqorida paydo bo'lgan qo'shma so'zni ma'no jihatidan farqlash uchun xizmat qiladigan semalardir. Masalan, o'zbek tilidagi *ayiqtovon* o'simligi – gemisiklar oilasiga mansub **gul** integral semasiga kiruvchi **differensial sema** hisoblansa, ingliz tilidagi *redwood*– o'simligi aynan **daraxt integral semasiga** kiradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv tahlil natijasida aniqlangan kognitiv modellarni o'rganish natijasida, ushbu modellar yordamida qaysi semantik guruhga xos qo'shma so'zlar yasalishini aniqladik.

Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlar asosan quyidagi arxisemalarni tashkil etadi:

1. O'simlik nomi – (*ho'kiz tili, bo'ta ko'z*), (*tiger's jaw, dragonhead*);
2. Tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z – (*echki soqol, qorako'z*), (*goat-forehead, sheep-eyed*);
3. Qushlar nomi – (*Ilon burgut, tuya qaldirg'och*), (*blue-winged Kookaburra, grey-head Albatross*);

4. Kasb nomi –(*otboqar, molboqar*), (*frogman, fisherman*);
5. Xarakterni ifodalovchi soʻz – (*sofkoʻngil, darveshtabiat*), (*free–handed, heart–whole*);
6. Joy nomi – (*Toshqoʻrgʻon, Oqtepa*), (*Newcastle, Three oaks*).

Qiyoslanayotgan har ikki tillarda yuqorida koʻrsatilgan arxisemalardan eng produktivlariga **oʻsimlik nomi, tashqi koʻrinishni ifodalovchi soʻzlar va qushlar nomi** kirganligi sababli, ushbu arxisemalarni tahliliga batafsil toʻxtalamiz. Ushbu model yaratilishiga eng birinchi sabab bu ong hisoblanadi va uni tilshunoslikda bogʻliqligini oʻrganayotgan hodisa bu kognitiv modeldir. Chunki bunday modellardan va ularning qaysi konsept kognitiv asos boʻla olishini kognitiv tilshunoslik oʻrganadi.


**Oʻsimlik nomi** – bunday turkumga kiruvchi qoʻshma soʻzlar kognitiv modelining baʼzilari ingliz va oʻzbek tillarida mavjud boʻlsa, baʼzilari faqat bitta tilda mavjud hisoblanadi.

Ingliz va oʻzbek tilida oʻsimlik nomi kognitiv modeliga quyidagilar kirdi:

1. Hayvon+tana qismi= oʻsimlik nomi
2. Ekin+dala//ekinzor=oʻsimlik nomi.
3. Hayvon+yeydigan narsa=oʻsimlik nomi
4. Tana qismi+oʻsimlik=oʻsimlik nomi
5. Son+tana qismi=oʻsimlik nomi
6. Rang+narsa=oʻsimlik nomi

Ushbu kognitiv modellari integral semalar hisoblanadi. Chunki aynan ularning umumlashmasidan oʻsimlik nomi arxisemasi paydo boʻldi. Ingliz tilida ularning holatini quyidagi sxemada koʻrsak (qarang: chizma 3.1):

### Chizma 3.1. Ingliz tilida o'simlik nomiga kiruvchi kognitiv modellar



Yuqoridagi sxema bizga shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida o'simlik nomi arxisemasiga kiruvchi gul, daraxt kabi integral semalar o'z ichiga rang–barang differensial semalarga ega qo'shma so'zlarni qamrab oladi. Differensial semalarning asosiy farqlari quyidagi komponentlar orqali yuzaga keladi:

Hayvon nomi

Tana qismi

Rang

Narsa

Ekin


Hayvon va tana qismining umumlashmasidan *tiger's jaw* – **gul nomi**, *dragonhead*–**gul nomi**, *goatsbeard*–**daraxt nomi** kabi integral semalariga kiruvchi qo'shma so'zlar shakllanadi. Ular o'xshashlik asosida paydo bo'lgan qo'shma so'zlar turlariga kiradi. Rang va narsa umumlashmasidan *redwood*– **daraxt nomi**, *bluebells*–**gul nomi** kabi qo'shma so'zlar guruhi mavjud bo'ldi. Ekin va dalazor/ekinzor konseptlarining qo'shilishidan *cornfield* va *cornflower* **gul nomi** ga oid differensial semalar bor. Demak yuqoridagi o'simlik nomi arxisemasidan paydo bo'lgan kognitiv modellar integral semalar paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Undan kelib chiqqan differensial semalar esa biz o'sha o'simlik nomini aytganimiz bilan ong ostida paydo bo'ladigan aniq ko'rinishdir. Masalan, *tiger's jaw*



deyilganda inson ongiga birinchi bo'lib sherning og'ziga o'xshagan **gulning** differensial semasi paydo bo'lishidir.

O'zbek tilida ham bunday qo'shma so'zlarning kognitiv modeli mavjud bo'lib, ularni quyidagi sexemada ko'ramiz (qarang: chizma 3.2):

**Chizma 3.2. O'zbek tilida o'simlik nomiga kiruvchi kognitiv modellar**



O'zbek tilidagi o'simlik nomi arxisemasi doirasidagi gul va o't-o'lan integral semalari quyidag komponentli differensial semalarni umumlashtiradi:

Hayvon

Tana qismi

O'simlik nomi

Yeydigan narsa

Raqam

Hayvon bilan tana qismi konseptlarining umumlashmasidan *bo'tako'z*– **gul** nomi va *laylaktumshuq*– **o't o'lan** integral semalariga kiruvchi qo'shma so'zlar shakllanadi. Hayvon va yeydigan narsa konseptlarining birikishi natijasida *kanakunjut*–, *ilonjiyda (chilonjiyda)*– **o't o'lan** kabi farq qiluvchi semalar natijasi

yaqqol namoyon bo'ldi. Raqam va tana qismida *qirquloq, ming bo'g'im o'tlar* va tana qismi bilan o'simlik nomi umumlashmasidan *tirnoqgul, bo'yindorgul* ga o'xshash **gul nomining** differensial semalar o'z aksini topdi.

Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida o'simlik nomi arxisemasining eng dominantlaridan biri **tana qismi** semasi hisoblanadi. Ong osti va tilning bog'ligi natijasida paydo bo'layotgan bunday kognitiv modellarning aynan shu xususiyati jihatidan bu biz ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshashlikni kuztishimiz mumkin.

**Tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'zlar**– qiyoslanayotgan har ikki tilda ham bu model eng produktiv hisoblanadi. Tashqi ko'rinishni ifodalash arxisemasi orqali vujudga kelayotgan qo'shma so'zlarning kognitiv modeliga quyidagilar kiradi:

1. Rang+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.
2. Hayvon+tana qismi= tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z
3. Shakl+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z
4. Narsa+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z

Yuqoridagi tahlili natijasi bizga shuni beradiki, ingliz va o'zbek tillarida tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z arxisemasidan paydo bo'layotgan kognitiv modellarning eng ustun komponenti bu **tana qismi** hisoblanadi.

Ingliz tilida ularning holatini quyidagi sxemada ko'rshimiz mumkin (qarang: chizma 3.3).

Bunday kognitiv modellar orqali biz quyidagi semalarni ko'rshimiz mumkin:

Rang


Tana qismi

Hayvon

Shakl

Narsa

### Chizma 3.3. Ingliz tilida tashqi ko'rinishni ifodalashdagi kognitiv modellar



Hayvon bilan tana qismi konseptlarining umumlashmasidan *sheep-forehead* – **pehana** va *pug-nosed* – **burun** nomiga oid differensial semalar mavjuddir. Rang va tana qismi konseptlarining birikishi natijasida *black eye* –**ko'z**, *white beard* **soqol** kabi farq qiluvchi semalar natijasi yaqqol namoyon bo'ldi. Shakl va tana qismida *round-face* – **yuz**, *open-mouth* – **og'iz**, narsa va tana qismi bilan tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z umumlashmasidan *copper nose*–**burun**, *mop-head* – **bosh** nomiga tegishli differensial semalar o'z aksini topdi.

Ingliz tilida produktiv bo'lgan bu kognitiv model o'zbek tilida ham eng produktiv hisoblanadi. Quyidagi sxemada biz o'zbek tilidagi tashqi ko'rinishni ifodalovchi arxisemalardan vujudga kelgan differensial semalar tahlilini ko'rishimiz mumkin (qarang: chizma 3.4):

Bunday kognitiv modellar orqali biz quyidagi komponentlardan yuzaga kelgan differensial semalarni ko'rishimiz mumkin:


Rang

Tana qismi

Hayvon

Shakl

**Chizma 3.4. O'zbek tilida tashqi ko'rinishni ifodalashdagi kognitiv modellar:**



Hayvon bilan tana qismi konseptlarining umumlashmasidan *qirg'iyburun – burun* va *echkisoqol – soqol* nomiga oid differensial semalar mavjuddir. Rang va tana qismi konseptlarining birikishi natijasida *qorqosh –qosh, oqsoqol– soqol* kabi farq qiluvchi semalar natijasi yaqqol namoyon bo'ldi. Shakl va tana qismida *kattaog'iz – og'iz, qirraburun – burun*, nomining differensial semalari o'z aksini topdi.


Ingliz va o'zbek tillarida tashqi ko'rinishni ifodalovchi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlari orasida tana qismi dominant variant ekanligini kuzatdik. Bundan tashqari biz ularning semalarini tahlil qilib kognitiv modellar natijasini kuzatganimizda ingliz tilida narsa va tana qismi kognitiv modeli mavjud bo'lib, bunday model o'zbek tilida yo'qligi bilan farqlandi.

**Qush nomi** – arxisemasi ingliz va o'zbek tillaridagi eng produktiv hisoblanadi. Qush nomini ifodalash arxisemasi orqali vujudga kelayotgan qo'shma so'zlarning kognitiv modeliga quyidagilar kiradi:

1. Rang+tana qismi= qush nomi
2. Hayvon+hayvon=qush nomi
3. Sifat + inson nomi=qush nomi

Quyidagi sxemada ingliz tilidagi qush nomi arxisemasidan vujudga kelgan integral semalarni ko'rishimiz mumkin (qarang: chizma 3.5)

### Chizma 3.5. Ingliz tilida qush nomini ifodalashdagi kognitiv modellar



Yuqoridagi sxema bizga shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida qush nomi arxisemasidan quyidagi komponentlari vujudga keldi:

Hayvon

Tana qismi

Rang


Sifat

Inson nomi

Rang va tana qismining umumlashmasidan *Black-eared Cuckoo* – **kakku**, *Grey-head Albatross* – **albatrossi**, nomiga oid differensial semalar mavjud. Hayvon va hayvon umumlashmasidan *Fox sparrow* – **chumchuq**, *fish crow* – **qarg'a** kabi qushning differensial semalar guruhi mavjud bo'ldi. Sifat va inson nomi konseptlarining qo'shilishidan *Little Elvis*, *Little Jimmy* **chumchuq nomlarining** differensial semalar bor. Demak yuqoridagi qush nomi arxisemasidan paydo bo'lgan kognitiv modellar integral semalar paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Integral semalarning natijasi o'laroq biz ularning aynan qaysi qush turiga kiruvchi tahlilni differensial semalarda kuzatdik.

O'zbek tilida bunday kognitiv modellar natijasida yuzaga kelayotgan integral semalarning komponentlari mavjuddir. Ingliz tilidagidan biroz kamroq bo'lsada, ammo eng produktiv usulga kiruvchi semalarni quyidagi jadvlardan kuzatishimiz mumkin (qarang: chizma 3.6)

### Chizma 3.6. O'zbek tilida qush nomini ifodalashdagi kognitiv modellar



Yuqoridagi sxema bizga shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida qush nomi arxisemasidan quyidagi integral semalar vujudga keldi:

Hayvon

Tana qismi

Rang

Rang va tana qismining umumlashmasidan *Sariq tomoq burgut* **burgut** *Yashil qanotli tovus* – **tovus**, turkumiga kiruvchi differensial semalar mavjud. Hayvon va hayvon umumlashmasidan *Tuya qaldirg'och* – **qaldirg'och**, *baliqchi o'rdak* **qarg'**aning differensial semalar guruhi mavjud bo'ldi.

Yuqoridagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatini ochib berish uchun o'simlik nomlari, inson tashqi ko'rinishini ifodalovchi so'zlar va qushlarning rangi, shakli va tana qismiga qarab nom berishda ishlatilayotgan so'zlar muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmay, ingliz va o'zbek tillarida bunday xususiyatga ega qo'shma so'zlar mavjud hamdir. Bu esa o'rginaloytgan tilni yanada chuqurroq tushunishga va lug'at boyligini oshishiga yordam beradi

### 3- bob bo'yicha xulosa

Yuqorida kuzatganimizdek, ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning kognitiv xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish o'sha til tarkibidagi lug'atni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qo'shma so'zlarning bunday tahlil qilinishida til va ongning aloqasini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Qo'shma so'zlarning til va ong bilan bog'liqlik xususiyatini ochib berishda kognitiv modellar muhim ahamiyatga egadir. Ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv modellarning tahlilida konsept tushunchasi eng muhim rol o'ynaydigan hodisadir.

Qo'shma so'zdagi ikkita konsept bitta kognitiv asosda yotadi. Qo'shma so'zlarni kognitiv xususiyatlarini ochib berish uchun esa bizga bir emas, kamida ikki va undan ortiq bir modelga kiruvchi qo'shma so'z kerak bo'ladi. Aks holda uning boshqa tahlillardan farqi qolmaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv modellari juda ham ko'p bo'lib, albatta ularning hammasini sanab o'tishni iloji yo'q. Ulardan eng unumdorlari bu **o'simlik** nomi – Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi, Hayvon+yeydigan narsa=o'simlik; tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'zlar – rang+tana qismi=**tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z**, Hayvon+tana qismi= tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z; **qush nomi** – Rang+tana qismi= qush nomi, Hayvon+hayvon=qush nomi kabi bir qancha modellar mavjud.

Ingliz va o'zbek tillaridagi juda juda ham ko'plab kognitiv modellar borligini yuqorida aytib o'tgandik. Ularning produktiv va produktiv bo'lmagan usulda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Qiyoslanayotgan **har ikki tilda ham produktiv** hisoblangan kognitiv modelning ba'zilariga quyidagilar kiritilsa:

Rang+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.

Hayvon+tana qismi= tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.

Quyidagilarning ba'zilar esa **ingliz tilida produktiv** bo'lmagan usulga kiradi:

Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi.

Narsa+tana qismi=tashqi ko'rinishni ifodalovchi so'z.

Hayvon+hayvon=qush nomi.

**O'zbek tilida** produktiv bo'lmagan qo'shma so'zlarning kognitiv modeliga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Hayvon+tana qismi= o'simlik nomi.

Hayvon+yeydigan narsa=o'simlik nomi.

Hayvon+hayvon=qush nomi.

Semantik jihatdan qo'shma so'zlar ma'noviy komponentlardan iborat bo'lib, bu komponentlar uchta guruhga kiradi. Ular: arxisemalar, integral semalar (umulashtiruvchi), differensial semalar (farq qiluvchi) semalar hisoblanadi. Qo'shma so'zlarning bunday semalar bilan tahlil qilinishiga til va ong o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Arxismelar bu kognitiv modelning nomi hisoblansa, integral semalar o'sha kognitiv modelning umumlashtirib turuvchi umumiy konspet nomlari hisoblanadi. Differensial semalar esa ma'no jihatdan aynan qaysi turkumga kiruvchi konspet ekanligini farqlab berishga xizmat qiladi.

Qo'shma so'zlarni kognitiv tahlili ingliz va o'zbek tilshunosligida katta ahamiyatga ega. Chunki qo'shma so'zlar tilning lug'at tarkibini boyitishga xizmat ko'rsatadigan eng samarali usul hisoblanadi. Ularning til va ong bilan aloqasini o'rganish esa qiyoslanayotgan har ikki til uchun ham muhim rol o'ynaydi.

## UMUMIY XULOSA

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan 21-asr tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri so'z yasaliş hodisasi bo'lib, hanuzgacha o'z murakkabligini yo'qotmagan bahsli munozara hisoblanadi. Chunki bugun o'z o'rnini ertaga bo'shatib, tarixga aylanar ekan, qo'shma so'zlar ham rivojlanib va yangilanib



borgani sari ba'zilari tarixiy so'zga, ba'zilari esa yo'qolib borish hodisasiga uchraydi.

Tilda mavjud bo'lgan imkoniyat va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish so'z yasashining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu hodisa tildagi lug'at tarkibini doimiy ravishda boyitib borishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etadigan so'z yasashi hodisasi deyarli barcha fanlar bilan juda yaqinlikda xususan, u leksikologiya – tilning lug'at tarkibi haqidagi fan bilan, o'z o'rnida fonetika va grammatika bilan yaqin, ayniqsa shakl yasash ta'limoti hamda so'z birikmasi sintaksisi bilan ham bo'g'liqdir. Tilshunoslikda so'z yasashi masalalari leksikologiya, fonetika, grammatika sohalari bilan doimo birga o'rganilib keladi.

Ingliz tilida so'z yasash hodisasi produktiv va produktiv bo'lmagan turlarga bo'linadi. Produktiv usulga qo'shimcha qo'shish, konversiya, abrivatsiya (qisqartirish), kompozitsiya (qo'shish orqali), produktiv bo'lmagan usulga esa tovush o'zgarishi, urg'u o'zgarishi, tovushga taqlid, uyg'unlashtirmoq, qayta tiklash kiritiladi.

O'zbek tilida so'z yasash usullariga affiksatsiya– (asos + so'z yasovchi qo'shimcha) asosga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishidan yangi so'z yasaladi, semantik usul– bunda bir turkumga xos so'z boshqa so'z turkumiga ko'chib, yangi ma'no anglatadi, semantik–leksik usul– bir vaqtlar so'z birikmasi bo'lgan so'zning qo'shma so'zga aylanib ketishi, so'zlarni qisqartirish usuli, kompozitsion usullari kiradi.

Qo'shma so'zlar bilan tarixdan hozirgacha jiddiy izlanishlar olib kelingan. Jumladan: A.I. Smirnitkiy, I.V. Arnold, T.I. Arbekova, D.A. Shepelova Marchand kabi tilshunoslarning so'z yasashi borasidagi ishlari sara namunalardan biri hisoblanadi. Xususan, ilk marotaba qo'shma otlarning to'liq asoslangan (motivation) va to'liq asoslanmagan (non–motivation) tizimlarining ta'rifini D.A. Shepelovanningishlarida ko'rishimiz mumkin.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham qo'shma so'zlar so'z birikmalaridan alohida ajralib turadi. Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki,

qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi. Qo'shma so'z elementlari yaxlit bitta ma'no beradi, o'zaro zich bog'lanadi va leksik munosabat bo'ladi. So'z birikmasi elementlari o'z mustaqilligini saqlaydi va erkin holatda bo'ladi. Sintaktik munosabat bo'ladi.

Qo'shma so'zlar orfografik jihatdan ingliz va o'zbek tillarida o'xshash hisoblanadi. Bu jihatiga ko'ra ular uchga bo'linadi: qo'shib yoziladigan, chiziqcha bilan yoziladigan, ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.

Semantik xususiyatiga ko'ra esa ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar quyidagi turlarga bo'linadi. a) to'liq asoslangan; b) qisman asoslangan; c) asoslanmagan.

Nutq turkumlariga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagicha klassifikatsiyalanadi: a) vazifasi nuqtai nazaridan; b) qo'shma so'zlarning tarkiblari bog'lanish jihatidan; c) turli xil qo'shilish yo'llari nuqtai nazaridan. ega va kesimning moslashuvi, bog'lanish xususiyati, tarkiblarning mos kelishi hamda, qo'shma so'zlarning tarkiblarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Endosentrik va ekzosentrik qo'shma so'zlarning tomonlari ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, endosentrik – qo'shma so'z komponentlaridagi ma'nolarning yig'indisidan yangi ma'no berish bo'lsa, ekzosentrikda – elementlar tarkibidagi ma'no o'sha qo'shma so'zning ma'nosiga umuman bog'liq bo'lmagan hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik orqali qo'shma so'zlarni tadqiq qilish tilshunoslikdagi eng zamonaviy tahlillardan biridir. Kognitiv tilshunoslik fani 21–asrdagi tilshunoslikning eng yangi va yosh bo'limi sifatida dunyoga keldi. Bugungi kunda bu fan zamonaviy lingvistikada mustahkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Bu yangi yo'nalish til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan izlanuvchilarning ishlari orqali kelib chiqdi. Kognisiya, ya'ni bilish jarayoni, ma'lumotni qabul qilish, uzatish yoki yuborish va yaratish faoliyatini o'z ichiga

oladi, bu holatlar lisoniy zahira bilan bog'liq bo'lib shubhasiz, bu lison bilan bilvosita yoki bevosita aloqada bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra bilish fenomeni lisoniy qobilyat bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy–ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi.

Freym analizi, kognitiv metafora va kognitiv xarita zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi eng faol asosiy metodlardan hisoblanadi. Freym – tilda berilgan tushuncha bizning miyyamizda butun bir holat yoki vaziyat sifatida namoyon bo'lishidir bu esa miyyamizda faqatgina bitta tushuncha kirib qolishini rad etadi.

Ta'sirchanlik va badiiy bo'yoqdorlik kognitiv metaforada muhim rol o'ynashi bilan birgalikda, bunda ikkita asosning o'zaro bog'liqligi va odatda shoirlar va notiqar tomonidan ko'pincha ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi va odatda so'zning ko'chma ma'nosi sifatida qaraladi. Kognitiv metaforadagi ikkita tarmoq ya'ni nishon va manba tarmoqlari bo'lib, odatda nishon qismi tasvirlanishi kerak bo'lgan asos bo'lsa, manba qismi esa metaforaga oid bo'lgan qismi bo'lib, nishon qismining mag'zini ochib beradi.

Kognitiv xarita– konseptning lingvistik ma'nosini ochib berishdagi xizmatidan tashqari u nomoddiy tahlil sifatida ham qaraladi. Konseptdagi ma'noni yanada chuqurroq tahlil qilishda va konseptning lingvistik ko'rinishini ifodalashda tilshunoslar tomonidan taklif qilingan kognitiv xaritani quyidagi strukturalari bor: lug'atdagi ma'nolar va lug'atshunoslikdagi izohlar, paradigmatik bog'lovchilar, syntagmatik bog'lovchilar, yordamchi bog'lovchilar, frazeologik bo'limlarda, tushunchaning tabiiy konseptualligi.

Qo'shma so'zlarning konseptual xilma xilligi ularning kognitiv modellarida yaqqol ko'rinadi. Qo'shma so'zlar kognitiv xususiyatlarini ochib berishda kognitiv model muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday modellar paydo bo'lishida bir turkumga kiruvchi ikki va undan ortiq qo'shma so'z kerak bo'ladi.

Shunday qo'shma so'zlar tahlilida, produktiv hisoblangan ko'pgina kognitiv modellar har ikki tilda ham mavjudligi bilan alohida ajralib tursa, ba'zi kognitiv modellar esa faqat qiyoslanayotgan tillarning bittasiga xosdir. Bunday kognitiv modelning asosiy xususiyatlari, ushbu qo'shma so'zlarning til va ong o'rtasidagi to'qnashuvda hosil bo'lgan natijalaridir.

Qo'shma so'zlar semantik jihatdan ma'noviy komponentlardan iborat bo'lib, bu komponentlar uchta guruhga kiradi. Ular: arxisemalar, integralsemalar (umulashtiruvchi), differensial semalar (farq qiluvchi) semalar hisoblanadi. Qo'shma so'zlarning bunday semalar bilan tahlil qilinishiga til va ong o'rtasidagi bog'lik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu kognitiv modelning nomi arxismelar hisoblansa, integralsemalar o'sha kognitiv modelning umumlashtirib turuvchi umumiy konspet nomlari hisoblanadi. Differensial semalar esa ma'no jihatdan aynan qaysi turkumga kiruvchi konspet ekanligini farqlab berishga xizmat qiladi.

Ingliz va o'zbek tilshunosligidagi muhim, zamonaviy va global hodisa bu qo'shma so'zlar tahlilida til va ong o'rtasidagi bog'liqligini ochib beruvchi kognitiv modellarning konseptual xilma– xilligidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Т.: Шарқ, 2010. – 176 б.
2. Акбарова С.А. Лингвистические средства и когнитивно–прагматическая значимость художественного портрета (на материале английских художественных текстов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –

Т., 2005. – 21 с.

3. Акобиров С.Ф., Михайлов Г.Н. Узбекско–русский словарь. – Т.: Гл. ред. Узб. сов. энциклопедии, 1988. – 726 с.

4. Алтаева А.Ш. Сложные слова в современном русском языке: Морфемная система и словообразовательная структура: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алматы, 2004. – 27 с.

5. Аржанцева Н.В. Сложные слова со вторым компонентом – отглагольным существительным в немецком и английском языках и их соответствия в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2004. – 28 с.

6. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959. – 305 с.

7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд. – М.: Наука, 1969. – 608 с.

8. Ашурова Д.У. Некоторые проблемы когнитивной теории текста // Деривационные закономерности развития языка.–Самарканд: СамГИИЯ, 2009.–С. 6–10.

9. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика.–Тамбов: Изд–во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2001.–123 с.

10. Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики.–Тамбов, 2004.–№1.–С. 18–36. Воробьев В.

11. Бондаренко В.А. Фонетическая структура инновационных сложных слов современного английского языка (экспериментально–фонетическое исследование): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 2001. – 20 с.

12. Бортничук Е.Н. Словообразование в современном английском языке. – Киев: Высш. шк., 1988. – 264 с.

13. Буранов Дж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высш. шк., 1983. – 267 с.

14. В. Лингвокультурология (Теория и методы).–М.: Изд–во РУДН, 1997.–331 с.
15. Воробьев В.В. Лингвокультурологическая парадигма личности. – М.: Изд–во «Ладомир», 1996. – 286 с.
16. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М.: Изд–во РУДН, 1997. – 331 с.
17. Воробьев В.В. Сопоставительная лингвокультурология и межкультурная коммуникация // Актуальные проблемы преподавания русского языка и литературы на современном этапе: Матер. Междунар. науч. конф.–Самарканд, 2002.–С. 6–14.
18. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация: Общие вопросы.– М., 1977.–С. 230–239.
19. Гальперин И.Р. Информативность единиц языка.–М.: Высшая школа, 1974.–175 с.
20. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 139 с.
21. Гуломов А., Кўнғуров Р., Тихонов А. Ўзбек тилининг морфем луғати.– Тошкент: Ўқитувчи, 1977.–461 б.
22. Гулямов А. О правописании сложных слов в современном узбекском языке//Ўзбек тили ва адабиёти – Т., 1953. – С. 14–16.  
Ибрагимходжаев И.И. Сложение как способ образования новых и окказиональных слов в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1979. – 25 с.
23. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человечества // Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях.–М.: Просвещение, 1964.–Электронная версия: <http://www.classes.ru/grammar/135.Zvegintsev/worddocuments/14.htm>.
24. Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 452 с.

25. Джусупов М., Сапарова К.О. Сегментная и суперсегментная фоностилизация русского языка как лингвистическая и методическая проблема // Языковое пространство Казахстана в новом тысячелетии и проблемы мировой лингвистики: Матер. Междунар. науч.–теор. конф.– Алматы, 2008.–С. 550–565.
26. Джусупов Н.М. Проблема концепта в современной лингвистике. // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2004, – № 4. – С. 12–18.
27. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 2–нашр, 2008. – 263 б.
28. Исмаилова Б. Категория образности и средства ее выражения в словообразовательной системе английского и киргизского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 28 с.
29. Кажигалиева Г.А. Культурологический аспект в работе над художественным текстом.–Алматы: Айкос, 2000.–249 с.
30. Каменская О.Л. Гендергетика – наука будущего // Гендер как интрига познания: гендерные исследования в лингвистике, литературоведении и теории коммуникации: Альманах. Пилотный выпуск. – М., 2002. – С. 13.
31. Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004.–№1.–С. 37–52.
32. Краевская Н.М. Ситуация как фактор дифференциации типов устной речи //Лингвостилистические особенности научного текста. – М., 1981.–С. 122–23.
33. Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. – М., 1996. – 139 с.
34. Кунин А.В. Англо–русский фразеологический словарь (~20000 ФЕ). – Изд. 4–е, перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1984. – 840 с.

35. Левина Т.В. Эволюция акцентной нормы сложных слов английского языка в XX веке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.; 2001. – 24 с.
36. Мадалиев Б. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма сўзлар//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1966. – Б. 104.
37. Маматов Н. Қўшма сўзлар билан содда сўзларнинг ўзаро муносабати масаласига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1982. – № 2. – Б. 7–12.
38. Маматов Н. Қўшма сўзлар табиати ва таърифига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1975. – № 1. – Б. 33–37.
39. Маматов Н. Қўшма сўзнинг сўз бирикмасидан фарқи//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1978. – № 5. – Б. 17–21.
40. Маматов Н. О классификации сложных слов в узбекском языке. – Т.: Советская тюркология, 1976. – № 4. – С. 45.
41. Нетьматов Х.Г., Бозоров О. Тил ва нутқ.–Тошкент, 1995.–127 б.
42. Никитин М.В. Развернутые тезисы о концептах // Вопросы когнитивной лингвистики.–Тамбов, 2004.–№1.–С. 53–65.
43. Николаева Т. Семантико–стилистические изменения в истории русского литературного языка // STUDIA ROSSICA POSNANIENSIA.– Adam Mickiewicz University Press, Poznan, 2003.–С. 143–48
44. Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. Избранные работы.–М.: Наука, 1968.–376 с.
45. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивно–семантический анализ языка.–Воронеж: Истоки, 2006.–226 с.
46. Стернин И.А. Когнитивная интерпретация в лингвокогнитивных исследованиях // Вопросы когнитивной лингвистики.–Тамбов, 2004.–№1.–С. 65–69.
47. Стернин И.А. Контрастивная лингвистика.–М.: Восток–Запад, 2006.– 206 с.



48. Тихонова Н. Концепт в системе современных лингвистических представлений // Семантика языковых единиц: Докл. VI Междунар. науч. конф. Т.1.–М., 1998.–С. 67–69.
49. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост., – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Ж. I. А–Д. – 680 б.
50. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост., – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Ж. II. Е–М. – 672 б.
51. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост., – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Ж. III. Н. – 688 б.
52. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили нашриёти, II томли, 1981. – I – жилд – 631 б.; II – жилд – 715 б.
53. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ А. Мадвалиев таҳр. ост., – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. Ж. IV. Тартибот–Шукр. – 608 б.
54. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ А. Мадвалиев таҳр. ост., – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. Ж. V. Шукрона–Ҳ. – 592 б.
55. Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: Фафур Ғулом, 1989. – 509 б.
56. Хайруллин В.И. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты перевода: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М, 1995. – 26 с.
57. Халеева И.И. Гендер как интрига познания // Гендер как интрига познания: Сб. статей. – М., 2000. – С. 9, 18.
58. Хожиев А. Ўзбек тилшунослигидаги қўшма сўзлар билан боғлиқ масалаларнинг ўрганилиш ҳолати//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1988, – № 4. – Б. 27–32.
59. Хожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Т., 1963. – Б. 10–15.
60. Худяков А.А., Чухарев Е.М. Когнитивная лингвистика и искусственный интеллект: результаты и тенденции взаимодействия // Вопросы когнитивной лингвистики.–Тамбов, 2004.–№1.–С. 93–105.

61. Шепелева Д.А. Когнитивные аспекты семантики сложного слова "существительное+существительное" в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2008. – 26 с.
62. Шохахова И.С. Лексико–морфологические способы образования сложных слов в немецком и казахском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Алматы. 2003. – 29 с.
63. Юсупов М.З. Синтагма в современном узбекском языке. – Т.: Фан, 1978. – С. 16–17.
64. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007. – С. 16–20.
65. Юсуф Хос Хожиб. Қутодғў билим (Соадатга йўловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф.–Тошкент: Ўқитувчи, 1996.– 192 б.
66. Allwood J., Gaerdenfors P. Cognitive semantics: Meaning and cognition. – Amsterdam / Philadelphia, 1999. – 550 p.
67. Ashurova D.U. Text Linguistics. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 203 p.
68. Dirven R., Verpoor M. Cognitive exploration of language and linguistics. – Amsterdam, Philadelphia, 1998.
69. English Thesaurus Dictionaries: Oxford, Cambridge and Collins Cobuild dictionaries. 2011.
70. Fauconnier G, Turner M. Conceptual Integration Networks // Cognitive science.–1998.–Vol.22.
71. Fauconnier G., Turner M. Compression and Global Insight // Cognitive Linguistics.–2000.Vol.11.
72. Geeraerts D., Cuyckens H. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics – Oxford: Oxford University Press: 2007 – p 238.
73. George Lakoff and Mark Johnson. – Metaphors we live by.–London, Chicago: University Press, 2003 – p 49.

74. Internet sources Langacker R. Cognitive Grammar: A Basic Introduction.– Boston: Oxford University Press, –2008.
75. Jackendoff R. Semantics and Cognition.–Cambridge, 1983.
76. Kroeber A., Kluckhohn K. The Concept of culture. Papers of the Peabody. – Museum, 1950.
77. Lakoff G. Cognitive Semantics // Meaning and Mental Representations.–Bloomington, 1988.
78. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we Live by.– Chicago: University of Chicago Press, – 1980.
79. Lakoff L., Johnson M. Metaphors we Live by. Chicago; L.: The University of Chicago Press, 1980. – P. 276.
80. Langacker R. Concept, Image, Symbol. Berlin: Mouton, – 1990
81. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. Boston: Stanford University Press, – 1987.
82. Langacker R.W. Why a mind is necessary: Conceptualization, grammar and linguistic semantics // Meaning and Cognition: A multidisciplinary approach.–Amsterdam / Philadelphia, 2000.
83. Lee D. Cognitive Linguistics. An Introduction.–N.Y., 2002.
84. MacCormac E. A Cognitive Theory of Metaphor. Cambridge MIT Press: –1985.
85. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – UK.: Macmillan Publishers Limited, 2002. – P. 1692. (MAC).
86. Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation – Wiesbaden: 1960. – p145.
87. Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. München, 1969. – P. 545.
88. New Oxford Dictionary of English. Oxford University Press Inc., – N.Y., 1998, 2001. – P. 2152 (NODE).
89. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-tom. 1978

90. Oxford Advanced Learner's Dictionary. Oxford University Press Inc., – N.Y., 2005. – P. 1780 (OALD).
91. Paperback Encyclopedia. – Glasgow: Harper Collins Publishers, 1995. – P. 988. (PE).
92. Pinker S. The language instinct: How the mind creates language.– N.Y., 1995.
93. Pollack R. Signs of Life: The Language and Meaning of DNA.– London, 1994.
94. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – b 28.
95. Vyvyan Evans and Melanie Green “Cognitive Linguistics. An introduction” Edinburgh: University Press Ltd, 2006 – 851 p.
96. Webster's New World Dictionary. – N.Y.: Published by Webster's New World Dictionary A Division of Simon & Schuster, Inc, 1989. – P. 1557 (WNWD).
97. Webster's Third New International Dictionary (unabridged) and Seven Language Dictionary. – N.Y.: Encyclopedia Britannica, INC, Vol.1, 1981. – P. 1016 (WTNID).

**Veb–saytlar ro'yhati:**

1. [http: // www. philology. ru](http://www.philology.ru)
2. [http: // www. wikipedia.org.](http://www.wikipedia.org)
3. [http: // www. Ziyonet.uz.](http://www.Ziyonet.uz)
4. [http: // www. dissertation.com.](http://www.dissertation.com)
5. [http: // www. thefreedictionary.com.](http://www.thefreedictionary.com)